

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI
O‘QITISH TEXNOLOGIYASI**

TOSHKENT - 2014

Mazkur metodik qo'llanma o'rta ta'lim muassasalari tarix o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Unda asosiy e'tibor umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarni DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, shuningdek, ularni shaxs sifatidagi barkamolligini ta'minlash masalalariga qaratilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Mualliflar:

G.S.Fuzailova - tarix fanlari nomzodi, dotsent
O.R.Rahmatullayeva - tarix fanlari nomzodi
X.X.Jamaldinov - katta o'qituvchi

Metodik qo'llanmaning III bobida keltirilgan metodik ishlanmalar Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 42-umumta'lim maktabi tarix o'qituvchisi M.Ibragimova, Pskent tumani 17-umumta'lim maktabi tarix o'qituvchisi N.Xusanova tomonidan tayyorlandi.

Taqrizchilar:

H.N.Tuychiyeva - Nizomiy nomidagi TDPU Davlat va huquq asoslari kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

F.Sultonov - Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumanidagi 72-sonli ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi tarix o'qituvchisi

Mazkur metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Kengashining 2014-yil 22-maydagi 14/4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	
I bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishga texnologik yondashuvni tatbiq etishning nazariy asoslari.....	
1.1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda texnologik yondashuvni tatbiq etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	
1.2. Tarix fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish qoidalari.....	
II bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishning xususiy metodik texnologiyasi.....	
2.1. Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish.....	
2.2. Interfaol ta'lim asosida tarix darslarini loyihalash va rejalashtirish amaliyoti.....	
III bob. Umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish	
3.1. Texnologik yondashuv asosida tarix darslarini tashkil etish va o'tkazishga doir ishlanmalar.....	
3.2. Tarix fanini o'qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish tajribalari.....	
Xulosa.....	
Tarix fanini o'qitishni texnologiyalashtirishda qo'llanadigan adabiyotlar ro'yxati	
Ilovalar.....	

KIRISH

Bugun mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, farzandlarimizga zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim berish borasida ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda.

Istiqlol yillarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining yorqin samaralarini berdi. Shu bilan birga, ertangi kunimizni yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratish, biz boshlagan buyuk ishlarni davom ettirishga qurbi-qudrati etadigan, hech kimdan kam bo'lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk va barkamol, mustaqil va erkin fikrlaydigan yangi avlodni kamol toptirish, ongli yashaydigan, siyosiy, huquqiy va ma'naviy saviyasi tobora o'sib borayotgan, o'z kelajagini, kim uchun va nima uchun mehnat qilayotganini aniq tasavvur etayotgan barkamol avlodni tarbiyalashni davr taqozo etadi.

Ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarini tayyorlash, ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchini o'z ortidan ergashtira olish uchun o'qituvchiga qanday yordam berish kerak?

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-1761-son Qarori qabul qilindiki, unda pedagog kadrlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallashlari uchun tegishli sharoitlar yaratish, ulardan interfaol ta'lim uslublarini o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalarini ommalashtirishni ta'minlash maqsadida, umumiy o'rta ta'lim tizimi tarix ta'limi jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish mavzusida mazkur metodik qo'llanma tayyorlandi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ta'lim jarayoniga tadbiq etishning so'nggi bosqichi sifat va samaradorlikni tatbiq etuvchi mas'uliyatli davri boshlandi.

Yangi modernizatsiya qilingan standartlar, yangi avlod darsliklari, variativ o'quv rejalar, takomillashtirilgan dasturlar yaratildi. Darsliklar ijara tizimi asosida maktablarga etkazib berilmoqda.

Maktablarning moddiy bazasi mustahkamlanmoqda. Yangi maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, zamonaviy asbob-uskunalar, texnika vositalari bilan ta'minlash, kompyuterlashtirish, o'quvchilar, o'qituvchilarni ijtimoiy himoya qilish ishlari dasturlar, rejalar asosida jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Shunday mas'uliyatli davrda o'qituvchilarning barchasi mas'uliyatni birdek xis qilgan holda jonbozlik ko'rsatyaptimi? Maktabda hamon eski qolipdagi, eskirgan usullardan voz kechib, yangicha talablar asosida dars olib borishga nimalar xalaqit bermoqda. Umuman o'qituvchi yangicha sharoitda, yangicha usullarni o'zlashtirib ish yuritishga tayyormi?

Maktabda pedagogik usullarni qo'llash, ta'lim sifati va samaradorligini ko'tarish, yangi dastur, standartlarni o'zlashtirishni kafolatlash, o'quvchini erkin fikr yuritishga o'rgatish o'z shaxsiy pozitsiyasini qat'iy himoya qilishga erishtirish uchun

nima qilmoq kerak?

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, ilg'or an'alariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo'lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat

Umumiy o'rta ta'lim tizimining moddiy bazasi kun sayin mustahkamlanib bormoqda. Ularda zamonaviy o'quv xonalari va laboratoriya jihozlari ishga tushirilmoqda, zamonaviy informatsion axborot vositalari bilan ta'minlanmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim standartlar, normativ o'quv rejalari, modernizatsiya qilingan dasturlar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanmoqda. Bir so'z bilan aytganda ta'lim-tarbiyaviy ishlarini olib borish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin ta'lim jarayoni ilm-fanning so'nggi yutuqlari asosida qanchalik texnologiyalashtirilmasin, pirovard natijaga erishish, ya'ni puxta chuqur bilim berish, yuqori intellektual salohiyatga, raqobatbardoshlikka erishish, yuqori sifat, samaradorlikka erishish bevosita mashg'ulotlar olib boruvchi o'qituvchining kasbiy malakasiga, mahoratiga, ijodkorligiga, ilg'or texnologiyalarni, innovatsiyalarni o'z pedagogik faoliyatiga olib kirish va qo'llay olishi mahoratiga bog'lanib qolaveradi.

Ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi, talabining o'quv mazmunlarini qay darajada yo'naltirilgan mustaqil shaxsga, sub'yekt-sub'yekt shaklida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarga, ularning mustaqil fikrlay olishi va tafakkur faoliyatiga bog'liq.

Metodik qo'llanma uch bobdan iborat bo'lib, birinchi bob umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishga texnologik yondashuvni tatbiq etishning konseptual asoslarini, ikkinchi bob umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishning xususiy-metodik texnologiyasini o'z ichiga olgan. Uchinchi bobda esa umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish metodikasi ishlab chiqilgan, o'quv mashg'ulotlarida foydalaniladigan zamonaviy texnologiya va topshiriqlar taqdim etilgan.

Ushbu metodik qo'llanmada seminar treninglar natijasi sifatida o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan nazariy va metodik tavsiyalar taqdim etiladi.


I BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O'QITISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda texnologik yondashuvni tatbiq etishning o'ziga xos xususiyatlari

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir.

Shuningdek, o'qitishning natijalari ham o'qituvchining o'qitishdan ko'zlangan maqsadini, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga o'zluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Professr P.V.Gora umumiy o'rta ta'lim tizimida tarix ta'limi jarayonining umumiy qonuniyatlarini quyidagi sxemada ifodalab, ularning har qaysisiga izoh beradi:



Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy ruhda tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lamini, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish, olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tarix o'qitishni tashkil qilish deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishida o'qituvchilarga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish, ularni ijodiy bilishga yo'naltiruvchi topshiriqlar sistemasi hamda ta'limning turli xil formalari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi.


O'qitishning natijalari deganda esa, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvafaqqiyatli tarzda amalga oshirish; o'quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta o'zlashtirishlari shu asosda o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o'stirish ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limi jarayonining yuqoridagi umumiy qonuniyatlari quyidagi ob'yektiv va qat'iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo'ladi: o'qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi, maqsad va mazmuniga mos keladigan o'qitish metodi va usullari tanlanadi, o'qitishning samarasi esa o'qitishda erishilgan qat'iy ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, ya'ni tarixiy bilimning sifati, o'quvchilarning kamol topish darajasi bilan o'lchanadi.

Ta'limni muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, 5-9 sinflarda tarix o'qitish oldida turgan umumiy maqsad bilan ta'lim-tarbiya vazifalarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'rnini, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursni o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'limi, bo'limdagi mavzular, xatto har bir darsda o'qitiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar sistemasida tutgan o'rnini bor, bu darsda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi xal etiladi.

Zamonaviy pedagogik ta'limda ta'lim metodlarining tasnifi muhim o'rin egallaydi. Ta'lim metodlari o'qituvchi faoliyati (tushuntirish, hikoya va og'zaki gapirib berish), ya'ni bilim berish hamda o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi faoliyati (mashq va mustaqil ish) bilan uzviy bog'liqdir.

Tarix fanida ta'lim metodlarini quyidagicha tasniflash mumkin:



Ogʻzaki bayon metodi. Ogʻzaki bayon metodi taʼlim metodlari tizimining asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Qachonlardir u taʼlim berish jarayonida etakchi metod hisoblangan. Bugungi kunda bu metod ancha eskirgan boʻlib, koʻp hollarda uni anʼanaviy metod deb ham atashadi. Ammo bu metodga nisbatan obʼyektiv tarzda yondashilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Ogʻzaki bayon metodi qisqa vaqt ichida katta hajmga ega boʻlgan maʼlumotni etkazish, muammoni aniqlash va uning echimini topishga imkon beradi. Tushunchaning shakllanishi soʻz bilan uzviy bogʻliq. Ular oʻrtasidagi aloqadorlik tafakkur va til oʻrtasidagi bogʻlanishning konkret tarzda namoyon boʻladi. Oʻqituvchining jonli soʻzi oʻquvchining kecha, bugun va ertangi kun haqidagi tasavvuri, tafakkuri, xotirasi va his-tuygʻularini shakllantiradi.

Ogʻzaki bayon metodi quyidagi turlarga ajratiladi: hikoya, tushuntirish, bahs-munozara, maʼruza va manbalar bilan ishlash.

Hikoya. Hikoya usuli oʻquv materialining ogʻzaki bayoni hisoblanadi. Bu usul taʼlim jarayonining barcha bosqichlarida qoʻllanadi. Hikoya qilish jarayonida oʻqituvchidan qator pedagogik talablarni bajarish talab qilinadi: aniq faktlarga toʻxtalib oʻtish; yorqin va aniq misollar, faktlar va dalillarni keltirish; fikrlarning mantiqiylikiga, emotsional xususiyatlariga eʼtiborni qaratish; sodda va ravon tilda soʻzlash; bayon etilayotgan hodisa va voqealarga oʻzining shaxsiy munosabatini bildirish.

Tushuntirish. Tushuntirish – tushuntirilayotgan fikrlarning qonuniyatlari, oʻrganilayotgan obʼyektning oʻziga xos xususiyatlari, alohida tushunchalari va hodisalaridir.

Tushuntirish – bu bayon etishning **monologik shakl**idir. Bu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagilar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq boʻladi: oʻquv vazifalari, muammoning turi va savollarni aniq qoʻya bilish; sabab va hodisalar oʻrtasidagi bogʻliqlik, taxmin va mushohadalarni ketma-ketlikda yoritib berish; fikr

va mulohazalar, gipotezalardan foydalanish; yorqin misollar keltirish; fikrlarni mantiqan yoritish.

Suhbat. Suhbat – dialogik ta’lim usuli bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchi yangi va o‘tilgan mavzuni qay darajada puxta o‘zlashtirilganligini tuzilgan savollar orqali aniqlaydi. Suhbat didaktikaning an’anaviy usullaridan biri hisoblanadi. Suqrot bu usuldan yuqori saviyada foydalangan.

Aniq vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat quyidagi turlarga ajraladi: mavzuga kirish bo‘yicha tashkiliy suhbat; mavzu bo‘yicha ma’lumot beruvchi, ya’ni yangi bilim beruvchi suhbat (evristik); mavzuni mustahkamlovchi suhbat.

Mavzuga kirish bo‘yicha suhbatning maqsadi – avval o‘zlashtirilgan bilimlarni dolzarblashtirish, diqqatni jalb qilish, o‘quvchilarning intellektual va potentsial imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv faoliyati oldiga qo‘yilgan vazifalarni echishga qaratilgan. Bu suhbatning turi o‘quvchilarning yangi mavzuga tayyorgarligi darajasini aniqlaydi.

Mavzu bo‘yicha ma’lumot beruvchi, ya’ni yangi bilim beruvchi (evristik) suhbat o‘quvchini yangi bilimlar olishga, bilim olish yo‘llarini izlab topishga, o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan savollarga shaxsiy javoblarini shakllantirishga yo‘naltiradi. Evristik suhbat jarayonida o‘qituvchi o‘z bilimlari manbai va tajribasidan foydalangan va qoidalarga tayangan holda yangi bilimlarni o‘quvchilar ongiga singdiradi.

Mavzuni mustahkamlovchi suhbat o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan nazariy bilimlarni o‘stirish va ularni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Suhbat individual yoki frontal tarzda olib borilishi mumkin. Suhbatning yana bir asosiy turlaridan biri bu – *suhbatlashishdir*. Suhbatlashish butun bir sinf yoki alohida guruhda amalga oshirilishi mumkin. Tarixiy, huquqiy va falsafiy tushunchalarni o‘quvchilarga singdirishda suhbatlashish usuli qo‘l keladi. Bu usul o‘quvchilarni mustaqil tushunchalarning mohiyatini anglashga, muammoli savollar qo‘ya olishiga, tarixiy, huquqiy va falsafiy tushunchalar haqida o‘z fikrlarini aytishga imkon yaratadi.

Suhbat o‘tkazishning samarasi savolning qay darajada to‘g‘ri qo‘yilganligiga bog‘liqdir. Savollar qisqa, lo‘nda, aniq va mazmunan to‘g‘ri qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Noaniq savollar o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itadi. Suhbat jarayonida “ha” yoki “yo‘q” javobli savollardan qochish kerak.

Suhbat usuli quyidagi afzalliklarga ega: o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini, ularning xotira va nutqini faollashtiradi; katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi; o‘quvchilar bilimini tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu usulning kamchiliklari shundaki, u ko‘p vaqtni talab qiladi; o‘quvchi har doim ham to‘g‘ri javob bera olmaydi; suhbat jarayonida o‘quvchilar, albatta, ma’lum bir bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Bahs-munozara. Bugungi dars jarayonida bahs-munozara muhim o‘rin egallaydi. Bahs-munozara - o‘z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Bahs-munozarada biron bir muammo hal etiladi. Albatta, bu jarayonda o‘quvchilar ma’lum bir bilimlar manbaiga ega bo‘lishlari, har bir o‘quvchi

o'z fikrini mantiqan o'ylab, to'g'ri ifoda qilishi kerak. O'qituvchi muammo chegarasidan chiqib ketishga yo'l qo'ymasligi zarur.

Tarix fanida o'quvchilarda tushunchalarni shakllantirishda bahs-munozaralar muhim o'rin egallaydi. To'g'ri tashkil qilingan bahs-munozara tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatga ega bo'ladi. Tushunchalarni chuqur o'rganishga, muammoni keltirib chiqarish va ularning echimini topishga, o'z nuqtai nazariga ega bo'lishga hamda o'zgalarni fikrini hurmat qilishga o'rgatadi.

Ma'ruza. Ma'ruza – katta hajmdagi materialni monologik bayon etish usulidir. Bu usuldan tarix fanida ham foydalanish mumkin. Ma'ruza darsning afzallik tomonlari shundaki, o'quvchilarda yangi o'quv mavzusini yaxlit va umumlashgan holda, mantiqiy ketma-ketlikda hamda boshqa mavzular bilan bog'langan holda taqdim etishga imkon beradi.

O'tgan mavzularni takrorlash maqsadida ham ma'ruzalardan foydalanilsa bo'ladi. Bunday ma'ruzalar umumiy ma'ruzalar bo'lib, ular bir yoki bir necha mavzular asosida o'tkazilishi mumkin.


O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarida dars o'tish jarayonida ma'ruzalardan foydalanish o'quvchilarning o'qish faoliyatini faollashtiradi, mavzu bo'yicha muammoli vazifalarni echish uchun qo'shimcha ilmiy ma'lumotlarni mustaqil izlashga yo'naltiradi. Shu bilan birga o'quvchilar mustaqil tajribalar va tadqiqotlar olib boradilar.

Og'zaki bayon jarayonida o'qituvchi bir qancha funktsiyalarni bajarib, aniq natijaga erishadi
o'qituvchi funktsiyalari
Izohli axborot
mantiqiy izoh
fikr va g'oyasini isbotlash
tarbiyaviy
emotsional ta'sir
o'quvchilarni o'ylash va fikrlash, his etish, baholashga o'rgatish

Matnlar bilan ishlash metodi. O'quvchilarning tayyor materiallar, ya'ni darslik, o'quv qo'llanma va boshqa yozma matnli materiallar bilan ishlatishga qaratilgan. O'quvchilarni ijodiy izlanish va mustaqil fikrlashga yo'naltirishda manbalar bilan ishlash katta ahamiyat kasb etadi.

Manbalar bilan ishlash. Manbalar bilan ishlash tarix ta'limi jarayonining eng muhim usullaridan biri hisoblanadi. Hech kimga sir emas, bugungi globallashuv jarayoni, rivojlanayotgan axborot texnologiyalari yoshlarimiz ongiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod bugungi kunda o'z ustida ishlamaydi. Ular internet tizimi orqali olingan tayyor ma'lumotlar asosida bilimlarini kengaytirishga harakat qiladi. Bu jarayon ularning manbalar bilan ishlash, ularni tahlil qilish, fikrlash qobiliyati va o'z nuqtai nazariga ega bo'lishini chegaralaydi. Aynan manbalar bilan ishlash usuli ana shu muammoni bartaraf etishga yordam beradi. Albatta, bu usulni amalga oshirish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratilsa

maqsadga muvofiq bo'lar edi: dars o'tish jarayonida o'quvchilarga muhim bo'lgan asosiy adabiyotlar ro'yxatini taqdim etish; taqdim etilgan adabiyotlarni konspektlashtirish, o'qib chiqilgan ma'lumotlarni qisqa bayon etish; matnning rejasini tuzish. Reja o'z o'rnida oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Buning uchun mavzuni ma'lum bir qism yoki bo'limlarga ajratib olish kerak: tezis tuzish - o'rganilgan mavzu bo'yicha qisqa asosiy fikrlarni yozish; izoh keltirish yoki matndan ilova keltirish; annotatsiya – o'qilgan mavzuni qisqa bayon qilish; taqriz yozish – o'qilgan mavzuga qisqa yozma tarzda o'z munosabatini bildirish; ma'lumotlar tuzish - tadqiqot natijasi, o'rganilgan adabiyotlar bo'yicha ma'lumot yozish; sxemalar, chizmalar, slaydlar tayyorlash; asosiy g'oyalarni ketma-ketlikda yozish.




Ko'rgazmali vositalar bilan ishlash metodi. Ta'lim berish jarayonida yangi o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida, ko'rgazmali vositalar metodiga vizual o'quv materiallar va texnik vositalar kiradi. Ko'rgazmali vositalar bilan ishlash metodi og'zaki gapirib berish va amaliy faoliyat bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. O'quvchilarga vizual vositalar hamda emotsional his-tuyg'ular orqali yangi ma'lumotlarni, voqea-hodisalarni o'rganish imkonini beradi.

Ko'rgazmali vositalarni ikki guruhga ajratish mumkin: ko'rsatish va taqdim etish.

Ko'rsatish – o'quv qo'llanmalar, plakatlar, jadvallar, rasmlar, fotosuratlar, doskada aks ettirilgan ma'lumotlar kiradi. Bu jarayonda kodoskop yoki epidiaskoplardan ham foydalanilsa bo'ladi.

Taqdim etish – esa texnik vositalardan foydalanilgan holda taqdimotlar, multimediyalar, kinofilmlar va diafilmlar kiradi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish zamon talabi bo'lib qoldi. Bunda o'quvchilar barcha jarayonlarni vizual ko'rish imkoniga ega bo'ladi, hamda o'quv materialida berilgan voqea va hodisalar, tushunchalar haqida tasavvur hosil qiladi.



Amaliy metodlar. Ta'lim berishning amaliy metodi o'quvchilarning amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ularga *o'quv vazifalar* va *amaliy ishlar* kiradi.

O'quv vazifalari ma'lum bir mavzuni o'qishga, o'rganishga qaratilgan o'quv topshirig'idir. O'quv vazifalar tarixiy, huquqiy va falsafiy tushunchalar bilan ishlash jarayonida qo'l keladi. O'quv vazifalarining turi o'tiladigan mavzuga, o'quv materialiga, savollarga, guruhdagi o'quvchilarning salohiyatiga bog'liqdir.

O'quv vazifalari og'zaki, yozma, grafikli organayzerlardan (tashkil etuvchilardan) iborat bo'lishi mumkin. Ularni bajarish jarayonida o'quvchilar aqliy va amaliy faoliyat yuritadilar.

O'quv vazifalari yangi mavzuni mustahkamlashga qaratilgan o'quv vazifalar, yangi mavzuni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv vazifalari kabi funksiyalarni bajaradi.

O'quv vazifalari og'zaki bayon metodidan foydalanilgan holda ham bajariladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchining og'zaki javobini nazorat qilib, yo'l qo'ygan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi.

Amaliy ishlar. Amaliy ishlar o'quv fanining yoki predmetning katta bo'lim yoki bobining yakunida umumlashtiruvchi topshiriq sifatida amalga oshiriladi. Amaliy ishlar nafaqat dars davomida, balki darsdan tashqari faoliyatda ham amalga oshirilishi mumkin. Tarix fanida tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv

loyihalar fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi. O‘quv loyiha loyihalashtirish faoliyati bilan bog‘liqdir. Bu jarayonda o‘quvchilar yakka tartibda yoki guruhlar bo‘yicha belgilangan ma‘lum vaqtda berilgan mavzuda o‘quv, tadqiqot yoki boshqa turdagi ishni bajaradilar. O‘quvchilar yangi bilim olish bilan birgalikda, muammoning echimini topishga harakat qiladilar. Loyihalashtirish usuli–ta’limning har bir bosqichida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi aloqalarni, akademik bilimlar va pragmatik mahoratlar birlashishini ta’minlovchi o‘quv faoliyati hisoblanadi.

Tarix fanida tarixiy, huquqiy va falsafiy tushunchalarni o‘quvchilar ongiga singdirishning ushbu usullari tajriba-sinov ishlarida ijobiy natijalar beradi, shu bilan birga bunda o‘quvchilar o‘z faolligini namoyish etadi; fikrlarini mustaqil bildiradi; imkoniyatlarini erkin namoyon etadi; tadqiqotlar, eksperimentlar va tahlillar o‘tkazishadi; tushunchalarni o‘zaro bir-biri bilan bog‘lay olishadi; bilimlariga tayangan holda muammolarni topishadi va echishadi; mustaqil qarorlar qabul qilishadi; jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganishadi; o‘z xatolarini topa olishadi va kamchiliklari ustida ishlashadi; o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilishadi, o‘z yutuqlari va kamchiliklarini aniqlashadi, vujudga kelgan qiyinchiliklarning sabablarini qidirishadi, xatolarni tuzatish yo‘llarini topishadi.

Ta'lim metodlari va usullari

vositalar	metodlar	Usullar
hikoya, monolog, suhbat...	Og‘zaki bayon	syujetli hikoya, tahlil, izoh
darslik, qo‘llanma, matn, adabiyot	yozma bayon	konspekt, tayanch konspekt, tushunchalarni yozib olish
ko‘rgazma, jadval, predmet	ko‘rgazmali	tahlil, taqqoslash, chizish, b‘yyash
yasash, yaratish	amaliy	xom-ashyo, mehnat qurollari

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda “Tarix” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondashuvlarni keltiramiz:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirayotganda, albatta, ma‘lum bir ta’lim oluvchi shaxsni emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Unda ta’lim texnologiyasi jaryonning mantiqiyliqi, barcha bo‘g‘inlarining o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi kabi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchini faollashtirish, o‘quv jaryonida uning barcha

imkoniyatlari, qobiliyati va tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish o'zaro tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'yektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda hamkorlikda ishlashni joriy etish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim – ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimning ob'yektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullari, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil ijodiy faoliyat ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashni anglatadi.

O'qitishning usullari va texnikasi ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli kabilarni o'z ichiga oladi.

O'qitishni tashkil etish shakllari dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan jamoaviy va guruhlashtirishdan tashkil topadi.

O'qitish vositalari – o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda kompyuter va axborot texnologiyalaridan tashkil topadi.

Kommunikatsiya usullari tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlardan iborat.

Teskari aloqa usullari va vositalari kuzatish, blits-so'rov, oraliq, joriy va yakuniy nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitish diagnostikasini o'z ichiga oladi.

Boshqarish usullari va vositalari o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi darslarni rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, auditoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazoratini o'z ichiga oladi.

Monitoring va baholash o'quv mashg'ulotida ham, butun fan davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borishdir. Fan oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilar bilimi baholanadi.

O'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasi loyihalashtiriladi va rejalashtiriladi. Hozirgi kunda o'qitishning eng ommabop shakl bo'lgan ma'ruza darslari hisoblanadi.

Ma'ruza - o'qitishni tashkil etishning etakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- **yo'naltiruvchilik**-o'quvchilarni o'quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;

- **axborotlilik**- o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

- **metodologiklik**- ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;

- **tarbiyalovchilik**-ma'ruza o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otadi;

- **rivojlantiruvchilik** - bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi;

- ma'ruzani faollashtirish, qiziqarli va samarali o'tkazish.

Didaktik talablarni bajarish:

- ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;

- ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish);

- mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlarni ma'lum qilish;

- rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish;

- ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;

- yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, ifoda, vaqt, dalillar va boshq. aytib turish.

1.2. Tarix fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish qoidalari

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi.

Tarix ta'lim jarayonini loyihalashtirishni ikki xil tushunish mumkin.

1. Dars jarayonini loyihalashtirish (texnologik xarita tuzish)

2. O'qitishning loyihaviy texnologiyasi.

1. Dars jarayonini loyihalashtirish. Loyihalashtirish - («loyiha» so'zidan) – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi. Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari va bilish imkoniyatlari inobatga olinadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, o'quvchilarning birgalikda ta'lim olishi amalga oshiriladi. O'quvchilarning hamkorlikda ta'lim olishi, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, o'quvchilar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchi uchun bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinish (yoki shakl)da tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil

etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Zamonaviy ta'limda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, algoritmash, loyihalashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- o'quv jarayonida o'quvchining faolligini oshirish, uni bevosita ishtirokini ta'minlash, uni hamkorlikka chaqirish.

- o'quv rejada ko'zda tutilgan o'quv material bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

- ta'lim mazmunini, matnlarni mustaqil o'rganish, ko'nikma, malakalarni hosil qilish.

- o'quvchini o'z fikrini bildira olish, himoya qila olish, isbotlay olishga odatlantirish.

Ta'limni olib borganda pedagogik motivlar, ehtiyojlar, manfaatdorlik, maqsadlarni ko'zda tutgan holda o'quv jarayonini tashkil etish zarur.

O'qituvchi o'z predmeti bo'yicha ta'lim jarayonini loyihalashtirishi uchun - texnologiyalarni loyihalashi, texnologik xaritalarni tuza olish malakasini egallashi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishiga olib keladi va pedagogik texnologiyalarning kasbiy tafakkur usuli, ijodining mahsuli sifatida e'tirof etishiga imkon beradi.

Buning uchun tarix o'qituvchisi DTS talablari va o'quv dasturini chuqur bilishi, ilg'or ta'lim texnologiyalarini egallashi, tarix fanidan o'quv metodik majmuasi, ta'lim texnologiyalari va elektron darslikka ega bo'lishi, didaktik talabga javob beradigan o'quv topshiriqlarini tayyorlash malakasiga ega bo'lishi va tinmay o'z malakasini oshirib borishi talab qilinadi.

Quyida o'rta ta'lim tizimi uchun besh bosqichli texnologik xarita orqali dars jarayonini loyihalashtirishni keltiramiz.

Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti – 45 daqiqa	O'quvchilar soni – 30 nafar
Mashg'ulot shakli	Aralash dars
Ma'ruza rejasi	
O'quv mashg'ulotlarining maqsadi:	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:

•	
<i>Ta'lim berish usullari</i>	
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	
<i>Monitoring va baholash</i>	

Texnologik xarita

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchilar
I bosqich. Tashkiliy qism (3 daqiqqa)		
II bosqich. O'tilgan mavzuning nazorati (15 daqiqa)		
III bosqich. Yangi mavzuni o'tish (15 daqiqa)		
IV bosqich. Mustahkamlash (10 daqiqa)		
V yakuniy bosqich (2 daqiqa)		

Tadqiqot davomida asosan tushunchalar apparati bilan ishlash jarayonida quyidagi usullar o'z samarasini berdi:

“Hamkorlikda izlash” usuli. Bu usulda o'qituvchi va o'quvchilar mantiqiy xulosalar yordamida birgalikda ko'riladigan tushunchalarga aniqlik kiritadi. SHu


tariqa tushunchalar bilan ishlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi: o'qituvchi doskaga mavzu yuzasidan tushunchalarni yozadi va o'quvchilardan ushbu tushunchalarga izoh beruvchi bitta yoki ikkita so'z aytishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini doskaga yozadi. Shu tariqa so'z va so'z birikmalariga izoh beruvchi ro'yxati paydo bo'ladi; o'qituvchi o'quvchilardan tushunchalarning mohiyatiga ko'proq mos keladigan xususiyatlarini ro'yxatdan ajratib olishni so'raydi; tushunchalarga ta'rif berish jarayonida ajratib olingan alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchalar sintezlanadi.

Bu jarayonda o'qituvchi baxs-munozara uchun sharoit yaratib, uni boshqarib turadi. Ushbu usulning ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilar tushunchalarga o'zlari izoh beradi. Bu jarayon o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga hamda tushunchalarni yaxshiroq eslab qolishiga yordam beradi. Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar o'zlari izoh bergan tushunchalarni mantiqiy xulosalar yordamida ko'proq eslab qolar ekan.

"Aqliy hujum" texnologiyasidan foydalanilsa, ushbu usul yanada samarali bo'ladi. Agar bu usuldan to'g'ri foydalanilmasa, o'qituvchi o'quvchilarning fikrini hurmat qilib, chegaradan chiqmagan holda boshqarib turmasa ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish. O'quvchilar manbalardan mustaqil foydalangan holda tushunchalarga izoh berishadi. O'qituvchi o'quvchilarga adabiyotlar ro'yxatini taqdim etadi, ularni izlash yo'llarini ko'rsatib beradi hamda ularning bilimni nazorat qiladi. Bunda "Insert" texnologiyasi yaxshi samara beradi.

SHuningdek, o'quvchilar o'qituvchining nazoratidan holi ravishda mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlash jarayonida tushunchalar haqida tasavvurlar shakllanishida o'z munosabatini bildiradi.



Tushunchalar bilan ishlash: Tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o'quvchilar aktiv suratda idrok etishiga qaratilgan usullardan foydalanadi. O'qituvchi hikoyasining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi, darslik matnidagi, tarixiy hujjatlardagi voqealar va tasviriy elementlar, badiiy adabiyot

asarlari o'quvchilarda tarixiy tasvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi materialni bayon qilayotganda, tarixiy hujjatlardan, ilmiy ommabop va badiiy adabiyot asarlaridan olingan yorqin tafsilotlarga hamda o'quvchilardagi tarixga qiziqishining ortishi, ularning muhim tafsilotlarni ajratib olishi va esda saqlab qolishlariga yordam beradi. Biroq, o'quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi bayonining jonli va emotsional bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi. O'qituvchi o'quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim. O'qituvchi ko'rgazmali qurolni shundaygina ko'rsatib, uning mazmunini tushuntirib, hujjatlarni o'qib qo'ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarni alohida intonatsiya bilan ta'kidlashi, ko'rgazmali qurollarni, matnlarni o'quvchilarning faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o'rganilgan hujjatlardagi u yoki bu jihatlariga ular diqqatini jalb qilishi lozim.

Tarix bo'yicha har bir sinf dasturlarining oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab berilgan. Bu tushunchalar kursning ilmiy mazmunini, g'oyaviy-nazariy asoslarini aniqlab olishi, konkret tarixiy materialni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ish usullarini belgilab olishga yordam beradi. Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda o'quvchilarning tarixiy faktlarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilaridan ajrata bilish; ularni guruhlariga bo'la olishni, tarixiy voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish munosabatlarni chuqur anglab tushunib olishi ko'zda tutiladi. Ana shu taqlidda shakllangan, mukammal tarixiy tushunchalar ilmiy bilimlar sistemasini vujudga kelishida bamisoli zanjir vazifasini o'taydi.

Tarixiy o'qitish jarayonida tarixiy tasavvurlar bilan tushunchalarni shakllantirish uzviy bog'langan bo'lib, bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tarixiy tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini rag'batlantirish va unga rahbarlik qilish muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi rahbarligida o'quvchilar hodisani fikran bir necha qismga bo'lib, uning muhim belgilarini ajratib olib, muhim bo'lmagan belgilardan ayiradilar hamda bir turdagi hodisalarning eng muhim belgilarini umumlashtiradilar. O'quvchilarda tarixiy tushunchalar hosil bo'lishiga olib keladigan bu mantiqiy faoliyat, ko'pincha tarixni o'qitish davomida tarixiy tasavvurlar hosil qilish uchun xizmat qiladigan yangi materialni idrok etish bilan qo'shib ketadi. O'qituvchi rasmni yoki darslikdagi suratlarni tahlil etib, ularning mazmunini analiz va sintez qilganda, o'quvchilarda o'rganiladigan hodisalarning muhim belgilarini aks ettiruvchi yorqin, aniq tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan ish olib borish bilan birga, hodisalarning o'sha belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish ham olib boradi. Lekin tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish o'quvchilar tomonidan hatto ilgariroq o'zlashtirib olingan material asosida olib borilayotgan taqdirda ham, bu ish o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarni aktallashtirib, hodisalar bilan birinchi bor tanishilgan paytda ularning payqalmay qolgan yoki ajratib olinmagan belgilarni ko'ra bilishga va ajratib olishga yordam beradi. Hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar qanchalik ko'proq va har tomonlama ochib berilib, ularning ma'nosi qanchalik chuqurroq tushunib etilgan sari, umuman, tarix bilimlari shunchalik yuqoriroq darajada sistemalashib, har bir hodisaning tarixiy jarayondagi o'rni va roli shunchalik teranroq aniqlab olinib boradi.

Tarix o'qitishda tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, avvalo u tushunchalarning mazmuni murakkabligiga bog'liq. Masalan, moddiy buyumlar (garpun, omoch, kema) to'g'risida tushunchalar hosil qilish uchun bir yoki bir necha soat dars kifoya qilsa, sotsiologik tushunchalar (ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, sinfiy kurash, ideologiya va boshqa) o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda barcha tarix kurslarini o'rganish davomida o'zlashtiriladi. O'quvchilardagi tushunchalarni chuqur va mustahkam bo'lishi, asosan, o'qituvchining o'quvchilar fikrlash faoliyatini qanchalik uyg'ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila bilishiga bog'liq. Tarixiy tushunchalar hosil qilishda o'quvchilarning voqea va hodisalarni analiz, sintez qila olish qobiliyatini o'z ichiga olgan fikrlash faoliyatini kuchaytirishda ta'limning faol metodlari – muammoli ta'lim, evristik suhbat metodlaridan foydalanish, o'quvchilarning ko'rsatmali qurollar, ta'limning texnika vositalari, tarixiy hujjatlar bilan ishlarini uyushtirish, ularga tarixni chuqur o'rganish bilan bog'liq bo'lgan turli amaliy xarakterdagi ishlarni topshirish alohida ahamiyatga ega.

Tarixni o'rganib, bilib olishning ancha yuqoriroq bosqichi tarixiy faktlar o'rtasidagi muhim bog'lanish va munosabatlarni bilib olish, ularni amalda tadbiq eta olishdan iboratdir.

a) Taqqoslash usuli. Ushbu usulda tushunchalarning mazmuni bir necha tushunchalar orqali aniqlanadi. Mazmunan qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalar taqqoslanadi. O'quvchilar ko'rgazmali namoyish orqali taqqoslash yordamida bir necha tushunchalarning o'zaro farqini aniqlaydi va shu bilan ularni bir-biridan ajratib oladi. Mazkur usulning eng asosiy xususiyati - ko'rgazmali namoyishdir. Bunda "T-sxema" texnikasidan foydalanish samarali ko'mak beradi.

b) Etimologik usul. Ushbu usul tushunchalarning kelib chiqishi va birlamchi mazmunini qidirishga qaratilgan. Tushunchalar apparati – bu uzoq rivojlanish yo'liga ega bo'lgan "jonli" tizimdir. U doimo yangilanib va o'zgarib turadi. Ko'p hollarda tushunchalarga berilgan zamonaviy ta'riflar unga berilgan boshlang'ich ta'riflardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun tushunchalar avval qanday mazmunga ega ekanligi va u taraqqiyot jarayonida qanday ma'no va mazmunga ega bo'lganligini aniqlash muhim o'rin egallaydi. Aynan bunga etimologik usul yordam beradi.

v) Erkin tanlash usuli. O'qituvchi o'quvchilarga tushunchalarga beriladigan faqat bitta ta'rif bilan chegaralanib qolmaydi. U o'quvchilarga tushunchalarga tegishli bo'lgan bir necha fikrlarni tavsiya qiladi, ularning ijobiy va salbiy tomonlariga alohida to'xtalib o'tadi.

Uning ijobiy tomoni shundaki, tushunchalar turli yondashuvlar va qarashlar orqali yoritiladi. O'qituvchi bitta tushunchaga berilgan ta'rif bilan chegaralanib qolmaydi. Barcha qarashlar va yondashuvlar bir xil nuqtai nazarda qaraladi. O'qituvchi o'quvchilarga ushbu tushunchalarga berilgan ta'riflardan o'zlariga ma'qul keladiganini erkin tanlash huquqini beradi.

Mavzu bo'yicha alohida tushunchalarga to'xtalib o'tilmasa, ular faqat umumiy tasavvurga ega bo'ladi, xolos.

g) Yagona nuqtai nazarga ega bo'lish usuli. Bu “erkin tanlash” usuliga qarama-qarshi usuldir. Bunda o'qituvchi faqat tushunchalarga beriladigan yagona ta'rif bilan chegaralanib qoladi. Bu erda yagona nuqtai nazar hukmronlik qiladi.

Bir tomondan ushbu usul yagona tushunchalar apparatining paydo bo'lishiga yordam bersa, boshqa tomondan esa turli qarashlar va yondashuvlarga to'siq bo'ladi, faqat bitta fikrning muqarrar bo'lishiga olib keladi.

Ko'rinadiki, yuqorida qayd etilgan ikkala usullar ham o'zaro bir-biriga qarama-qarshi bo'lganligi sababli, tushunchalarga ta'rif berish jarayoni nihoyasida barcha fikrlarni umumlashtirgan holda yagona ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

d) “Mazmunan bir-biriga qo'shib ketgan tushunchalar” usuli – eng muhimi, tushunchalarga qadar ularning shakli va kategoriyalarini shakllantirishdir. Mazmunan bir-biriga qo'shib ketgan tushunchalarning xususiyatlariga ko'ra noaniq tushunchalarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu tushunchalar ham u yoki bu holatda bir-biriga qo'shib ketgan bo'lishi kerak. Bu jarayon o'zaro mazmunan bir-biriga o'tishga ko'mak beradi. O'zining qo'llanishiga ko'ra mazmunan bir-biriga qo'shib ketgan tushunchalar erkinroq bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tushunchalar doimo o'zgarib turadi, davr o'tishi bilan mazmunan yangilanadi. Tushunchalarning qandaydir xususiyatlari o'zgarib, yangi xususiyatlari paydo bo'ladi. Shu usulga ko'ra eski tushunchalar olib tashlanib, yangisidan foydalanish mumkin.

Ushbu usulning salbiy tomoni shundaki, tushunchalar mazmun jihatidan bir-biriga qo'shib ketadi. Bir xil tushunchalarga turli mualliflar tomonidan turlicha yondashiladi.

Ko'rgazmali-tushuntirish usulida o'qituvchi tayyor materialni ko'rgazmali vositalar orqali taqdim etadi. O'quvchilar esa ularni o'z xotiralarida eslab qolish orqali saqlaydilar. Ammo bu usulda o'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida malaka va ko'nikmalar hosil bo'lmaydi.

O'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni hosil qilishda **reproduktiv metod** muhim o'rin egallaydi. Uning asosiy maqsadi o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalar asosida faoliyat vositalarini takrorlashdan iborat. Bu jarayonda o'qituvchi ta'lim texnologiyalarini yaratishi, o'quvchilar esa ta'lim texnologiyalarida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishi lozim.

Muammolarni mustaqil echish jarayoniga **evristik yoki qisman izlanuvchanlik metodi** keng yordam beradi. Bu jarayonda o'qituvchi muammolarni ajratib beradi. O'quvchilar esa ularning echimini topadilar.

Muammoli vaziyatlar usulining asosiy maqsadi o'qituvchi o'quvchilarga muammolar va muammolarning echimini ko'rsatishi lozim. Uning asosiy vazifasi muammolarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan. O'quvchilar bu jarayonda muammolarning mantiqiy echimini topadilar hamda bilish jarayonida ularning ilmiy tafakkuri shakllanadi.

Ta'lim jarayonida **tadqiqotchilik metodi** shu maqsadga xizmat qiladi.

Bu usul bilim olishda ijodiy yondashishni taqozo etadi. O'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyati shakllanadi, bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Keys stadi va o'quv loyihalar bunga misol bo'la oladi.

XX asrning 60-yillarida didaktik o'yinlardan ta'lim usuli sifatida keng miqyosda foydalana boshlandi. Ba'zi bir olimlar ularni ta'lim jarayonining amaliy usullari, ba'zilar esa ta'lim berish jarayonining asosiy guruhi deb hisoblashdi. Didaktik o'yinlarni ta'lim usulining asosiy qismi deb qaraydigan bo'lsak, birinchidan, ko'rgazmali, og'zaki va amaliy usullardan holi ravishda amalga oshiriladi, ikkinchidan esa, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan bo'lim, voqea va hodisalarga qaratilgan faol o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinlarning boshqa ta'lim faoliyatlaridan farqi shundaki, uning fani inson faoliyati hisoblanadi. Didaktik o'yinlarda o'yin xarakteriga ega bo'lgan va keyinchalik o'yinli darslarga aylangan o'quv faoliyati muhim o'rin egallaydi. Didaktik o'yin - har bir ishtirokchining yoki guruhning topshirilgan vazifani bajarishiga qaratilgan jamoaviy hamda maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidir. Ta'lim jarayonida tashkil qilingan o'yinlarni o'quv o'yinlari deyish mumkin. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: aniq maqsadga qaratilgan o'quv faoliyat; o'yin ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyati; o'yin qoidalari; har qanday sharoitda qarorlarni qabul qilish; qabul qilingan qarorlarning samaradorligi.

Didaktik o'yinlarning texnologiyasi-muammoli o'qitish usullarining muhim texnologiyasidir. O'yinli o'quv faoliyati alohida xususiyatga ega: bu jarayonda o'quvchilarning bilish faoliyati o'zaro harakatda amalga oshiriladi, ya'ni ma'lumotlar tashqaridan emas, balki o'quv faoliyatining ichki mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. O'yinlar orqali o'quvchilar yangi bilimlarni hamkorlikda o'zlashtiradi. O'quv o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimining puxta bo'lishiga zamin yaratadi. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga 2-6 o'quvchiga mo'ljallangan o'yinlar: muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, krossvord, "FSMU", "Bumerang", "Klaster" va "Aqliy hujum" kabi usullardan foydalanilgan holda kichik guruhlarda ishlash va boshqalarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga esa o'quvchilarning darsdagi ishtirokini talab etuvchi tanlovlar, ishchan rolli o'yinlar kiradi.

«Tarix» fanida loyihalashtirish usuli – tugallangan o'quv mavzusi, fani yoki o'quv bo'limini o'rganishga qaratilgan ishning tashkiliy shaklidir. Ushbu loyihada mavzuga tegishli bo'lgan biror bir muammoni echishda o'quvchilarning tadqiqotchilik va ijodiy faoliyati bilan birgalikda umumiy maqsadga qaratilgan kelishilgan usullari hamda faoliyat usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihalashtirish faoliyati usuli – dars jarayonining shakli, bunda o'quvchi belgilangan maqsadga erishish uchun ijodiy ko'rsatkichni qo'lga kiritishga hamda akademik bilimlar va pragmatik mahoratlar birlashishini, o'quv va ish jarayonini birgalikda rejalashtirishni, yakuniy taqdimotlarda o'z nuqtai nazarini himoya qilish imkoniga ega bo'ladi. Loyihani yaratishda bittadan uchtagacha o'quvchi qatnashishi mumkin.

M.F.Kolesnikovaning fikricha, loyihalashtirish faoliyati usuli quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi:

1. Ta'lim modelining konstruktiv usuli.
2. Hayotiy vaziyatlardan kelib chiqqan holda muammoni echishga urg'u berish.

Loyihalashtirish faoliyati usullarining maqsadlari:

1. Konstruktiv ta'lim konsepsiyasini hayotga tatbiq qilish.

2. Amaliyot bilan nazariyani yaqinlashtirish.
3. O'quvchilarning fan bo'yicha, usuliy va ijtimoiy bilimlarini tekshirish.
4. O'quvchi uchun loyihalashtirish faoliyati usulini amaliyotga tatbiq etishi uchun erkin ijodiy imkoniyatni yaratish.

Dars tuzilmasi quyidagilardan iboratdir: o'qituvchi tomonidan aniq maqsadni belgilash; mavzuni tanlash; o'quvchilar tomonidan ma'lumotlarni mustaqil yig'ish; baholash mezonini, ko'rsatkichlari va yakuniy natija shaklini aniqlash; guruh ichida koordinatorni tanlash; o'qituvchi bilan maslahatlashish; gipotezalarni shakllantirish va muhokama qilish; gipotezalarni isbotlash va muhokama qilish; mantiqiy yo'naltirilgan loyihalarni ishlab chiqish; umumiy yig'ilishda loyiha yakunini taqdim etish; loyiha qatnashchilarining bajargan ishlari haqidagi hisoboti. Har bir guruh a'zosi qoida bo'yicha bir xil baxolanadi.

Loyihalashtirish faoliyati usuli orqali o'quvchilarning bilimlari va ko'nikmalari rivojlanadi: bilimlarni mustaqil shakllantirishga yordam beradi, axborotlar olamidan unumli foydalana olishga imkon yaratadi, ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi. Bu muammoning har bir elementi amaliy natijalarni inobatga olgan holda didaktik maqsadga erishish usulidir. Loyihalashtirish faoliyati usuli doimo qandaydir muammoning echimini topishni taxmin qiladi. Muammoni echish, bir tomondan, turli ta'lim vositalari, usullarini o'zida mujassamlashtirgan holda foydalanishni, ikkinchi tomondan esa, bilim va ko'nikmalarning integratsiyalashuvi zaruriyatini, ya'ni bilimlarni fan, texnika, texnologiya va ijodiy jabhalaridan olishni taqozo etadi. Loyihalashtirish faoliyati usuli bilish jarayoni uchun muhim turtkidir.

Loyihalashtirish faoliyati usuliga tavsiyalar:

1. Shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda loyiha mavzusini erkin tanlashni amalga oshirish.
2. Ish jarayonini to'g'ri rejalashtirish va amalda tatbiq qilishni o'rgatish.
3. Tarix fanida tushunchalarni mustaqil tahlil qilishni o'rgatish.
4. Ma'lumotlarni olish, yig'ish va tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.
5. O'zining bilim va ko'nikmalaridan foydalanish.
6. O'z nuqtai nazarini mustahkamlash.

Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish pedagogik innovatsiyadagi katta tajribalarni doimo umumlashtirishni va tizimlashtirishni talab qiladi. Ushbu muammolarni hal etishning birdan bir yo'li ta'limda ham texnologik yondashuvdir. Aynan "Keys stadi" texnologiyalari ta'lim samaradorligiga erishishning muhim omili bo'lib, o'qitish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular amaliy holatlarni echish, amaliy vaziyatni tahlil qilishga mo'ljallangan hamda o'quvchilarni muammoni aniqlash va uni maqsadga muvofiq, to'g'ri variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi, tashkiliy hayotda vujudga keladigan muammolarni aks ettiruvchi yasama (sun'iy) vaziyatga asoslanadi.

Keys-stadi (ingl. case - yig'ma, aniq, amaliy holat, stadi - o'quv) o'quv usuli bo'lib, u tashkiliy shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyatdir. Keysning asosini muammoli vaziyat tashkil etadi. Unda tavsiflangan aniq muammoli vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi, muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash,

qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

Keysning o'quv fanidagi o'rni va muammo turini aniqlash hamda ta'limiy maqsadini shakllantirish "Keys stadi" texnologiyasining asosini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda keysni amalga oshirish jarayonida: o'quvchi mavzu yuzasidan ma'lum bilim va ko'nikmalarni bilishi kerak; o'quvchi mavzuni mustaqil o'rganishni; muammoning mohiyatini aniqlashtirishni; g'oyalarni ilgari surishni; ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni; o'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqarishni; o'quv ma'lumotlari bilan mustaqil ishlashni; ma'lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirishni amalga oshirishi kerak; o'quvchi kommunikativ ko'nikmalarga; taqdimot ko'nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko'nikmalariga; muammoli holatlar tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lmog'i kerak.

Muammoli vaziyatni amaliy jihatdan tahlil qilish va uning echimini topish jarayonida keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi: o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash; muammoning hamda qabul qilingan echimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish; mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash; o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

Keysning tarkibiy tuzilmasi tashkiliy va axborot ta'minotidan iborat bo'lib, tashkiliy ta'minotda, asosan, vaziyat tavsifi, muammo, masalalar, masalalarni hal etish yo'llari, masalalarni hal etish bo'yicha maslahat va tavsiyalar hamda vaziyatni tahlil qilish sxemasi tashkil etadi. Axborot ta'minotini esa asosiy va qo'shimcha axborot usuliy hujjatlar tashkil etadi. Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda bo'lishi (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi mumkin bo'lgan tahlilga aloqasi yo'q ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

"Keys stadi" texnologisini qator ijtimoiy gumanitar fanlar bilan bir qatorda Tarix fanida ham qo'llash yaxshi samara beradi. Aynan ushbu texnologiya o'quvchilarda "Tarix" faniga oid tarixiy, huquqiy va falsafiy tushunchalarni shakllantirishda ularni qurshab turgan ijtimoiy voqelikning murakkab jarayonlarida bevosita ishtirok etish ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Amaliy vaziyatni bosqichma bosqich tahlil qilish va hal etish bo'yicha o'quvchilarga ushbu usuliy ko'rsatma, albatta, keys bilan ishlash jarayonida muhim o'rin egallaydi.

- Tarix fanini o'qitish metodikasining zamonaviy rivojlanish bosqichi samarali ta'lim usullarining qo'llanishi hamda yaxlit bir tizim sifatida tushuncha va kategoriyalarni o'zida mujassamlashtirishi tushunchalar bilan tavsiflanadi. Tarixiy, falsafiy va huquqiy tushunchalar o'rtasida turli munosabatlar mavjud bo'lib, ular mantiq qonunlariga bo'ysunadi. Bilish va ta'lim olish jarayonida tushunchalar o'rtasida munosabatni shakllantirish ta'riflash, umumlashtirish, taqqoslash va tizimlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot jarayonida tushunchalar bilan ishlashning “hamkorlikda izlash”, “mustaqil ishlash”, “taqqoslash”, “sintez”, “etimologik”, “erkin tanlash”, “yagona nuqtai nazarga ega bo‘lish”, “mazmunan bir-biriga qo‘shilib ketgan tushunchalar” va “deduktiv” singari 9 ta usuli aniqlandi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ushbu usullar yakka holda kamdan-kam qo‘llanadi. Ular ko‘p hollarda bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda ishlatiladi.

Tarix fanida tushunchalar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar bilimini nazorat qilishda so‘rov, yozma ish, test va ilmiy ish (referat, fan ishi, taqriz va maqola)lar yozish katta ahamiyatga egadir.

Tarix fanida tushunchalar bilan ishlashda quyidagilar amalga oshiriladi:

1) o‘quvchilarni o‘quv fanining nazariy va amaliy muammolari bilan tanishtirish;

2) ushbu muammolarni echish yo‘llari bilan tanishtirish;

3) o‘quvchilarda loyihalashtirish, modellashtirish va dasturlar tuzish qobiliyatini shakllantirish.

Tarix fanida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan innovatsion usullar orqali ta’lim jarayonida o‘quvchilar quyidagi natijalarga erishadilar:

1. O‘qish faolligi.

2. Mustaqil va ijodiy fikrlash.

3. Tegishli bilimlarga ega bo‘lib, axborotlashgan jamiyatda axborotlar ichida o‘zini yo‘qotmaslik.

4. Tadqiqotlar, eksperimentlar va tahlillar qilish.

5. Sabab va oqibat o‘rtasida aloqalar o‘rnatish.

6. Har xil soxalarga oid bilimlarni egallab, muammolarni hal qilish.

7. Qarorlarni mustaqil qabul qilish.

8. O‘quv faoliyati natijalari bo‘yicha mas’uliyatni his qilish.

9. Guruh bo‘lib ishlash.

10. Kamchiliklarini aniqlab, o‘zlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish.

11. Vujudga kelgan qiyinchiliklar sababini qidirib, xatolarini topish.

12. Har xil nuqtai nazarni jamoa bo‘lib muhokama qilish.

Tarix fanidan ishchi daftarning asosiy vazifasi o‘quvchilarda tarixiy fikrlashni shakllantirishdir. Buni amalga oshirish manbashunoslik, tarixshunoslik, metodika va psixologiyaga oid tadqiqotlarga yondashishga bog‘liq.

Ishchi daftarlarning bir necha turlari mavjud.

Mashqlar uchun daftar, yoki maxsus mashqlardan iborat daftar. Bunday daftarda topshiriqlar bo‘lib, ular atamalar va tushunchalarga asoslanadi, xarita va testlar bilan ishlashga mo‘ljallanadi. Bunday turdagi ishchi daftardan darsdagi ma’lumotlarni mustahkamlashda yoki o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishda foydalanish mumkin. Bunday ishchi daftardan foydalanish ko‘p vaqt talab etmaydi va dars jarayonida foydalanish mumkin..

Grafik modellashtirish o‘zida rasm-belgili tamoyillarga asoslanadi.

Bu o‘quvchilarni barcha bilish jarayonlarining faollashuviga, ya’ni fikrlash, tasavvur qilish, xotira, diqqatning faollashishiga olib keladi.

Bu ishchi daftarlardan uyga vazifani tayyorlashda, dars jarayonida muammoli vaziyatni hal etishda foydalanish mumkin.

Daftar-xrestomatiya. U darslikni turli muammoga oid matnlar, manbalar, ilmiy-ommabop fragmentlar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldiradi. Bunday ishchi daftardan dars jarayonida (lekin bunga ko'p vaqt talab etiladi) uyga vazifalarni bajarishda foydalanish mumkin.

Belgi, rasmlar, modellar, sxemalar, intellektual topshiriqlardan iborat daftar. Bu ishchi daftar o'quvchilarning ijodkorligini shakllantiradi. Bu daftardan dars jarayonida va uyga vazifani tayyorlashda qo'llash mumkin.


Ishchi daftarni ishlab chiqishda o'qituvchi quyidagilarni inobatga olish lozim:

- shu fan yuzasidan ishchi daftardagi topshiriqlarni o'rganish va tanlab olish;
- dars jarayonining turli bosqichlari uchun topshiriqlar ishlab chiqish;
- topshiriqlarni ularning og'ir-qiyinligiga qarab taqsimlash;
- ishchi daftar uchun ma'lumotlarni ajratib olish va sistemalashtirish;

Ishchi daftar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- fanning barcha mavzularini yoki eng asosiy mavzularini yoritishi lozim;
- tushunarli va hammabop bo'lishi;
- farq qiladigan topshiriqlardan iborat bo'lishi kerak.

O'quvchining shu fan yuzasidan zarur kitobiga aylanishi uchun u o'zida nazariyaning qisqacha topshiriqlar va masalalar to'plamini jamlagan bo'lishi lozim.



II-BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O'QITISHNING XUSUSIY-METODIK TEXNOLOGIYASI

Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarini tadbqiq etish

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida ko'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto

xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimining moddiy bazasi kun sayin mustahkamlanib bormoqda. Ularda zamonaviy o'quv xonalari va laboratoriya jixozlari ishga tushirilmoqda, zamonaviy informatsion axborot vositalari bilan ta'minlanmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim standartlari, normativ o'quv rejalari, modernizatsiya qilingan dasturlar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Lekin ta'lim jarayoni ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari asosida qanchalik texnologiyalashtirilmasin, pirovard natijaga erishish, ya'ni puxta chuqur bilim berish, yuqori intellektual salohiyatga, raqobatbardoshlikka, yuqori sifat-samaradorlikka erishish bevosita mashg'ulotlar olib boruvchi o'qituvchining kasbiy malakasiga, mahoratiga, ijodkorligiga, ilg'or texnologiyalarni, innovatsiyalarni o'z pedagogik faoliyatiga olib kirish va qo'llay olish maxoratiga bog'lanib qolaveradi.

Ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi, fanning mohiyatini qay darajada mustaqil shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligiga, sub'yekt-sub'yekt shaklida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarga, ularning mustaqil fikrlay olishi va tafakkur faoliyatiga bog'liq.

XIX asr oxiriga kelib ilmiy texnik taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga, balki ta'limning barcha sohalariga ham kirib keldi.

"Texnologiya" tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug'atlar talqini bo'yicha (techne san'at, hunar, fan; logos – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to'plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi.

"Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogikada XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasini turlicha ifodalash mumkin.

Texnologiya – bu biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan uslublar to'plamidir (izohli lug'at).

Texnologik jarayon ma'lum ketma-ketlikda ta'limning didaktik vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiya esa – axborot texnologiyasi bilan bog'liq bo'lib, o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o'qish usullari bilan birgalikda, o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilar mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'ladi. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

XXI asrga kelib pedagogik texnologiyaga bo'lgan yondashuv biroz o'zgardi. Ta'limda texnika omili emas, balki inson omili birinchi o'ringa chiqdi.

Pedagogik texnologiya - berilgan yoki mavjud sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llarini ongli loyihalashtirishdir.

Pedagogik texnologiyalar yordamida dars o'tishda kichik guruhlarda ish olib boriladi.

Kichik guruhlarda ish olib borish. Kichik guruhlarda ishlashda o'quvchilar mashg'ulotlarda faol ishtirok etish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar, etakchi rollarni bajaradilar (bahsni olib boradilar yoki guruhning ishini namoyish qiladilar, guruh qarorini spiker sifatida barchaga etkazib beradilar), bir-birlari bilan tajriba almashadilar, turli fikrlarni qadrlashni o'rganadilar.

Barcha muhokamada qatnashishi va o'z fikrini bildirishi, bir-biriga yordam berishi uchun kichik guruhlarda ishlash usuli qo'llanadi. Guruhlar 5-7 kishidan iborat bo'lib, jamoa bo'lib ishlashni o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan guruhlar a'zolari tarkibi o'zgartirib turiladi. Vaqtdan maqsadli foydalanish uchun kichik guruhlarda ishlash qoidalariga va tartibiga rioya etish zarur.

Guruhlarda ishlash – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi topshiriq – guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

Guruhli treningda qo'llanadigan asosiy uslublardan biri - bu kichik guruhlarda ishni tashkil qilishdir. Ushbu uslubning psixologik jihatdan manzurligi, notanish masalalarni ko'rib chiqib qaror qabul qilishda har bir ishtirokchi, guruh ishining yaxshi natijasi uchun mas'uliyatni sezgan holda ishga kirishadilar.

Shu uslubning ustunligi nimada? Kichik guruhlarda ishlaganda kamgap ishtirokchilar o'zlarini yaxshiroq his qiladilar. Aynan shunday odamlar uchun bu guruhlarda ishlash, o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishda juda qo'l keladi va kelajakda boshqa muhokamalarda o'z fikrlarini bildirib, ular aktiv ishtirok etadilar. Shu uslub yordamida uyalchang va kamgap ishtirokchilar ko'pchilik fikriga qo'shilmasdan o'z fikrlarini o'rta tashlashga harakat qiladilar.

Guruhlarning eng qulay soni

Guruhlarda ishlash tajribasi quyidagi natijalarni berdi:

3 kishidan iborat guruh - eng kichik guruh bo'lib, g'oyalarni tanlash va rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralaydi;

4 kishidan iborat guruh - yetarli darajadagi muvaffaqiyatli guruh;

5 va 6 kishidan iborat guruh - eng yaxshi va samarali natijaga erishuvchi guruh;

7 kishidan iborat guruh - yetarli darajada muvaffaqiyatli, lekin kattaroq bo'lgan guruh;

8 va 9 kishidan tashkil topgan guruh - guruh kichik guruhlariga bo'lina boshlaydi, yoki qarama-qarshi fikrli guruhlar tashkil topadi. Bunday vaziyatda qoniqarli natijaga erishish mumkin, lekin bu narsa ko'p vaqt talab qiladi.

10 va undan ortiq kishidan tashkil topgan guruh - qoniqarsiz guruh. Bu sonli guruhlarda ishtirokchilar orasida ziddiyatlar hosil bo'lib, guruh ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qitishning loyihaviy texnologiyasi – loyhalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayoni, o'qituvchining yuqori malakaga egaligi ko'rsatkichidir. Shuning uchun ham bu texnologiya XXI asr texnologiyasi xisoblanadi. **Loyiha texnologiyasi** – o'qitishni tashkillashtirish texnologiyasi bo'lib, o'quvchilar

rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko‘rinishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo‘llash natijasida loyiha (proekt) ko‘rinishidagi bilim o‘zlashtiriladi.

Loyiha (projekt, design - dizayn) – tushunchasi kengroq ifodalanib, ba’zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo‘yicha hujjatlar yig‘indisi bo‘lib, ma’lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

O‘quv loyihasi - tarix fanlaridan o‘zlashtirilgan zarur bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar hamda kasbiy hamjamiyatlar doirasiga moslashish va samarali faoliyat yuritish uchun zarur universal-tayanch layoqat, madaniyatlar va tarmoqlararo bilim, o‘quv va qobiliyatlar zamonaviy ta’limning natijasi bo‘lishi lozimligi jahon xamjamiyati tomonidan tan olingan. Muvofiq tarzda bu vazifalarni hal etishni ta’minlovchi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Aynan, loyihaviy ta’lim texnologiyasi shular jumlasiga kiradi.

Demak, “o‘quv loyihasi” quyidagi o‘quvchilarning mustaqil tadqiqoti bo‘lib, u quyidagi natijaga olib keladi:

1. Muayyan iste’molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va echish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talablarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

2. Nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni echishga qaratilgan o‘quv faoliyati;

3. Ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy jihatlarni, hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

Loyihaviy ta’lim - ta’lim modeli bo‘lib, unda o‘qituvchi tomonidan loyihalash ko‘rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o‘quv faoliyati tashkil etiladi.

O‘quv loyihaviy faoliyat” - bu qo‘yilgan vazifaga erishish, ta’lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo‘ljallangan biror-bir yakuniy ma’lumot ko‘rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni echish uchun ta’lim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlari majmuasi

Demak, loyihaviy ta’lim quyidagi dolzarb ta’lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

- ta’limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta’minlaydi;

- nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va o‘quvchilarni faol mustaqil bilish;

- jarayoniga jalb etish imkonini beradi;

- kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydi.

O'quvchining o'quv-bilish faoliyatini amerikalik pedagog olim B.Blum tomonidan ishlab chiqilgan o'quv maqsadi taksonomiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

“Bilish” darajasi kognitiv sohaning eng quyi bosqichi bo'lib, u tushunchalar, dalillar va tamoyillarni eslash demakdir. Bu bosqichda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini xotirada saqlashi va eslashi, ularni nomlashi va aytib bera olishi kerak.

“Tushunish” bosqichida o'zlashtirilgan bilimlar mohiyati oydinlashtiriladi va anglab etiladi.

“Qo'llash” bosqichida o'zlashtirilgan nazariy bilimlar va turli shakllardagi amaliy qo'llashning nazariy jihatlarini o'zlashtiriladi (o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llashni biladi, lekin bu hali qo'llay oladi, degani emas).

“Tahlil” bosqichida o'quvchi o'zlashtirilgan bilimlarini tahlil qilish salohiyatiga ega bo'ladi.

“Sintez” bosqichida o'quvchi o'zlashtirilgan bilimlarni o'zaro bir-biriga bog'laydi va umumiy aloqadorliklarni aniqlay oladi.

“Baholash” darajasi eng yuqori bosqich hisoblanib, bu bosqichda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan tushuncha, dalil va tamoyillarga nisbatan o'z fikrini bildirish hamda ularni baholash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Bu jarayonning ketma-ketlikda amalga oshirilishi o'quvchining faqat bilimlarni o'zlashtirish emas, balki mavzu bo'yicha ularda ko'nikma va malakalarning shakllanishiga sharoit yaratadi.

Didaktik jarayonning so'nggi tarkibiy qismi – o'quv-bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Mashg'ulotda zaruriy axborotlar o'qituvchidan o'quvchilarga aloqa yordamida to'g'ridan-to'g'ri uzatiladi. Boshqarishning muhim jihati shundaki, o'quvchi tomonidan o'quv faoliyati bajarilsa, boshqarish algoritmini o'qituvchi ham, o'quvchi ham bajarishi mumkin.

Ushbu usul barqaror va mukammal tushunchalarni o'rganishda ko'proq, dinamik hodisalarni o'rganish jarayonida esa kamroq samara beradi.

O'quv fani yakunida, albatta, o'quvchilar bilimini nazorat qilish kerak. Nazorat shakli quyidagicha bo'lishi mumkin: so'rov o'tkazish; yozma ish o'tkazish; test olish; krossvordlar tuzish va echish; ilmiy maqolalarga taqrizlar yozish; referat yozish.

Yuqorida qayd etilgan usul va vositalar orqali: asosiy tushunchalar va qoidalar bizni qurshab turgan dunyo hodisalari tahlilini kengaytirish uchun imkon yaratadi; ko'tarilayotgan muammolarni “o'tmish va hozirgi zamon” ko'rinishida taqqoslab tahlil qilishga yordam beradi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar har bir shaxsning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishini ochib berishga imkon yaratadi; o'quvchilarga vizual materiallar orqali hissiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu tariqa, tushunchalar bilan ishlash jarayonida ushbu usullardan foydalanilsa, tarix fani yuzasidan o'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish ko'proq samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda “Shaxs va jamiyat” faniga oid tarixiy, huquqiy va falsafiy tushunchalarni shakllantirishning metodologik asoslari ijtimoiy voqelikning murakkab jarayonlarida bevosita ishtirok etish ko'nikmalarini hosil qilishga imkon beradi.

«Tushunchalar tahlili» uslubi

Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o'tilgan (chorak, semestr yoki o'quv yil tugagan) o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularini talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yodga olish, biron - bir mavzu bo'yicha o'qituvchi», tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izoxlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o'quvchi)larni baholay olishiga yo'naltirilgan.

Uslubning maqsadi. Talaba (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan karash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish.

Uslubning qo'llanishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talaba (yoki o'quvchi)larning-bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruch hamda jamoya shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarkatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

Izoh: *reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining ko'rgan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangai bo'lsa guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).*

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talaba (yoki o'quvchi)larni guruhlariga (sharoitga karab) ajratadi;
- talaba (yoki o'quvchi)lar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- talaba (yoki o'quvchi)lar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- talaba (yoki o'quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izoxni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;
- har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Izoh: «Tushunchalar tahlili» uslubini «Chaynvord», «Uzluksiz zanjir», «Klaster», «Blits-zanjir» shaklida ham tashkil etish mumkin.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning oʻzida dars boshlanishida oʻtgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu boʻyicha talaba (yoki oʻquvchi)larning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Quyidagi mashgʻulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz (ilova).

«Muammo» texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki oʻquvchi)larga oʻquv predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning echimini toʻgʻri topishlariga oʻrgatish. Ularda muammoning mohiyatini aniqlash boʻyicha malakalarni shakllantirish. Muammoni echishning baʼzi usullari bilan tanishtirish va muammoni echishda mos uslublarni toʻgʻri tanlashga oʻrgatish. Muammoni kelib chikish sabablarini va muammoni echishdagi xatti-harakatlarni toʻgʻri aniqlashga oʻrgatish.

Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi:

Oʻqituvchi talaba (yoki oʻquvchi)larni guruhlariga ajratib, ularni mos oʻrinlariga joylashtirgandan soʻng, mashgʻulotni oʻtkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, yaʼni u mashgʻulotni bosqichli boʻlishini va har bir bosqich talaba (yoki oʻquvchi)lardan maksimum diqqat-eʼtibor talab qilishini, mashgʻulot davomida ular yakka, guruh va jamoa boʻlib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat talaba (yoki oʻquvchi)larga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor boʻlishlariga yordam beradi va bajarishga kiziqish uygʻotadi. Mashgʻulotni oʻtkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach mashgʻulot boshlanadi:

- talaba (yoki oʻquvchi)lar tomonidan mashgʻulot uchun tayyorlangan kinolavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariga belgilab quyish (agar kinofilʼm koʻrsatishning imkoniyati boʻlmasa, u xolda oʻqituvchi oʻquv predmetining mavzusi boʻyicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi oʻquv materialidan foydalanishi mumkin).

- har bir guruh aʼzolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 qogʻoziga flomaster bilan yozib chiqadi;

- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ish guruh vakili tomonidan oʻqib eshittiriladi;

- oʻqituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qogʻozlarni almashtirgan xolda guruhlariga tarqatadi;

- tarqatilgan qogʻozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh aʼzosi oʻzini qiziktirgan muammodan birini tanlab oladi;

- oʻqituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh aʼzosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi. Masalan:

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo'llari va Sizning harakatlaringiz
Masalan: Toza ichimlik suvining kamligi	Masalan: Suvni toza saklashga e'tiborning kamligi	Masalan: Tabiat va suvni saklashga oid tadbirlar o'tkazish

• yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir talaba (yoki o'quvchi) bajargan tahliliy ishini barchaga o'qib eshittiradi;

• muammolar va ularning echimi bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;

• ximoyadan so'ng o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlariga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Bunday texnologiya bilan o'tkazilgan mashg'ulot natijasida talaba (yoki o'quvchi)lar qaysidir muammoni echishdan avval uning sababini aniqlash kerakligi, keyin esa ularga zarur bo'lgan uslub va usullarni tanlashi hamda o'z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar.

«Blits-so'rov» usuli

Usulning xarakteristikasi. Ushbu usul talaba (yoki o'quvchi)larni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali talaba (yoki o'quvchi)larga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.

Ushbu usul bir necha bosqichda o'tkaziladi:

• o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larga ushbu mashg'ulot bir necha bosqichda o'tkazilishi xaqida tushuncha beradi. Har bosqichga mo'ljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi hakida ularni ogoxlantiradi:

- o'qituvchi hamma talaba (yoki o'quvchi)larga alohida-alohida tarqatma material beradi va ulardan ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa (tarqatma materialida berilgan harakatlar ketma-ketligini to'g'ri belgilash, alohida ajratilgan bo'limga raqamlar bilan belgi qo'yish kerakligi)ni tushuntiradi;

- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta'kidlaydi;

- har bir talaba (yoki o'quvchi) o'zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi «**yakka baho**» bo'limiga berilgan harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi;

- talaba (yoki o'quvchi)larning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o'qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so'raydi. Kichik guruhlar talaba (yoki o'quvchi)larning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin;

- kichik guruhlardagi talaba (yoki o'quvchi)larning har biri o'z qog'ozidagi **«yakka baho»** bo'limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin ular 3 kishida uch xil bo'lgan ketma-ketlikni birgalashib (bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontrib) kelishgan holda, tarqatilgan qog'ozdagi **«guruh bahosi»** bo'limiga mukobil raqamlarni belgilab chiqadilar;

- barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, o'qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi, ya'ni talaba (yoki o'quvchi)lardan ularga tarqatilgan qog'ozlardagi **«to'g'ri javob»** bo'limiga u tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligi raqamlarini yozishni so'raydi;

- o'qituvchi **«to'g'ri javob»** bo'limida berilgan raqamlar bilan **«yakka baho»** hamda **«guruh bahosi»** bo'limidagi raqamlarni solishtirish va kattasidan-kichigini ayirish, ayirmalarni mos xolda **«yakka xato»** va **«guruh xatosi»** bo'limlariga yozishlarini so'raydi;

- o'qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi va ularni har birini alohida-alohida sharhlab beradi,;

- o'qituvchi mashg'ulotni yakunlab, ba'zi guruhlarining mashg'ulot mobaynidagi ish faoliyatlariga o'z fikrini bildiradi va talaba (yoki o'quvchi)larning bilimni ilovadagi mezonlar asosida baholaydi yoki mos kelgan to'g'ri javoblar soniga qarab har bir talaba (yoki o'quvchi) o'z bahosini ilovada ko'rsatilgandek aniqlaydi.

Izoh: misol tariqasida «Mustaqillik yillari» mavzusidagi blits — so'rovning jadvalini keltirish mumkin (har bir o'qituvchi o'z predmeti bo'yicha o'tayotgan yoki avval o'tgan mavzusi asosida ushbu jadvaldan foydalanib blits-so'rov to'zishi mumkin).

Blits-surov: «Mustaqillik yillari»

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Yillarning nomlanishi	Yillar
		12			Ijtimoiy	2007

					himoyalash yili	
		1			Amir Temur yili	1996
		11			Xomiylar va shifokorlar yili	2006
		2			Inson manfaatlari yili	1997
		10			Sihat-salomatlik yili	2005
		3			Oila yili	1998
		9			Mehr-muruvvat yili	2004
		4			Ayollar yili	1999
		8			Obod mahalla yili	2003
		5			Sog'lom avlod yili	2000
		7			Qariyalarni qadrlash yili	2002
		6			Ona va bola yili	2001
		13			YOshlar yili	2008
		14			Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili	2009

7-8 to'g'ri javob – qoniqarli.

9-10 to'g'ri javob – yaxshi.

11-12 to'g'ri javob — a'lo.

FSMU texnologiyasi

Texnologiya tavsifi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanishi mumkin. Chunki bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarni aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir talaba (yoki o'quvchi)ga **FSMU** texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarkatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

F - fikringizni bayon eting;

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;

M -ko'rsatgan sababingizni asoslovchi dalil keltiring;

U - fikringizni umumlashtiring.

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)lar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

- yakka tartibdagi ish tugagach, talaba (yoki o'quvchi)lar kichik guruhlariga ajratiladi va kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi kog'ozlarni tarqatadi;

- kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;

- o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida ximoya qilishlarini so'raydi;

- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

Vazifa. "Pedagogik texnologiya o'zini oqlaydi!" mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting:

(F) - fikringizni bayon eting;

(S) - fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating;

(M)- ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;

(U) - fikringizni umumlashtiring

AQLIY HUJUM

Aqliy xujum guruhlararo ishlarda ko'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy xujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida engillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.
3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

Metodni ishlatishga kirishmoq...

1-METOD - guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol ko'yiladi.

1. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va kandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.

2. Barcha, hatto, axmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

Z. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flipchart, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko'rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

2-METOD - barcha mavzu va savollar umumiy yo'nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalarga takdim etiladi.

1. O'qituvchi umumiy mavzu bo'yicha bir necha, balki 4-6ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta guruh kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy hujum o'tkazish uchun alohida savol beriladi.

Z. Har bir guruhcha aqliy hujum mahsulotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik, jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a'zolariga takdim etadi.

4. G'oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olinishi mumkin. Shunday sahifa - plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib ko'yiladi. Sahifa - plakat jarayonning oxirida har bir xoxlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko'rishi uchun osib qo'yiladi.

5. Aqliy hujumning bu metodi vaqtning qisqacha davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqilishi zarur bo'lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O'qituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga aqliy xujum amalga oshirilayotgan paytda o'tib turadi.

Muhim g'oyalar aqliy hujum paytida ishlab chiqilgan bo'lishi va munozaralarda muhokama etilgan bo'lishi kerak.

Ko'pincha muhim g'oyalarni belgilash va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olish chog'ida auditoriyaga yordam berish ehtiyoji tez-tez yuzaga kelib turadi. Ya'ni, nomigagina kichik korxona yaratish kabi.

Yakuniy xulosaga kelish, ayniksa, qiyin. Bu tabiiy, chunki har bir ishtirok etuvchiga «o'zimning g'oyam eng yaxshi» degan xususiyat xosdir. Umumiy pozitsiya, har qalay, tezda topiladi va bunda quyidagi metod yordamga kelishi mumkin.

Tanlash va xisobga olish tizimi uchun besh modda:

- metod qandaydir bir g'oyani hal etish paytida, ya'ni nomigagina kichik korxona tayyorlash holatlarida benuqson xisoblanadi;

- har bir kishiga turli yo'l bilan foydalanish mumkin bo'lgan 5 modda ajratiladi, bundan tashqari ular o'zlarining shaxsiy g'oyalariga ularni bog'lashlari

mumkin emas, ya'ni ular 5 moddaning barchasini ixtiyoriy bir taxminga berishi yoki boshqa taxminlarga 3 va 2 nisbatda taqsimlashi mumkin. Ular xatto shuni istasalar, har bir g'oyaga alohida modda ajratishlari mumkin. Ular 5 moddaning barchasidan foydalanishlari zarur;

- moddalar yig'iladi va ko'p son to'plagan aniq g'oya g'olib chiqadi;
- munozarali holatlarni ovoz berish yo'li bilan hal etish mumkin.

Har bir ishtirokchi tomonidan sahifaga ishlab chiqilgan va qayd etilgan muhim fikrlar yig'iladi, endi guruh sahifasi shaklida qaytadan ta'riflanadi:

- buning eng oson yo'li guruhchalarda ishtirok etuvchilarning barcha g'oyalari qayd etilgan uzun sahifa tayyorlashdir, g'oya takrorlanayotgan har bir holatda uning yoniga belgi qo'yish zarur;

- nazar tashlasangiz, dastlab barcha 10 g'oyadan eng yuqori to'plangan ballga ko'zingiz tushadi, shundan so'ng pasayish tartibida qolgan umumiy ballar o'rin oladi va boshqalar;

-agar Siz 10 g'oyadan iborat sahifani yakunlay olmasangiz, 5 moddadan iborat hisoblash tizimidan foydalanishingiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, sahifada qolgan g'oyalar asosida shunday demokratik yo'l bilan kutilgan natijalarga erishiladi.

Tarix fanidan ishchi daftar

Tarix fanidan ishchi daftar vazifasi –
o'quvchilarda tarixiy fikrlashni shakllantirishdir.
Uning bir necha turlari mavjud.

Mashqlar uchun daftar, yoki maxsus mashqlardan iborati. Bunday daftarda topshiriqlar bo'lib, ular atamalar va tushunchalarga asoslanadi, xarita va testlar bilan ishlashgamo'ljallanadi. Bunday turdagi ishchi daftardan darsdagi ma'lumotlarni

Grafik modellash, ya'ni o'zida rasm-belgili tamoyillarga asoslanadi. Bu o'quvchilarni barcha bilish jarayonlarining faollashuviga, fikrlash, tasavvur qilish, xotira, diqqatning faollashuviga olib keladi. Bu ishchi daftarlar uyga vazifani tayyorlashda, dars jarayonida esa muammoli vaziyatni hal etishda foydalanish mumkin.

Daftar-xrestomatiya, ya'ni darslikni turli muammoga oid matnlar, manbalar, ilmiy-ommabop fragmentlar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldiradi. Bunday ishchi daftarni dars jarayonida, lekin bunga ko'p vaqt talab etiladi. Uyga vazifalarni bajarishda foydalanish mumkin.

Belgi, rasm, model, sxema, intellektual topshiriqlar, ya'ni ishchi daftar o'quvchilarning ijod qilishini shakllantiradi. Bu daftardan dars jarayonida va uyga vazifani tayyorlash jarayonida qo'llash mumkin.

Ishchi daftarni ishlab chiqishda o'qituvchi quyidagilarni inobatga olishi lozim:

- shu fan yuzasidan ishchi daftardagi topshiriqlarni o'rganish va tanlab olish;
- dars jarayoning turli bosqichlari uchun topshiriqlar ishlab chiqish;
- topshiriqlarni ularning og'ir-qiyinligiga qarab taqsimlash;
- ishchi daftar uchun ma'lumotlarni ajratib olish va sistemalashtirish;

Ishchi daftar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- fanning barcha mavzularini yoki eng asosiy mavzularini yoritishi lozim;
- tushunarli va hammaqam bo‘lishi;
- farq qiladigan topshiriqlardan iborat bo‘lishi kerak.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirgan ta’limda quyidagi tavsiyalar muhim hisoblanadi:

1. Ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ijtimoiy, moddiy-texnik, pedagogik, psixologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash.
2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar, shuningdek, respublika ta’lim muassasalarida bolalar iqtidorini aniqlash va rivojlantirish borasida to‘plangan tajribalarni o‘rganish, milliy-mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda ularni uzluksiz ta’lim tizimiga tatbiq etish.
3. Ilg‘or yondashuvlar asosida iqtidorli bolalarni o‘qitishga ixtisoslashgan ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi boshqaruv va pedagogik jarayon mazmuni hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish.
4. Ta’lim muassasalari hamda oilalar o‘rtasida iqtidorli bolalarni samarali o‘qitish yo‘lida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish.
5. Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitishga ixtisoslashgan ta’lim muassasalarining faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiya va qo‘llanmalarni ishlab chiqishni faollashtirish.

2.2. Interfaol ta’lim asosida tarix darslarini loyihalash va rejalashtirish amaliyoti

Interfaol usullarni o‘quv jarayonida qo‘llash ta’lim tizimida keng tarqalib bormokda. Bu o‘z navbatida o‘quv jarayonini liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik, hamijodkorlikda tashkil etishni takozo etmokda. Bir so‘z bilan aytganda o‘quv jarayoni markazida o‘quvchi bo‘lmog‘i lozim va o‘quv jarayoni unga karatilgan, yunaltirilgan bo‘lishi talab etilmokda. SHaxsga karatilgan ta’lim o‘quvchining o‘quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, qiziqish, xohish, istaklarini ruyobga chiqaruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o‘z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bu holatning ijobiy kechishi ta’limda sifat va samaradorlikning kafolatidir.

Ta’lim jarayonini texnologik loyihalashtirish va rejalashtirishni faqatgina texnologik bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lgan pedagoggina qilishi mumkin. Texnologik bilimlarning asosi bu qonun-qoidalarni bilish xisoblanadi: texnologiyalashtirish qonuniyatlari va yo‘l-yo‘riqlari, qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun va rejalashtirilgan samarali natijani olish uchun optimal yo‘l va vositalarni tanlash.

Texnologik bilim tizimi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Tushunchalar apparati - texnologiyalashtirishning qiyin turkumlari va qoidalarini o‘rganish kaliti.
- Ta’lim texnologiyasining elementli va funksional tuzilishi tushunchalari xaqida – ta’lim jarayonini tashxislash va loyihalashtirish asoslari.

- O‘qitish texnologiyasining konseptual asoslari – xohlagan ta’lim texnologiyasi asosiga pedagogik va psixologik fan yutuqlarida shakllangan pedagogik fikrlar kiritiladi.
- Maqsadlashtirish – ta’lim jarayonini loyihalashtirish uchun avvalambor aniq pedagogik vazifalar belgilangan, o‘quv faoliyatining yakuniy natijalari shakllangan va talablari ma’lum bo‘lishi lozim.
- Ta’lim modeli – umumlashtirilgan optimal yo‘llari (usul va shakli) va ta’lim berish vositalari - quyidagi vaziyatda va ko‘rsatilgan vaqt davomida ob‘yektning dastlabki vaziyatini o‘zgartirish uchun rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati.
- Axborot aloqalari tizimi – tashxislashni, nazorat qilishni va baholashni bir-biriga bog‘lash asosida qaytar aloqani ta’minlaydi.
- Boshqaruv yo‘llari va vositalarini umumlashtirish: tashxislash, rejalashtirish, nazorat va baholash, shu bilan birga monitoring – tezkorlik bilan tuzatish kiritish haqida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta’lim jarayonini uzluksiz va reja asosida nazorat qilish
- Pedagogik va o‘quv faoliyati kabi ta’lim texnologiyasida ham baxolash ko‘rsatkichlari va me‘zonlarining samaraliligi va optimalliligi.
- Pedagogika fanida tushunchalar apparatining yangi yo‘nalishi bilan tanishasiz, ya’ni ta’limni texnologiyalashtirish, ta’lim texnologiyasi tizimi va uni loyixalashtirish algoritmi.
- Zamonaviy ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.
- 20 dan ortiq fan ta’lim usullarini va grafik organayzerlarni ishlab chiqish texnikasini o‘rganib olasiz.
- Xamkorlikdagi ta’limni tashkillashtirishning birlamchi ko‘nikmalarini o‘rganib olasiz.
- Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari texnologiyasini loyixalashtirishni va rejalashtirishni o‘rganib olasiz.

O‘QUV LOYIHA **“TOSHKENT – SHARQ YULDUZI”**

I. LOYIHA TOPSHIRIG‘I

Kirish. Jahon hamjamiyatida O‘zbekistonga qiziqish o‘sib bormoqda, bunga sayohatchilar sonining kundan-kunga oshib borishi dalil bo‘ladi. YUNESKO o‘zining tarkibiga kiruvchi davlatlarni O‘zbekistonni poytaxti - Toshkentning 2200 yilligini nishonlashda ishtirok etishga chaqirdi. O‘zining qadimiy tarixi va navqiron “Sharq yulduzi - Toshkent” bilan tanishishni hohlovchi ko‘p sonli mehmonlar kelishi kutilmoqda. Biroq barcha aholi poytaxt to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotga ega emaslar.

Loyiha doirasida o‘z echimini topuvchi, muammo: yashovchi aholi va mehmonlarni Toshkent to‘g‘risidagi qisqa ma’lumotlar bilan ta’minlash.

O‘quv loyiha mavzulari:

1. Toshkent - O'zbekiston poytaxti
2. Toshkentning tarixiy o'tmishi
3. Toshkent: kecha, bugun, ertaga
4. Toshkent metropoliteni
5. Toshkent xududidagi arxitektura yodgorliklari
6. Toshkent muzeylari
7. Toshkent teatrlari.

Loyiha maqsadi (u nima uchun yaratiladi): Toshkent to'g'risida ma'lumotni ishlab chiqish.

Yakuniy natija: Toshkent to'g'risida qisqa va tuzilmaviy axborotni o'z ichiga oluvchi, ma'lumotnoma.

Foydalanuvchilar: Toshkent aholisi va mehmonlar.

Loyiha doirasi:

bajarish muddati: 5 kun

- *ishtirokchilar soni:* beshtagacha

Loyiha tuzilishi va mazmuni

- Kirish – ma'lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi.
- Loyiha mavzusini yoritib beruvchi – axborot.
- Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari

1. Axborot manbalarini aniqlash, uni yig'ish.
2. Axborotni tanlash va tuzilmaga keltirish.
3. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.
4. Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida og'zaki axborot tayyorlash.
5. Hisobot tayyorlash.

II. LOYIHA TOPSHIRIG'INI BAJARISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

1. Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo'riqnoma *1 bosqich. Tayyorgarlik*

1.1. Loyiha faoliyati jarayonida echimini topish talab etiladigan, muammo, maqsad va loyiha natijalari, vazifalar hamda ishtirokchilarning loyiha faoliyati turlarini aniqlang.

1.2. Loyiha faoliyati jarayonida echimini topish talab etiladigan, muammoni, loyiha maqsadi va natijalarini, loyiha faoliyati ishtirokchilarining vazifalarini aniqlang.

1.3. Axborot manbalarini aniqlang.

2 bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish

2.1. Maqsadga erishish yo'lini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing:

- ishtirokchilar o'rtasida loyihani ishlab chiqish bo'yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo'yicha vazifalarni taqsimlang.
- bajarish vaqti va tayyor natija turini aniqlang.
-

Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasi (Lavha)

Ishtirokchilar F.I.SH	Vazifa	Ish mazmuni	Tayyor mahsulot turi	Bajarish muddati

3 bosqich. Amalga oshirish

3.1. Olingan axborotni yig'ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiylashtiring.

3.2. Natijalarni ma'lumotli materiallar ko'rinishida rasmiylashtiring (oxirgi mahsul).

3.3. Hisobotni tayyorlash yo'riqnomasi bo'yicha hisobotni tayyorlang.

3.4. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha tayyorlash yo'riqnomasidan foydalanib, taqdimotga tayyorlang.

3.5. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og'zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning qoidalariga rioya qiling, og'zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.

2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni, (5-6 so'z bilan) asoslang.

3. Loyiha maqsadingizni: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.

6. Vazifani echimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi, xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

9. Baholang:

- loyiha sifatini,

- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni engib o'tish yo'llari.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (hohishingizga ko'ra).

3. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. MS Power Point da taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarni mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;

- slaydlarni belgilashni tanlash;
 - zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
 - slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.
2. Slaydlarni **texnik namoyish etish** quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

➤ Slaydlar *miqdori* (8-12).

➤ *Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari*:

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, № o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;

- oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;

- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

➤ Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. **Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi**

➤ Agarda, matn og'zaki bo'lsa, quydagicha bo'lishi zarur:

- yuqori axborotli;

- bog'lovchili;

- aniq va qisqa;

- oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi)- bularni barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

- (asosan termin va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur.

Ommaga taqdim etishdan oldin matnni tekshirishga erinmang.

➤ Ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib bo'lmaydi- eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi.

➤ *Rasmlar* aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarni o'lchamini katta qilishga urinmang –faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.

➤ *Video- tasmalar* taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

➤ *Jadvallar* ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlar bilan jadvallar nomlanishi zarur.

Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumotlar kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi.

Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

➤ *Chizmalar* bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

4. Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan qoidalar

Og'zaki taqdimot qoidasi Taqdimotda nima bo'lishi zarur?
--

- Muammoni, loyiha maqsadi va vazifalarini tushunishni ko'rsatish; ishni rejalashtirish va amalga oshirishni uddalash;
- yechimini topish jarayonining tahlili; -topilgan yechim;; - muvaffaqiyatning o'zi tahlil qilishining natijalari va muammoni yechish natijaviyligi; SHuningdek: Reglamentga rioya qilish: guruhning umumiy taqdimoti – 7-10 daqiqadan kam bo'lmasligi va 15 daqiqadan ko'p bo'lmasligi. Guruh a'zolarining tartibli chiqishi va ular harakatida kelishuvchilik Barcha chizmalarga sharh berish
<i>Taqdimotda nima bo'lmasligi kerak?</i> Loyiha ishini batafsil yozilishi va loyiha mahsuli mazmunini qayta gapirib berilishi. Ishtirokchilar chiqishlarida qarshiliklar. Tushunarsiz, noaniq fikrlar.

Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari • gapirayotganingizda doimo ishonchli bo'ling; • tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib, ajratgan holda ifoda eting; • bir maromda va sekin gapirmang, baland ovozda ham gapirmang; • hushmuomala va ziyrak bo'ling, jahldor bo'lmang; • doimo kulib turgan holda boshlang va shunday tugating; • "mumkin bo'lsa", "Uni kim biladi" va shu kabi jumalarni qo'llamang; • tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir qatnashchiga 3 sekunddan); • oyoqni chalishtirmang, qo'lni orqada ushlamang, minbarga suyanmang, kuchli imo-ishora qilmang, ruchka, markerni o'ynatmang, elpig'ich, qog'oz bilan elpimang; • har bir javobga minnatdorchilik bildiring!

➤ og'zaki taqdimot (eng yuqori 2 ball).

Bajarilgan loyiha bo'yicha mahsulotni baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 3 ball.
2.	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan yetarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat.	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 5,0 ball: -yangi; - loyiha vazifasini to'liq aks ettiradi; -keng manbalarga asoslangan.
3.	Axborotni	Agarda axborot talab darajasiga muvofiq kelsa: sarlavha, matn tarkiblashtirilgan bo'lsa, 0,5 ball.

	rasmiylashtirilishi	Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo'lsa maks.0,5 ball: - ma'lumot mazmunini to'liq aks ettiradi; - standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan.
--	---------------------	--

Loyihani MS Power Point da bajarilgan taqdimotini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo'riqnomaga izchilligi bo'lsa, maks. 2,5 ball.
.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo'riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo'riqnomaga rioya etilgan bo'lsa, 1,0 ball
.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etish	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1,5 ball.

Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks.0,5ball.
.	Tanlangan mavzuni asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 0,5 ball.
.	Yechimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball.
.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarini bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.3 ball.
.	Loyiha vazifalarini belgilanishi	Loyiha vazifalari aniq belgilangan bo'lsa, 0,5 ball.
.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiq tuzilgan bo'lsa, 1,0 ball.
.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalarini keltirish.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo'lsa, maks. 1,0 ball.
.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 1,5ball.
.	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lsa, 0,2 ball.
.	Loyiha faoliyatini o'zi	Tanqidiy baho:

0.	baholashi	- mahsul sifati, - loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni engish berilgan bo'lsa, 1,0 ball
1.	Ilovalarning borligi	Ilovalarda loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallari bo'lsa, 1,0 ball.

Bajarilgan loyihaning og'zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarni tanishtirish bilan boshlanishi; So'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rioya etishlari (7 – 15 min.); Taqdimot vaqtida adabsizlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari. Maks. 0,2ball;
.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, maks. 1 ball. Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 0,8 ball.

Loyiha topshirig'iga ilova

Loyihada erishilgan yutuqlarni o'zini-o'zi baholash uchun Anketa

F.I. _____
O'quv guruhi _____

1. Loyihada erishilgan yutuqlaringizni quyidagi mezonlar asosida baholang:

2 ball - to'liq bilaman; 1 ball – qisman bilaman; 0 ball- bilmayman.

Bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat	Loyihani boshlanishi	Loyihani tugashi
<i>Loyihalashtirishni umumiy izchilligini bajarishi:</i>		
- g'oyani ilgari surish,		
-muammoni ajratish,		
- maqsadni aniqlash va uni yechish vazifalarini ifodalash;		
- vazifalarni yechish vositalarini asoslangan maqbul yo'llarini		

tanlashni amalga oshirish;		
- loyiha topshirig'ini ishlab chiqish;		
- hamkoriylashni rejalashtirish va loyihada majburiyatlarni taqsimlash;		
- natijalarni rasmiylashtirish; faoliyat natijalarini jamoatli (ma'ruza shaklida og'zaki va texnik vositalardan foydalangan ko'rgazmli) taqdimotini o'tkazish;		
- bajarilgan ish to'g'risida hisobot tayyorlash;		
- o'z-o'zini baholash va qilgan ishlarini tahlil qilishni amalga oshirish.		
<i>2. Hamkorlikka tayyorlik va qobiliyat:</i>		
- guruhda samarali o'zaro harakatni amalga oshirish;		
- murosallarni kuchsiz yo'l bilan boshqarish;		
-murosaga kelishish.		
<i>3. Og'zaki muomalaga tayyorlik va qobiliyat:</i>		
- ikki va undan ortiq kishi bilan og'zaki suhbatni olib borish;		
- tanqidiy muhokama olib borish: boshqalar fikrini eshitish va inobatga olish; o'z fikrini bildirish, isbotlash.		
<i>4. Zamonaviy texnik vositalarni bo'lishi:</i>		
kompyuter;		
faks;		
printer;		
modem;		
kseroks.		
<i>5. Axborot va muloqotning zamonaviy texnik vositalarini bilishi:</i>		
- elektron pochta,		
-Internet.		
<i>6. Izlash, qayta ishlash, qabul qilish, kiritish, yaratish, saqlash, etkazish va axborotni taqdim etishning dasturlashtirilgan vositalarini bilishi</i>		

7. Axborot bilan ishlash:		
- katalog bo'yicha axborotlarni topish,		
- axborotni Internetdan izlash;		
- axborotni tarkiblashtirish, asosiysini ajratish;		
- axborotni chizmalı shaklda berish.		
8. Tayyorlik va qobiliyatga ega bo'lish:		
- shaxsiy xulosalar qabul qilish va ular uchun majburiyatni olish;		
- turli ijtimoiy vazifalarni: sardorlik, ijro etuvchi va boshqalarni bajarishi;		
- tashabbusni o'z qo'liga olishi;		
- tartibga rioya qilishi;		
- o'z kuchiga ishonch.		

2. Loyihada o'z faoliyatingizni baholang va tahlil qiling:

1. Loyiha topshirig'ini muvaffaqiyatli bajarishga nima yordam berganini ko'rsating (keragini tagiga chizing, to'ldiring): bilim, ko'nikma, qobiliyat, boshqalar yordami, o'qituvchi maslahati, _____

2. O'z aybingiz bo'yicha nimani uddalay olmadingiz? _____ Bunga sabab (keragini tagiga chizing, to'ldiring): _____ tushunmaslik, _____ bilmaslik, _____ axborotni etishmasligi, _____

3. Ob'yektiv sabablarga ko'ra Siz nimani uddalay olmadingiz, bunga sabab va kelgusida bunday muvaffaqiyatsizlikni qanday oldini olish mumkin? _____

4. Agarda hammasi muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa, buning siri nimada? _____

Pedagogik texnikani qo'llash va ma'ruzada o'quvchilar ishtiroki elementlarini kiritish ham muhimdir. Ma'ruza jarayonida juft-juft bo'lib ishlashga doir qisqa muammoli topshiriqlarni o'quvchilar diqqatiga taqdim etish mumkin.

Juft-juft bo'lib ishlash topshiriqlari:

1-topshiriq

--

“Muammoli vaziyat” uslubi

Ushbu uslub muammo turi, kelib chiqish sabablarini aniqlash va vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini izlab topish imkonini beradi. Talabalarni muammo ustida ishlashga undaydi. Mantiqiy xulosalar chiqarishga yo‘naltiradi

Faol ta’lim usullarini qo‘llash

- Muammoli ma’ruza
- Anjuman-ma’ruza
- Konspektli ma’ruza
- Mualliflik ma’ruzas
- Munozarali ma’ruza
- Qaytar aloqadan foydalanilgan ma’ruza
- Aniq vaziyatlarni ko‘rib chiqish ma’ruzas
- Ma’ruza-suhbat

Maktab ma’ruzasida o‘qituvchi asosan suhbat usulidan foydalanadi.

“Qadimgi Misr madaniyati” mavzusi

Suhbat mavzusi

O‘quvchilarga qadimgi Misr piramidalarini qurishda foydalanilgan ilmiy bilimlar haqida gapirib berish.

O‘quvchilar bilan qadimgi Misrda shakllangan ilmiy bilimlar haqida ma’lumot almashish.

Suhbat mavzusi

O‘quvchilarga Amir Temurning bolaligi, yoshligi, tarjimai xoli haqida tarixiy manbalardan gapirib berish.

Ularda Vatanparvarlik, odob-ahloq, fahm-farosat, ziyraklik kabi xususiyatlarni shakllantirish.

berish

Chunki

birga o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallardir.

Ta’lim vositalarining quyidagi turlari mavjud:

1. Ta'limning texnik vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; o'quvchilarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

2. Yordamchi ta'lim vositalari– grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k.

3.O'quv - uslubiy materiallar - o'quv materiallari ya'ni, o'quv qo'llanmalari va xrestomatiyalar bo'lib, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi. Dono xalqimizda «ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi» degan naql bor. O'qituvchining faqatgina og'zaki bayon metodi yordamida dars tashkil etilsa o'quv materialini o'zlashtirish ko'rsatkichi 10% bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Bunday sharoitda dars o'tish samarasi past bo'ladi. Mashg'ulotlarda o'quv materialini ham ko'rgazmali shaklda taqdim etish, shu bilan birga o'quvchilarni amaliy ish jarayonini ham tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

KEYS TEXNOLOGIYASI

Keys-stadi inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi –ta'limdir.

Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslaniladi.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'limiy maqsadni amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keys ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llangan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshlandi.

O'quvchilar tomonidan keysni yechish texnologiyasi:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha *individual (auditoriyadan tashqari)* ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan *birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada)* ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish

O'quvchi mustaqil ravishda:

- keys materiallari bilan tanishadi;
 - taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
 - muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,
 - vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
 - berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;
 - ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
 - taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.
- Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib ishlash**

- O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, keys bilan birgalikda ishlashadi;
- guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
- yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;
- muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
- taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

muammoli vaziyat yechimining o'z variantini taqdim etadi;
tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;
boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va o'z takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa bo'lib keys ustida ishlash:

guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarini muhokamasi;
taklif etgan yechimlarning o'zaro baholanishi.

Taklif etilgan yechimlarning xayotiyligi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (o'quvchilar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

O'qituvchi harakatlarining izchilligi:

- o'qituvchi mashg'ulot mavzusi va maqsadini ma'lum qiladi;
- o'quvchilarning prognoz qilinadigan ta'limdagi yutuqlari ro'yxatini e'lon qiladi;
- o'quv mashg'ulotining tartibi va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;
- o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini e'lon qiladi;
- o'quvchilarda bo'lg'usi o'quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsadida keysning vazifasini va uning professional bilimlar va malakalarni rivojlantirishga ta'sirini tushuntirib beradi.

• o'quvchilarning o'quv mavzusi kursi bo'yicha bilimlarini dolzarblashtirish ishidan boshlanadi va bu ish blits-so'rovnoma yoki savol-javob shaklida o'tkaziladi.

O'quvchilarning auditoriyadagi keys bilan ishini tashkil etishga kirishishda o'qituvchi keys mavzusi bo'yicha adabiy manbalardan parchalarni o'qib berishi, korxona – amaliy vaziyat ob'yekti – mahsulotlarini namoyish qilishi mumkin – bu vaziyatga oid mashq muammosiga qiziqish uyg'otish yoki yangi g'oyalarni qo'shishning muayyan usulidir.

O'quv mashg'ulotining asosiy bosqichi

Keys bilan shundan keyingi ish quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- ish o'quv rejasiga ko'ra ajratilgan vaqtga ,
- keys o'lchami va uning maqsadlari ,
- tanlangan ta'lim modeliga ,
- o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan texnologik chizmasiga
- rejalashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan belgilanadi.

- Keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi.
- Keys bilan jamoa bo‘lib ishlashni tashkil qiladi: o‘quvchilarga aqliy hujum o‘tkazishni taklif qiladi – keysda taqdim etilgan muammoli vaziyatni hal etish g‘oyalari generatsiyasi

O‘quv mashg‘ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi

O‘qituvchi harakatlarining izchilligi:

- mavzu bo‘yicha xulosa chiqaradi, o‘quvchilar e’tiborini asosiy jihatga qaratadi;
- bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida so‘zlaydi;
- guruhlar, ayrim o‘quvchilar faoliyatini baholaydi o‘zaro baholashlarga yakun yasaydi;
- o‘quv mashg‘uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

7-sinf. “Amir Temur saltanatining ma’muriy va harbiy tuzilishi” mavzusi

KEYS:

Amir Temur davlatiga qarshi bo‘lgan harbiy-siyosiy ittifoqning mohiyati nimada edi?

(1 vaziyat)

Movarounnahr mo‘g‘ullar istibdodidan xalos etilib, mamlakatda Amir Temur hokimiyati o‘rnatildi (1370). Lekin uning chegaralari tinch emas edi. Bularni bartaraf qilmay turib, Temur o‘z davlatining xavfsizligini ta’minlay olmas edi.

Ayniqsa, Oq O‘rda bilan Oltin O‘rda Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tug‘dirar edi. Oq O‘rda xoni Urusxon o‘z qo‘shini bilan 1376 yili Sirdaryo bo‘yida paydo bo‘lib, Sabron, Sig‘noq shaharlarini bosib oldi. Ammo ular Amir Temurning harakatlari bilan quvib yuborildi.

To‘xtamish Oltin O‘rda taxtiga o‘tirgandan keyin, u Amir Temur yordami bilan taxtga kelgan bo‘lsada, mamlakatimizga jiddiy xavf tug‘dira boshladi.

Oltin O‘rda, Misr birgalikda Amir Temur davlatiga qarshi ittifoq tuzdilar, unga Turkiya (Yildirim Boyazid), Iroq (Sulton Ahmad Jaloyir) ham qo‘shildi. Lekin Amir Temur o‘z davlatiga qarshi bo‘lgan ushbu yirik ittifoqni harakatga kelishiga yo‘l qo‘ymadi. Amir Temur ushbu ittifoqchilarni birin-ketin safdan chiqara boshladi. 1395 yilda To‘xtamishga, 1402 yili Yildirim Boyazidga zarba beriladi.

2. Xitoy bilan munosabatlarning buzilishi

(2 Vaziyat)

Amir Temur davlatining Sharqning eng katta davlatlaridan Xitoy bilan munosabatlari haqida yozma manbalarning guvohlik berishicha, shu paytgacha Chig‘atoy davlati Xitoyga o‘lpon to‘lab turgan. Amir Temur yuborgan sovg‘alarni ham o‘lpon tariqasida qabul qilingan ekan.

Min imperatorlari (1368-1644 yillari Xitoyni idora qilgan) avvalgi mo‘g‘ullar bosib olgan hududlarni o‘zlariga tobe deb hisoblar edilar. Natijada Amir Temur ham Xitoy elchilariga o‘ziga yarasha munosabatda bo‘ldi va keyingi o‘lponni shaxsan o‘zi olib borajagini aytgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Esdaliklar”ida bunday ma’lumotni uchratamiz: 1404 yili Samarqandga Xitoy imperatorining elchilari ham kelgan edilar. Ular o‘lpon talab qilib kelgan ekanlar. Qabul vaqtida

Amir Temur ispan elchilaridan yuqorida o'tirgan xitoylik elchilarni shaxsan o'zi o'rinlarini almashtirishni buyurgan ekan.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to'ldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatning natijalari va oqibatlari

FSMU TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanishi mumkin. Chunki bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarni aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir talaba (yoki o'quvchi)ga **FSMU** texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarkatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu erda:

- F — fikringizni bayon eting;
- S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- M — ko'rsatgan sababingizni asoslovchi dalil keltiring;
- U — fikringizni umumlashtiring.

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)lar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

- yakka tartibdagi ish tugagach, talaba (yoki o'quvchi)lar kichik guruhlariga ajratiladi va kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi kog'ozlarni tarqatadi;

- kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;

- o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida ximoya qilishlarini so'raydi;

- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

FSMU jadvali. Tarqatma materialning taxminiy nusxalari

7-sinf. “Amir Temur davrida Markaziy Osiyodagi asriy davlatchilik an’analari tiklandi!”

F - fikringizni bayon eting
S - fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating
M - ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring
U - fikringizni umumlashtiring

“Amir Temur davrida O‘rta Osiyoda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot rivojlandi !”

F - fikringizni bayon eting
S - fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating
M - ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring
U - fikringizni umumlashtiring

“Amir Temur Movarounnahrda 2 renessansning asoschisi!”

F - fikringizni bayon eting
S - fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating
M - ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring
U - fikringizni umumlashtiring

«Tushunchalar tahlili» texnologiyasi.

6-SINF. “Qadimgi Misr madaniyati” mavzusi

Tushunchalar	Mazmuni
ierogliflar	Muqaddas yozuvlar yoki xudolar kalomi, qadimgi yunonlar ularni ierogliflar deyishgan, ya’ni toshga chekilgan muqaddas bitiklar
Jak Fransua Shampolon	1822 yilda Misr matnlarini o‘qib chiqqan fransuz tarixchisi
Rozett bitiktoshi	Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Qohira shahri yaqinidagi tosh bitik
tirsak	Misrdagi o‘lchov birligi bo‘lib, u tirsakdan barmoqlar uchigacha bo‘lgan uzunlikka teng
Podsho tirsagi	Misrda joriy etilgan yagona o‘lchov birligi bo‘lib, u 52,5 sm ga teng

7-sinf. “AMIR TEMUR SALTANATINING MA’MURIY VA HARBIY TUZILISHI” MAVZUSI

tushunchalar	mazmuni
Dodxoh	Shikoyatlarni ko‘ruvchi

Muhassil	Soliq undiruvchi
Sadri a'zam	Vaqf mulklari boshqaruvchisi
Suyurg'ol	Oliy hukmdor tomonidan in'om tariqasida berilgan er-mulk
Tavochi	Qo'shin to'plovchi
Yasovul	Hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi
tuman	o'n minglik
hazora	Minglik
qo 'shun	Yuzlik
ayl	o'nlik
manglay	avangard
izofa	Zahira
juvong'ar	so'l
qanbul	askariy qo'shilma
Arzbegi	oliy hukmdorning huzuriga arz-shikoyat bilan kelgan kishilarni qabul qilib, ularning shikoyatini podshoh (xon)ga etkazib turuvchi va ularga javob qiluvchi mansabdor.
Axtabegi	podsho (xon)larga tegishli otlarning tasarrufiga mas'ul bo'lgan mansabdor.
A'lam	fiqh (musulmon qonunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan bu mansabdor qozilarning faoliyatini nazorat qilgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat a'lamning tastig'idan o'tgandan keyin kuchga kirgan.
Bakovulboshi	podshoh (xon) oshxonasida xizmat qilib turgan va ovqat pishiruvchilar tepasida turgan mansabdor.
Bitikchi	devonlarning yozish-chizish ishlariga mutasaddi bo'lgan mansabdor.
Daftardor	Devoni mustavfiy (moliya vazirligi)da oliq-soliq to'lovchilar ro'yxati, soliqlar daftarini yurituvchi mansabdor.
Jalol ul-islom	oliy hukmdorning buyrug'i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini taftish qilib turuvchi oliy mansabdor.
Jarchi	podshohning farmonlari va buyruqlarini (masalan qo'shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarini) aholiga etkazib turuvchi mansabdor.
Zinbardor	podshoh (xon) otiga egar-jabduq urib, uni minishga tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqtida xonning zahiradagi otini o'zi bilan birga etaklab yurgan.
Kadxudo	qishloq oqsoqoli
Kutvol	qal'a hokimi. Zimmasiga uni doim mudofaaga tayyor holda tutish, u erdagi qo'shinga mutasaddilik qilish

	vazifasi yuklatilgan.
Majlisnavis	oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig'ilishlarida bo'lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib.
Miroxur	Podshoh (xon) otxonalariga qarab turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpo va otxonalarga mutasaddi bo'lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig'i bilan urush paytida qo'shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan.
Muftiy	musulmon qonunshunoslarining boshlig'i. Shariat qoidalari asosida chiqarilgan hukm (fatvo) faqat uning tasdig'idan keyin kuchga kirgan.
Muxtasib	musulmonlar tarafidan islom va shariat ahkomlari qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi diniy mansabdor. Bu lavozim XVIII - XIX asrlarda Buxoroda rais deb atalgan.
Muxosil	bo'ysundirilgan shahar xalqidan o'lpon undiruvchi mansabdor.
Chuhra og'asi	oliy hukmdorning shaxsiy qo'riqchilari (chuhralari) boshlig'i.
Yurtchi	harbiy yurishlar paytida oldindan borib podshohning chodirini tikishga rahbarlik qiluvchi mansabdor.

2.2. Interfaol ta'lim asosida tarix darslarini loyihalash va rejalashtirish amaliyoti

Interfaol (Interactive) dialogli – ta'lim berish usuli bo'lib, ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi usuldir. U yoki boshqa muammoni yechish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi dialog asosida quriladi. Ya'ni, interfaol ta'lim berish dialogli ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi va unga quyidagilar kiradi:

- **Aqliy hujum** – (breynstroming-aqllar to'zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.

Klaster (tarmoqlar) - o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil fikrini bildirishga qaratilgan.

- **Pinbord** (inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

- **Blits-so'rov** – o'yinli so'rov ma'ruza jarayonida o'quvchilarni eslab qolgan narsalarini yana bir marta aytilganlarni qaytarib aytishi.


- **Toifali jadval** – ta'lim vositasi (grafik organayzer).

- **Guruhlarda ishlash** – ta'lim shakli.

«Aqliy xujum» usulining asosiy qoidalari

- Olg'a surilgan fikr va g'oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi.
- Taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir hilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda bo'lmang!
- Maqsad – fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.
- qanchalik ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi va bebaho fikr va g'oyaning paydo bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi.
- Agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron b'lmang.
- hayollar «to'zg'ishiga» ijozat bering.
- Bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamidagina hal bo'lishi mumkin, deb o'ylamang.
- Fikrlar «xujumi»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iy rioya qilinishi shart.
- Berilgan savolga qisqacha (1-2 so'zdan iborat) javob beriladi.

**7-SINF. KLASTER INTERFAOL USULI. AMIR TEMURNING VATANIMIZ
TARIXIDAGI O'RNI QANDAY?**



Pinbord interfaol usuli - (inglizchadan: pin- mahkamlash, board – yozuv taxtasi, doska) munozara usullari, o'quv suhbatini yoki muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish (tasnif qilish) va guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy xujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi)

- Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta soʻzdan koʻp boʻlmagan) sifatida alohida qogʻozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar

- Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

1) yaqqol xato boʻlgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;

2) bahsli boʻlgan fikrlarni oydinlashtiradilar;

3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin boʻlgan belgilarini aniqlaydilar;

4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qogʻoz va raqlaridagi) guruhlariga ajratadilar;

5) ularning oʻzaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida koʻrsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

«PINBORD» texnikasi boʻyicha oʻquv topshiriq

Yangi mavzuni eʼlon qilgandan soʻng, oʻqituvchi mavzuning rejasiga izoh beradi. Tarix oʻquv fanidagi 6-sinfning 17-§. “Tarixiy manbalar” mavzusi boʻyicha “Fikrlar hujumi” usuli orqali “Tarixiy manbalarga oid qanday tushunchalarni bilasiz?” -deb savol bilan murojaat qiladi. Ularga bu borada maʼlum tushunchalarni aytishni taklif qiladi. Barcha aytilganlarni doskaga yozadi:

Oʻqituvchi, oʻz navbatida, oʻquvchilardan manbalarni kategoriyalarga ajratish hamda quyidagi jadvalni toʻldirishni talab etadi.

TARIXIY MANBALAR

MODDIY MANBALAR	MAʼNAVIY MANBALAR

«BLITS - SOʻROV» USULI

Blits-soʻrov – oʻyinli soʻrov maʼruza jarayonida oʻquvchilarni eslab qolgan narsalarini yana bir marta aytilganlarni qaytarib aytishi boʻlib, biror jarayonning ketma-ketligini toʻgʻri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh aʼzolari va boshqa guruhlarining azolarini fikrlari bilan tanishishga imkon beradi. Harakatlar ketma-ketligi avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, soʻngra oʻz fikrini boshqalarga oʻtkaza olish yoki oʻz fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishishiga yordam beradi.

Oʻqituvchi agar oʻquvchilar bilmasa oʻzi tushuncha beradi, ularni sharhlab beradi.

«Blits-soʻrov» savollari

	Savollar	Javoblar

.		
.		
.		

6-SINF. Uy vazifasini nazorat uchun o‘quv topshiriq. Blitz-o‘yin texnologiyasi. To‘g‘ri javobni aniqlash, xronologik jadval bilan ishlash

Yil,sana	Sodir bo‘lgan voqea
Er. av. 525 yilda	Yirik piramidalar qurilgan
Er. av. 1500 yillarda	Misrda ikki podsholik birlashgan va Menes g‘alaba qilib, birinchi fir‘avn bo‘lgan
20 yil davomida	Kir IIning o‘g‘li Qambiz Misrni bosib oldi
Er.av. 2600-yillar	Xufu (Xeops-yunoncha) piramidasi qurilgan
Er.av. 3000-yilda	Nil daryosi qirg‘oqlari o‘zlashtirilgan
Er.av. 4000-yilning oxirlarida	Fir‘avn Tutmos II bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdi

Nazorat uchun to‘g‘ri javoblar

Yil,sana	Sodir bo‘lgan voqea
Er. Av.525 yilda	Kir IIning o‘g‘li Qambiz Misrni bosib oldi
Er. Av. 1500 yillarda	Fir‘avn Tutmos II bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdi
20 yil davomida	Yirik piramidalar qurilgan
Er.av. 2600- yillar	Xufu (Xeops-yunoncha) piramidasi qurilgan
Er.av. 3000-yilda	Misrda ikki podsholik birlashgan va Menes g‘alaba qilib, birinchi fir‘avn bo‘lgan
Er.av. 4000-yilning oxirlarida	Nil daryosi qirg‘oqlari o‘zlashtirilgan

Toifalash jadvali - Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

-Toifali sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Aqliy hujum yoki klaster tuzish, yangi o‘quv material bilan tanishishdan so‘ng, kichik guruhlarda, olingan ma’lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar.

- Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar. G‘oyalarni ma’lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo‘lishi mumkin. Ish natijalari taqdimoti.

TOIFALI JADVAL QOIDASI

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin.

Toifali jadval

6-sinf. “Qadimgi tarix sivilizatsiyasining ibtidosi.

O‘zbekiston va jahon sivilizatsiyasi. Tarixni davrlashtirish va xronologiya” **mavzusi**

Davrlar	Sanasi	Asosiy mashg‘uloti	Kashfiyotlari	Manzilgohlari
Paleolit Ilk O‘rta So‘nggi (yuqori)				
Mezolit				
Neolit				
Eneolit				
Bronza				
Temir				

6-sinf

Turon - Movarounnahr - Turkiston:			
Tabiiy-geografik mezon	Antropologik holati	Iqtisodiyoti	Ijtimoiy-madaniy maqomi

6-SINF TARIX (QADIMGI DUNYO) DARSLIGI UCHUN ISHCHI DAFTARdan lavhalar

1-§.Qadimgi tarix sivilizatsiyasining boshlanishi

Qadimgi tarixni o'rganish.

Atamalar bilan ishlash:

Arxeologiya –
Antropologiya –
Etnografiya –
Lingvistika –
Numizmatika –
Epigrafika –
Sivilizatsiya –

Qadimgi tarix bo'yicha manbalar.

O'zingizni sinang?

Avesto – bu . . .
Behistun qoyalari yozuvlari – bu . . .
Geradod – bu . . .
Ksenofont – bu . . .
Ktesiy – bu . . .
Sim Szyang – bu . .
Kvint Kursiy Ruf – bu . . .
Arrian – bu . . .
Pompey Trog – bu . . .

Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish.

Jadvaldagi atamalar ma'nosini toping.

Turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi	?
Birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollariga ega bo'lgan qarindoshlar jamoasi	?
Urug' va oila boshlig'i ayol bo'lgan davr	?
Urug' va oila boshlig'i ota (erkak) bo'lgan davr	?
Qadimgi tosh asri	?
O'rta tosh asri	?
Yangi tosh asri	?
Mis-tosh asri	?

2-§.Eng qadimgi odam rivojining ilk bosqichlari

Eng qadimgi odamlar.

Atamlar bilan ishlash.

Avstralopitek	?
Zinjanthrop	?
Pitekanthrop	?
Sinantrop	?
Neandertal	?
Kromanyon	?

Qadimgi odamlarning mashg'ulotlari.

Savollarga javob bering.

1. Qadimgi odamlarning mehnat qurollari asosan nimadan yasalgan?
2. Mayda uchi bir tomonga qarab o'tkirlangan mehnat qurollari nima deb atalgan?
3. Eng qadimgi kishilarning qadimiy mashg'ulotlari qanday bo'lgan?
4. O'zlashtiruvchi xo'jalik nima?
5. Teshiktosh g'ori haqida nimalarni bilasiz?

Diniy etiqodlarning vujudga kelishi.

Test topshirig'i.

1. Qadimgi odamlar qanday kuchlarga sig'ingan?

- a) mehnat qurollari
- b) tabiat kuchlariga
- d) hayvonlarga
- e) haykallarga

2. Insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish nima deb ataladi?

- a) antropologiya
- b) fetishizm
- c) urug' jamoasi
- d) animizm

3. Eng qadimgi odamlarning u yoki bu buyumlarga e'toqod qilishi nima deb ataladi?

- a) animizm
- b) hudoga ishonish
- c) fetishizm
- d) sehrgarlik

3-§. Urug'chilik jamiyati

So'nggi Paleolit va Mezolit davri.

Jadvalda berilgan so'nggi paleolit va mezolit davri tarixi jarayonlarini to'ldiring, farqlarni aniqlang?

So'nggi paleolit	Mezolit
?	?

Dehqonchilikdan chovachilikning vujudga kelishi.

Tushunchalanit to'ldiring va tushuntiring.

-ishlabchiqaruvchi xo'jalikka

-miloddan avvalgi VI- IV ming yilliklar....

-mikrolitlar.....

-o'troq turmush tarzi....


-hunarmandchilik....

-miloddan avvalgi VI-V ming yilliklar boshlarida

4-§. Eneolit va bronza asri ziroatchilari

Metall davrining asosiy hususiyatlari.

Eneolit asrining asosiy hususiyatlarini ayting.



Bronza davri dehqonlarining manzilgohlari

Jadvalni to'ldiring.

Manzilg oh	Arheologik topilmalar	Aholi mashg'uloti	Manzilg oh joylashgan joy	Hunarmandlarning yutuqlari
Sopollitepa				
Jarqo'ton				

8-§. Misr va qo'shni xalqlar

Qadimgi Misrliklarning qo'shinlari.

Ko'rsatmaga javob bering.

	qo'shni	nima keltirilgan
Janubda	→ ?	_____ ?
G'arbida	→ ?	_____ ?
Shimolroqda	→ ?	_____ ?

Fir'avnlarning istilolari va natijalari.

Jadvalni to'ldiring.

Fir'avn nomi	Yurish joylari	Yurish natijasi
?	?	?

9-§. Qadimgi Misr dini

Misrliklarning xudolari.

Jadvalda berilgan ta'riflarga asoslanib Misrliklar xudolari nomlarini yozing.

Qadimgi Misr podsholigining poytaxti Menfis xudosi	?
Ptax degan xudoning yer yuzidagi qiyofasi	?
Quyosh xudosi	?
Nil xudosi	?
Er osti saltanati xudosi	?
Omadsizlik, sahro va bo'ron xudosi	?
Musiqa, go'zallik va sevgi ilohasi	?
Adolat va adliya ilohasi	?
Marxumlar va mumiyolar xudosi, mayyitlar posboni	?
Oy, donishmandlik va tabiblik ilohi	?


Koxinlar va ibodatxonalar

Savollarga javob bering.

1. Misrda xudolar va odamlar o'rtasida kimlar vositachi bo'lgan?
2. Koxinlar qanday ishlarni bajargan ?
3. Misrliklar uchin xudolar va iloxlarning yer yuzidagi koshonosi nima ?
4. Ibodatxonadagi kotiblar nima vazifani bajarishgan?

13-§. Mesopotamiya sivilizatsiyalari

Krassvordni toping



Savollar:

Eniga: 1. Mesopotamiya axli qaysi daraxtni hayot daraxti deb atashgan? 2. Miloddan avvalgi IV ming yillikda qanday manzilgox vujudga kela boshladi? Misr oy xudosi. 4. Sardorlarning mumtazam xukmronlik qilishi natijasida ularni nima deb atashgan? 5. Gilgamish qaysi shahar podshosi bo'lgan? 6. Mesopotamiya og'irlik o'lchovi. 7. Mesopotamiya urish va g'alaba iloxi. 8. Mesopotamiya suv xudosi. 9. Mesopotamiya quyosh xudosi. 10. Shumerlar eng qadimiy yozuv nimani ixtiro qilishgan? 11. Nima bo'lmagani uchun uylarni tuproq va toshdan qurishgan? 12. Savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida qaysi podsho barcha shaxarlar uchun yagona bo'lgan, uzunlik, maydon va og'irlik o'lchovini joriy etdi.

14-§. Bobil podsholigi

To'rtinchisi ortiqcha o'yini.

Berilgan so'z va iboralar orasidan ma'no jixatdan ortiqchasini toping va qolganlariga ta'rif bering.

Bobil-“xudolar darvozasi”

1. Miloddan avvalgi III ming yillik, Bobil, Xammurapi, taqvim.

Xammurapi qonunlari

1. Qonunlar, xudolar darvozasi, hamma uchun teng, qat'iylik va ayovsizligi.


Yangi Bobil podsholigi.

1. Navuxodonosor II, Yangi Bobil podsholigi, Xommurapi, Makidoniyalik Aleksandr.

Bobil madaniyati.

1. Shumer mixxati, qattiq jazolar, miflar, bilimlar ravnaqi.

23-24§. Zardushtiylik



QADIMGI YUNONISTON

25-§ Antik tarixning boshlanishi

Hudud va mashg'ulotlar.

Savollarga javob bering.

1. Qadimgi Yunonistonda joylashish o'rni.
2. Tabiiy sharoiti qanday bo'lgan?
3. Axolining mashg'uloti nimadan iborat?
4. Yunonistonning hayvonot olami.

Eng qadimgi shaxar davlatlar

26-27-§. Qadimgi Yunoniston ravnaqi

Yunon shaharlari.

Shahar davlatlar- bu

Afina, Sparta – bu

Polis – bu

Gaplitlar – bu

Falanga – bu

Afina va Sparta davlati.

Jadvalni to'ldiring.

	Aholisi tarkibi	Joylashgan o' rni	mashg' uloti	ta' lim
Afina	?	?	?	?
Sparta				

28-§. Afinada demokratiya

Quyida jadvalda yunon hukmdorlari berilgan, darslikdagi matndan foydalanib hukmdorlar qilgan islohotlarni yozing.

Drakon	Salon	Perikl
?	?	?


29-§. Yunon Fors urushlari

Jadvallni to'ldiring.

ang nomi	J Jang boshlanishi	natijasi	Oqibati
Marafon jangi	?	?	?
Fermopil jangi			
Salomin jangi			

31-32-§. Qadimgi Yunoniston madaniyati

Krossvordni yeching.



Savollar eniga:

1. Gomer yozgan dostonlardan biri.
2. Aristofan yozgan komediyalardan biri
3. Disk uloqtiruvchi haykal muallifi
4. Fidiy Afinada nima barpo etgan
5. Yunon komediya yozuvchisi
6. “Evripid” tragediyasini kim yozgan.
7. Esxil yozgan tragediyalardan biri
8. “Tomoshalar uchun joy” “tomoshaxona” degan ma’nolarni ifodalovchi so’z.
9. Miloddan avvalgi 776 yilda qanday sport o’yinlari o’tkazila boshlandi.
10. XIV asrning oxirida Gomerning dostonlarini qaysi olim tadqiq qiladi.

33-34-§. Olimlar va mutafakkirlar

Jadvalni to’ldiring.

Yunon olim, mutafakkirlari	Yozgan asarlari va ixtirolari	Asar nima haqida
Geraklit	?	?
?		

?		
?		
?		

35-36-§. Qadimgi Yunoniston asotirlari

Qadimgi yunonlarning xudolari.

Jadvalda xudolar berilgan ularning qaysi xudo ekanligini yozing.

Zeus	
Poseydon	
Afina	
Appolon	
Gelios	
Geya	
Demetra	
Femida	
Gefest	
Afrotida	
Ares	
Dionis	
Germes	
Nika	
Xronos	
Artemida	
Eros	
Gipnos	
Gratsiya	
Eos	
Aid	

Miloddan avvalgi VI-milodiy IV asrlarda

O'RTA OSIYO

37-38-§. O'rta Osiyoga Ahmoniylarning bosqinchilik yurishlari

Mavzuga asoslanib berilgan sanalarga izoh bering.

- miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida
- miloddan avvalgi 545 va 540 yillar
- miloddan avvalgi 530 yillar
- miloddan avvalgi 522 yil
- miloddan avvalgi 522-486 yillar
- miloddan avvalgi 521 yil
- miloddan avvalgi 519 yil
- miloddan avvalgi 486-465 yillar
- miloddan avvalgi IV asr
- miloddan avvalgi VI-IV asrlar

Savollarga javob bering.

1. Forslarga qarshi kurashgan massagetlar malikasi kim edi?
2. Marg'iyonada forslarga qarshi yirik qo'zg'olonga kim boshchilik qiladi?.
3. Satrab so'zining ma'nosi nima?
4. Amudaryoning quyi oqimida qaysi hunardmandchilik markazlari bo'lgan?
5. Yunon dramaturgi Exsil o'zining qaysi asarida baqtriyalik jangchilar haqida yozadi?

43-§. Qadimgi Xorazm, Qang'ha va Davon davlati

Ko'rsatmani to'ldiring (Qadimgi Xorazm, Qang'ha va Davon davlatlarining ijtimoiy taraqqiyoti, shaharlari, aholi mashg'ulotlariga oid ma'lumotlarni yozing.)

Qadimgi Xorazm (miloddan avvalgi IV asrdan to milodiy IV asrgacha)	
Qang'ha davlati (miloddan avvalgi III asrdan to milodiy III asrgacha)	
Давон давлати (миллоддан аввалги III асрдан то милодий II асргача)	


44-45-§. Kushon podsholigi
Jadvalni to'ldiring.

Kushon davlatining tashkil topishi		Iqtisodiy taraqqiyot	Madaniyat	
Tashkil topdi				Yozuv
Kudzila kadfiz				Diniy e'tiqod
Kanishka				Me'morchilik va san'at
Vima Kadfiz				

48-§. Rim Respublikasi

Atamalar bilan ishlash.

Senat – bu ...
Respublika – bu ...
Patritsitlar – bu ...
Plebeylar – bu ...
Konsullar – bu ...
Diktator – bu ...
Liktor – bu ...
Xalq tribuni – bu ...
Veto – bu ...




49-§. Rim Respublikasining hayoti

Savollarga javob bering, nuqtalar o'rniga yozing.

1. Shisha yoki tosh parchalaridan ishlangan sur'atlar
2. Shoxona koshona – uy joylar
3. Selgimagan suvoqqa ishlangan rasmlar
4. Har bir shahar markazidagi bozor maydoni
5. Suv shaharga bir necha qavatli ko'priikka o'xshab ketuvchi nima orqali oqib keladi?
6. Rim bozorlarida eng bozori chaqqon tovar nima?
7. Odamlarning kiyib yurgan kiyimlari ularga nima bergan?

Qadimgi Rimliklar xudolari



50-§. O'rta yer dengizidagi xukmronlik uchun kurash


Rim armiyasi.

Savollarga javob yozing..

1. Arimiyada necha yosh fuqarolar xizmat qilar edi?
2. Senturiylar
3. Kogorta
4. Legion
5. Katopulta
6. Triumf

Puni urushlari

Urush boshlanishi	Urush natijasi	Urush oqibatlari




51-§. Qullar va gladiatorlar

Atamalarga izoh bering.

- Kolonlar –
- Kulbali qullar –
- Gladiatorlar –
- Amfiteatr –
- Kolizey –
- CHangak –
- Spartak –
- Kape shahri –
- Vezuviy –

Topshiriq: Mavzu matnida berilgan yil sanalarini yozib izohlang.

52-§. Rim Respublikasining qulashi



Rim hukumdorlari o'tkazgan islohotlarni yozing.

1.Oktavian Avgust

2.Sezar Oktavian

3.Mark Antonio

4.Koligula va Neron

5.Troyan

III Bob. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O'QITISH TEKNOLOGIYASINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

3.1. Texnologik yondashuv asosida tarix darslarini tashkil etish va o'tkazishga doir ishlanmalar

mavzu	Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX-XIII asr boshlari)
--------------	---

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti-4 soat	Talabalar soni: 30 ta
Mashg'ulot shakli	YANGI mavzuni o'tish darsi
Ma'ruza rejasi	1. Madaniy va ma'naviy uyg'onish 2. Abu Nasr Forobiy 3. Ibn Sino 4. Beruniy 5. Maxmud Zamaxshariy 6. Burxoniddin al-Marg'inoniy
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX-XIII asr boshlari) haqida bilim berish.	
Pedagogik vazifalar: • Madaniy va ma'naviy uyg'onish haqida tushuncha beradi; • Abu Nasr Forobiy haqida ma'lumot berish; • Ibn Sino haqida ma'lumot berish; • Beruniy haqida ma'lumot berish; • Maxmud Zamaxshariy haqida ma'lumot berish; • Burxoniddin al-Marg'inoniy haqida ma'lumot berish;	O'quv faoliyati natijalari: • Madaniy va ma'naviy uyg'onish tushunchasiga ega bo'ladilar; • Abu Nasr Forobiy haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar; • Ibn Sino haqidagi ma'lumotni o'zlashtiradilar; • Beruniy haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar; • Maxmud Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar; • Burxoniddin al-Marg'inoniy haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar;
Ta'lim berish usullari	Suhbat usuli, hamkorlikda ishlash, "tushunchalar tahlili", loyiha texnologiyalari, toifali jadval interfaol usuli. (O'qituvchi guruhning bilish faoliyatidan kelib chiqqan holda tanlash imkoniyatiga qarab quyidagi bir necha usullardan foydalanishi mumkin)
Ta'lim berish shakllari	Yakka, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	Darslik, tarqatma materiallar, xarita, ma'ruza matni, slaydlar, proektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya

Monitoring va baholash	Ogʻzaki nazorat: savol-javob Yozma nazorat: oʻquv topshiriq
------------------------	--

Texnologik xarita

Bosqich, vaqt	Faoliyat	
	Oʻqituvchi	Oʻquvchilar
I-bosqich. Tashkiliy qism Oʻquv mashgʻulotlariga kirish (5 daqiqa)	1.1. Oʻquvchilar davomati va darsga tayyorgarligi aniqlanadi. 1.2. Uy vazifasining nazorati boʻyicha topshiriqni bajarish shartlarini tushuntiradi.	Yozib oladilar.
II-Uy vazifasining nazorati (10 daqiqa)	2.1. Uy vazifasining nazorati: (1-ilova) 1-topshiriq. “Oʻrta Osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi” mavzusi boʻyicha hamkorlikda ishlash texnologiyasi boʻyicha oʻquv topshirigʻi. 2- topshiriq. Tarixiy xarita va kontur xarita bilan ishlash, jamoaviy tarzda blits-soʻrov oʻtkaziladi.	Tinglaydilar, javob beradilar, Topshiriqni bajaradilar
III-Asosiy bosqich (15 daqiqa)	Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzuning nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 3.1. YAngi mavzu va reja ekranga chiqariladi. (2-ilova) • Madaniy va maʼnaviy uygʻonish haqida bilim beradi; (3-ilova) • Abu Nasr Forobiy haqida maʼlumot berish; (4-ilova) • Ibn Sino haqida maʼlumot berish; (5-ilova) • Beruniy haqida maʼlumot berish; (6-ilova) • Maxmud Zamaxshariy haqida maʼlumot berish; (7-ilova) • Burxoniddin al-Margʻinoniy haqida maʼlumot berish; (8-ilova)	Tinglaydilar Yozib oladilar
IV- Mustahkamlash bosqichi (10 daqiqa)	4.1. Mavzu boʻyicha oʻquvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 4.2. Tinglovchilar tahlili texnologiyasi asosida asosiy tayanch atama va tushunchalar mustahkamlanadi. (9- ilova). 4.3. Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq. Toifali jadvalni toʻldirish. (10-ilova)	Topshiriqni bajaradilar va olingan bilimlarni mustahkamlaydila r.

V-Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	5.1. Xulosa qilish. 5.2. Uy vazifasi. Loyiha texnologiyasi bo'yicha o'quv topshirig'i. (11-ilova)	Topshiriqni bajaradilar
-------------------------------------	---	-------------------------

1-ilova

Uy vazifasining nazorati. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash texnologiyasi

O'quv topshiriqlari:

1. «Bayt ul-hikmat», Xorazm Ma'mun Akademiyasi haqida ma'lumot bering.
2. Muhammad Muso Al-Xorazmiy, Ahmad Ibn Kasir Al-Farg'oniy haqida ma'lumot bering
3. Islom madaniyati ravnaqida Markaziy Osiyo allomalarining tutgan o'rni, Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziy, Abu Nasr Moturidiylar haqida ma'lumot bering.

MUHAMMAD MUSO AL-XORAZMIY (783—850) qadimiy Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga etadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa **Ma'mun** zamonida (813-833) «*Bayt ul hikma*» da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bag'dodda u *Suriya, Iroq, Eron, Xuroson* va *Movarounnahr* olimlari bilan ijod qiladi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birgalikda er aylanasi uzunligi va radiusini hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'ldi. Zamonasining mashxur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Xorazmiy 20 dan ortiq asar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha etib kelgan. Bu kitoblar: «*Aljabr va al-muqobala*», «*Hiind hisobi haqida*», «*Kitob surat ul-arz*» (Er surati), «*Zij*» va «*Usturlob bilan ishlash haqida kitob*», «*Kitob at-tarix*», «*YAhudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola*» nomlari bilan atalgan. Xorazmiy merosida ayniqsa «*Aljabr va al-muqobala*» kitobining ilmiy axamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Hatto «*algebra*» atamasi ushbu kitobning qisqartirilib «*al-jabr*» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida «*algoritim*» atamasi shaklida o'z ifodasini topdi.

1983 yilda al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi tantanali nishonlangan.

AHMAD IBN KASIR AL-FARG'ONIY (797-865) - Farg'onada tavallud topgan buyuk astronom, matematik va geograf. SHarqda «*Hosib*» (matematik) degan laqab olgan. Ilm yo'lida Bog'dodga ketib qoladi va shu erda yashaydi. Xalifa Ma'mun (813-833) davrida Bog'dodda va Damashq yaqinidagi rasadxonalar uning rahbarligida qurilgan. «Ma'mun akademiyasi»da ko'plab

kashfiyotlar qilgan. 812 yilgi quyosh tutilishini oldindan aytib bergan, erning dumaloqligini isbotlab bergan. Nil daryosi suvini o'lchaydigan yangi asbob «**miqyos jadid**»ni yaratdi. Uning astronomiyaga oid asarlari XII asrdan Evropa tillariga tarjima qilinib bir necha asrlar mobaynida SHarq va G'arb olimlari tomonidan qo'llanma sifatida ishlatib kelingan. Bog'dodda vafot etgan.

«**Somoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob**», «**Astrolyabiya haqida mukammal kitob**», «**Astrolyabiya san'ati haqida**», «**Majastiyga kirish fasllari risolasi**», «**Oy Er ustida yoki uning ostida bo'lgan paytdagi vaqtlarni o'rganish haqida risola**», «**Etti iqlim hisobi**», «**Marmarning xizmati haqida kitob**» asarlarining muallifidir.

1998 yil oktyabrda buyuk Vatandoshimizning 1200 yillik yubileyi yurtimizda keng nishonlandi.

Islom madaniyati ravnaqida Markaziy Osiyo allomalarining tutgan o'rni

Islomning rivojlanishiga Movarounnahrda etishib chiqqan allomalar katta hissa qo'shdi. **Imom al-Buxoriy** kitob holiga keltirgan hadislar to'plami - «**Al-Jomi' as-Sahih**» Islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Al-Buxoriy va uning safdoshlari Islom ilohiyotining barcha yo'nalishlari bo'yicha muhim tadqiqotlar qildilar. Jumladan, Islom nazariyotchiligidan yuqori baholanadigan «Ilal ash-Shariat va Xatm ul-Asliyyot» risolasini ta'lif etgan **Xakim Termiziy**, Islom huquqshunosligini o'rganishning asosiy qo'llanmasi hisoblangan «**Hidoya**»ning muallifi **Burhoniddin Marg'inoniy**, Islom aqidasi asoslarini muayyan tartibga solgan, kalom ilmida maktab yaratgan **Imom Moturidiy**, buyuk faqih **Abu Lays Samarqandiy**, musulmon dunyosining eng e'zozli muhaddislaridan **Iso at-Termiziy**, qomusiy ilmlar sohibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan **Mahmud Zamaxshariy**, tasavvufda o'ziga xos iz qoldirgan **Ahmad Yassaviy**, **Bahouddin Naqshband**, **Mahdumi A'zam**, **Najmiddin Kubro**, **So'fi Olloyor**, **Abduxoliq G'ijduvoniy** va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Ular musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi b-n uyg'unlashtirganliklari tufayli O'rta Osiyoda madaniy hayotning adabiyot, me'morlik, musiqa kabi sohalarida taraqqiyot yuzaga keldi.

IMOM AL-BUXORIY (810-870) - Buxoroda tug'ilgan. 825 yili otalari va birodarlari bilan haj safariga borib, u erda qolib ketgan. U erda ilmlarini takomillashtirib, payg'ambarimiz hadislarini to'plash, tartibga solish, ulardan qaysilari to'g'ri, qaysilari payg'ambarga taalluqli emasligini aniqlash maqsadida Makka, Madina, SHom, Misr, Falastin, Iroq shaharlarini kezib, ranju-mashaqqatlar bilan jami 600 ming hadis to'plab, bulardan 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarni yod olganlar. 600 ming hadisdan 7265 tasini «**Jome' as-sahih**» (Ishonchli to'plam) kitobiga kiritdilar.

Imom al-Buxoriyning mashhur asarlari 15 ta bo'lib, ulardan eng yiriklari

«**Jome' as-sahih**» (Ishonchli to'plam), «**Al-Adab al-mufrad**» (Adab haqida yagona kitob), «**At-Tarix as-sag'ir**» (Kichik tarix), «**At-Tarix al-asvat**» (O'rtacha tarix), «**At-Tarix al-kabir**» (Katta tarix) va «**At-tafsir al-kabir**» (Katta tafsir) asarlaridir.

1998 yil oktyabrda Imom al-Buxoriyning 1225 yillik yubileyi o'tkazildi.

IMOM AT-TERMIZIY (824-894) - mashhur muhaddislardan biri. Uning bobosi Marvlik bo'lgan. Keyin Termizga ko'chib kelgan. YOshligidan ilm va hadisga qiziqib, Hijoz, Iroq va Xurosonda o'qigan. Umrining oxirida kasal bo'lib ko'r bo'lib qolgan. 70 yoshida Termizda vafot etgan. At -Termiziydan juda ko'plab Islom olimlari dars olganlar. Abu Iso at-Termiziyning asarlari: «**Kitob al-jome'**» (Hadislar majmuasi kitobi), «**Kitob ilol**» (Illatlar kitobi), «**Kitobi tarix**», «**Kitob ash-shamoil an-nabiyya**» (Payg'ambarlik alomatlari kitobi).

1995 yilda Imom at-Termiziyning 1200 yilligi keng nishonlandi.

MOTURIDIY ABU MANSUR MUHAMMAD IBN MUHAMMAD (870-944) - islom dinining nazariy, fiqh asoslari va manbalarini o'rganadigan sohasi bo'yicha hanafiya mazhabining yirik faqihi (huquqshunosi), kalom ilmida yangi bir yo'nalish-maktab yaratgan yirik alloma. Samarqand yaqinidagi Moturid mahallasida tug'ilgan. Moturidiyning kalom sohasida ixtiro etgan ta'limoti keyinchalik "moturidiya" nomi bilan shuhrat qozonib, musulmonlar orasida Movarounnhrda keng tarqaladi. Uning asarlarida qarmatiylar, rafoviziylar va mu'taziliylar ta'limotlari rad etiladi.

Qur'on tafsiri, kalom, fiqh ilmi usullari sohasida bir qator kitoblar yozib qoldirgan. Ulardan «**Kitob al-usul**» (Fiqh asoslari kitobi), «**Kitob ta'vilot al-Qur'on**» (Qur'on tafsiri kitobi), «**SHarh Fiqh al-akbar**», «**Kitob at-tavhid**» (Xudoning yagonaligi haqida), «**Kitob al-maqolat**» (Maqollar kitobi), «**Ma'uz ash-sharoi'**» (Qonunshunoslikdagi etishmovchiliklar), «**Ta'vilot ahl as-sunna**» eng mashhurlari hisoblanadi.

2000 yil 17 noyabrda Buyuk Vatandoshimiz tavalludining 1130 yilligi Samarqand shahrida keng nishonlandi.

2-topshiriq. SUHBAT MAVZUSI

✚ O'quvchilarga hadislardan o'qib berish, mazmunini tushuntirish. Ularda odob-axloq, fahm-farosat, ziyraklik kabi xususiyatlarni shakllantirish;

✚ O'quvchilarga hadislardan namunalar o'qib mazmunini aytib berish.

Tarqatma materiallar. Hadislarning mazmuni va mohiyatini aniqlang:

HADIS - islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad Payg'ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy va ahloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Payg'ambar

biron gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yohud boshqalarning o'zlariga qilayotgan biron ishini ko'rib, uni ma'n etmagan bo'lsa, shu holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shu hatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi.


Juft-juft bo'lib ishlash topshiriqlari:

1-topshiriq

- Vatanni sevmiq imondandir;
- Odamlarni masxara qilish, kamsitish katta gunohdir;
- Jannat onalar oyog'i ostidadir;
- Rostgo'ylikni mahkam ushlang, chunki rostgo'ylik ezgulikka olib boradi;
- Tangri nazdida eng yaxshi gap rost gapirish;
- Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir;
- quloqqa yomon eshitiladigan gaplardan saqlaning;

- Ota-onani hafa qilib yig'latish katta gunohdir;
- Ota-onani keksaygan chog'ida duolarini olmagan kishilar xor bo'ladi;
- qo'shni haqqi – qo'ldan kelgancha qo'shnisiga yaxshilik qilishdir;
- Rostgo'y bo'ling – u ezgulikka olib boradi;
- Bir-biringizni yomon ko'rmang, hasad qilmang;
- Odamlarga taom ediringlar va shirinso'z bo'linglar;

- O'zingga yoqqan narsalarni boshqalarga ham ravo ko'r;
- Liboslaringizni chiroyli kiyinglar;
- Tangri go'zaldir, go'zallikni yaxshi ko'radi;
- Nonni e'zozlang;
- Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi;
- qaysi birlaringda qahri g'azab qo'zisa darhol u sukut saqlashga o'tsin;
- Oddiy kiyim kiyish ham imondandir;
- Odamlar ichida Tangriga yoqimsizrog'i ashaddiy dushmanlik qiluvchilardir.




2-ilova

Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX-XIII asr boshlari)

REJA:

1. Madaniy va ma'naviy uyg'onish
2. Abu Nasr Forobiy
3. Ibn Sino
4. Beruniy
5. Mahmud Zamaxshariy
6. Burxoniddin al-Marg'loniy



Madaniy va ma'naviy uyg'onish

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyatning yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan shart- sharoitlar	- Islom dinining kirib kelishi - Arab yozuvining keng yoyilishi - Ulkan hududlarning markazlashgan hokimiyat ostida birlashtirilishi (Arab xalifaligi) - Xalifalikdan mustaqil bo'lgan yangi sulola hukmdorlarining ilm-fan va madaniyatga homiyligi - Siyosiy barqarorlik - Buyuk ipak yo'li - Aholi moddiy va ma'naviy madaniyatining qadimiyligi
---	---

UYG'ONISH DAVRI, (RENESSANS) (fr. renaissance – uyg'onish) – aynan qadimiy, miloddan avvalgi V-II asrlardagi mumtoz yunon-rim madaniyati, fani, falsafasining tiklanishi. Antik (qadimgi) davrga xos hayotni his etishga yaqin, lekin o'rta asrlardagi kabi moddiylikni gunoh deb hisoblab, undan voz kechishning inkor etilishi. Yangicha hissiyotlarning, hayot nashidasini sezishning paydo bo'lishi demakdir.

Tarixshunoslikda Sharq renessansi va g'arb renessansi mavjud. Sharq renessansi IX-XII va XIV-XV asrlarni o'z ichiga olsa, g'arb renessansi XIII asrdan boshlanadi va XV-XVI asrlarni o'z ichiga oladi.

«BAYT UL-HIKMA» – Donishmandlar uyi. Arab xalifasi Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bag'dodda tashkil etilgan islom Sharqining o'sha davrdagi fanlar akademiyasi. Ma'mun akademiyasida buyuk vatandoshlarimizdan al-Xorazmiy (786-850) va Ahmad al-Farg'oniylar (797-865) faoliyat yuritganlar. Al-Xorazmiy ushbu akademiyaning mudiri bo'lgan.


XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI – 1004 yilda Xorazmning g'adimiy poytaxti Gurganjda Xorazmshog' Ma'mun ibn Ma'mun tomonidan tashkil etilgan akademiya. Bu akademiya («Ma'mun akademiyasi»)ning asosini Abu Nasr ibn Iroq (X a.-1034), Abulhayr ibn hammor (991-1048), Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino va boshqalar tashkil etgan. 1017 yilda Mahmud g'aznaviy Xorazmni bosib olgach, «Ma'mun akademiyasi» o'z faoliyatini to'xtatgan. Olimlarning ko'pchiligi g'azna shaqriga majburan olib ketilgan.

Xorazmning qadimgi poytaxti Gurganch, hozirda ko'hna Urganch deb nomlanib, u Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida, bugungi Xiva shaqridan taxminan 100 km. masofada joylashgan. Mahalliy xalq qozirda Ko'hna Urganch va unga tutash ududlarni ko'proq «360» deb ataydi. Rivoyatlarga qaraganda bu erda o'tmishda 360 ta shayx, mutafakkir va olimu-fuzalo o'tgan ekan. Mazkur 360 ta alloma «Ma'mun akademiyasi» dovrug'ining halq xotirasida rivoyat shaklidagi ko'rinishidir.

1997 yil 11 noyabrda O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning «Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilinib, mazkur farmonga binoan, bu akademiya o'z tarkibida arxeologiya, til va adabiyot, biologiya bo'limlari tashkil qilindi va ajdodlarimizning ismi va rug'iga loyiq ish olib borish kabi xayrli ishlarni boshladi. YUNESKO tashkiloti O'zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005 yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi va bu yurtimizda tantanali ravishda keng nishonlandi.

BU NASR FOROBIY 873 yilda Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan **Forob (O'tror)** shahrida tug'ilgan. U avval ona shahrida, so'ngra Samarqand, Buxoro va Bag'dodda bilim olgan. Uning o'tkir zehni va xotirasini sezgan otasi Bog'dodga ko'chib keladi. Damashq, Halab, Harron shaharlarini kezib, u erlik olimlar suhbatini oladi.

Aristotel, Aflotun (Platon) kabi qadimgi yunon faylasuflari asarlari bilan tanishadi. U Aristotel asarlariga juda ko'p sharhlar yozadi va bu sharhlar SHarq olimlarini tushunish qiyin bo'lgan yunon falsafasi bilan tanishtiradi va shuning uchun ham bilimli, ma'rifatli, fikr-muloxazalarining kengligi va mantig'ining teranligi tufayli SHarqda Forobiy **«Muallim us-soniy» - Ikkinchi muallim** nomini olgan. Forobiy musiqa sohasida ham bilimdon bo'lib, juda ko'p kuylar yaratgan, xatto musiqa kuylarini harflar bilan ifodalash (nota)ni dastlab Forobiy topgan va **«qonun»** degan cholg'u asbobi yaratgan. Umrining oxirlarida **Xalab** va **Damashq** shaxarlarida yashagan, 950 yilda vafot etgan. Forobiy **riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot** sohalarida ijod etgan. U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr fan va madaniyatiga ulkan xissa qo'shdi. **«Aristotelning «Metafizika» asari maqsadlari haqida», «Musiqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Tirik mavjudot a'zolari haqida», «SHaharlar ustida siyosat yurgizish», «Jamiyatni o'rganish haqida kitob», «Kitob maoyish va-l-hurub»** (Hayot va urush haqida kitob), **«Uyun al-masal»** (Masalalar chashmasi), **«Risola fi fusus al-hikam»** (Hikmat gavharlari haqida risola) uning mashhur asarlaridir.




116-расм. Абу Наср Фарабий.

ABU ALI IBN SINO 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona kishlog'ida maxalliy amaldor oilasida dunyoga keldi.

U tabobat ilmining qadimgi allomalari **Gippokrat** va **Galen** hamda o'rta asr SHarqining buyuk hakimi va mutafakkiri **Abu Bakr ar-Roziy** (864—925) ning asarlarini puxta o'rganadi. Ibn Sino o'n etti yoshidayok e'tiborli xakim va olim bo'lib etishadi. U amir **Nux ibn Mansurni** davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Kutubxonada u bir yil davomida turli sohalardagi ilmiy asarlarni mutoala qilib, bilimlarini chuqurlashtiradi. IX asrning oxiri va X asr boshlarida Movarounnahrda yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino o'z ona shahri Buxoroni tark etib, avval Urganchda, Xorazmshoh Ma'mun saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So'ngra Maxmud G'aznaviyning tazyiqi tufayli Xorazmdan ham chiqib ketadi. U umrining oxirigacha *Obivard*, *Gurgon*, *Ray*, *Qazvin*, *Isfixon* va *Xamadon* shaharlarida xukmdorlar qo'l ostida tabiblik va vazirlik qiladi. 1037 yilda Xamadonda vafot etadi.

Ibn Sino asarlari 280 dan ortiq. Bulardan 43 tasi tibbiyotga oid. Asarlaridan bizga 160 ga yaqini etib kelgan. Eng yirik asarlari: «*Al qonun fittib*», «*Kitob ash-shifo*», «*Kitob lison al-arab*», «*Kitob an-najot*». Qissalari: «*Donishnoma*», «*Salomon va Ibsol*», «*Qissat at-Tayr*».



118-рasm. Абу Али ибн Сино.

ABU RAYXON BERUNIY 973 yilda Xorazmning Kat shahrida tugʻilib, dastlab Urganchda taʼlim oladi. 22 yoshida Ray shahriga, 995 yildan keyin Jurjonga Qobus ibn Vushmgir saroyiga keladi va shu erda oʻzining mashhur asari «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yozadi. 1000-1017 yillarda Xorazmdagi «Maʼmun akademiyasi»da faoliyat koʻrsatadi. 1017 yil Mahmud Gʻaznaviy Xorazmni egallagach Beruniy boshqa olimlar bilan Gʻaznaga olib ketiladi va olimning bu erdagi faoliyati ancha sermahsul boʻladi. 1048 yilda Gʻaznada vafot etadi.

Beruniy jahonning bir nechta tillarini bilgan va *falakiyot*, *geografiya*, *matematika* va *tarix* fanlari boʻyicha 154 ta ilmiy asar yozdi. Afsuski bularning bizgacha 28 tasigina maʼlum. Uning «*Oʻtmish avlodlardan qolgan yodgorliklar*», «*Hindiston*», «*Mineralogiya*», «*Geodeziya*» «*Saydana*» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy oʻzining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan kariyb besh asr muqaddam Erning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni oʻrta asrlarda birinchi boʻlib ilgari surdi. Erning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U dunyoning geografik xaritasini tuzdi. Beruniyning ilmiy va falsafiy katta merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qoʻshilgan katta hissa boʻldi.



117-расм. Абу Райхон Беруний.

MAHMUD ZAMAXSHARIY (1075-1144) - mashhur olim, mufasssir, tilshunos, shoir va yozuvchi. Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Urganch, Buxoro madrasalarida ta'lim oladi. Bu erdan Xuroson va Isfahonga boradi. Saljuqiylar saroyida xizmat qiladi. Xorazmga qaytib, qattiq kasal bo'lib, bir oyog'idan ajraladi. Sog'aygach, ilm olish uchun Bog'dodga jo'naydi, u erdan Makkaga o'tadi. Ikki yildan keyin vataniga qaytib, bir qancha vaqt o'tgach SHom (Suriya)ga va yana Makkaga boradi. Makkada yashab u erda tafsirga oid «*Al-Kashshof*» (Oshkor qiluvchi) asarini tugatadi va «*Jorulloh*» (Ollohning qo'shnisi), «*Arablar va g'ayri arablar ustozlari*» unvoniga ega bo'ladi. So'ng yurtiga qaytib Xorazmda vafot etadi.

Mahmud Zamaxshariy 50 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Eng yirik asarlari «*Al-Kashshof*», «*Asos al-balog'a*» (Balog'at asoslari), «*Al-Foiq fi g'arib-il-hadis*» (Hadislardagi notanish so'zlarni o'zlashtiruvchi), «*Al-Mufasssal*» (Arab grammatikasiga bag'ishlangan), «*Muqaddimat ul-adab*» (Xorazmshoh Otsizga bag'ishlangan), «*Tog'lar, joylar va suvlar xaqida kitob*», «*Notiqlik asoslari*», «*Aruzda o'lchov*».

BURHONUDDIN AL-MARG'INONIY (1123-1197) – mashhur faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy 1123 yil 23 sentyabrda Marg'ilonda tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Marg'ilonda olib, keyinchalik Samarqandga ko'chib borgan va o'sha erda yashagan. Uning islom olamidagina emas, balki butun insoniyat oldidagi buyuk xizmati shundan iboratki, u islom dinining tengi yo'q tahlilchisi va talqinchisi, bu din qomusiy mazmunining izohchisi va targ'ibotchisi bo'lgan. Fiqhga oid bir qator yirik asarlar yaratgan. Bu asarlar qatoriga «*Bidayat al-muntahiy*» (Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim), «*Kifoyat al-muntahiy*» (YAkunlovchilar uchun tugal ta'lim), «*Kitob ul-mazid*» (Ilmni ziyoda qiluvchi kitob), «*Manoslik ul-haj*» (Haj marosimlari), «*Majmua ul-navozil*» (Nozilda bo'lgan narsalar to'plami), «*Kitob ul-faroiz*» (Farzlar kitobi), «*Kitob ul-mashoix*» (SHayxlar haqida kitob), «*Mazydun fi furu'il-hanafiya*» (Hanafiya mazhabiga qo'shimchalar), «*Bidayat ul-mubtadiy*» asari uchun 8 jildlik sharh, «*Al-Hidoya*» (Kifoyat ul-muntahiy uchun yozilgan 4 jildlik sharh) va boshqalar kiradi. Bu kitoblar nomlarining o'ziyoq al-Marg'inoniy islom dinining asosiy masalalarini naqadar keng qamrab olganligidan dalolat beradi.

Al-Marg'inoniyning butun islom olamida mashhur bo'lgan shoh asari «*Al-Hidoya*» 1178 yilda Samarqandda yoziladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq. “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi

tushunchalar	mazmuni
“bayt-ul hikma”	?
hadis	?
alfraganus	?
avitsenna	?
gidrometr	?
al-jome as-sahih	?
algoritm	?
“bayt-ul hikma”	?

tushunchalar	mazmuni
“Bayt-ul hikma”	SHarqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. 9 asrda bu shaharda “Bayt ul-hikma” tashkil etildi. Unda katta kutubxona, Bag‘dod va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o‘rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug‘ullanardilar.
Hadis	Arabcha – “rivoyat”, “naql” Islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg‘ambarning (s.v.a.) so‘zlari, ko‘rsatmalari, nasihatlar va qilgan amallaridir. Ular musulmonlar uchun “Qur’oni karim” dan keyin rioya etiladigan yaxshi amallardir. Bizning hayotimizda ham hadislar muhim ahamiyatga ega. Hadislarga amal qilganlar odobli, yaxshi axloqli inson bo‘ladilar.
Alfraganus	Al-Farg‘oniyning G‘arbdagi nomi
Avitsenna	Ibn Sinoning G‘arbdagi nomi
gidrometr	Daryo oqimi sathini belgilaydigan “Miqyos an-Nil”
al-jome as-sahih	Al -Buxoriyning hadislari
algoritm	Xorazmiy nomidan olingan matematik fan

10-ilova

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq. Toifali jadvalni to‘ldiring

	Buyuk allomalar	Tug‘ilgan yili va joyi	Ijod qilgan joylari	Ilmiy merosi, asarlari haqida qisqa ma’lumot	Tavalludi nishonlagan sana
	Al-Xorazmiy				

	Ahmad al-Fargʻoniy				
	Al Beruniy				
	Ibn Sino				
	Imom al – Buxoriy				
	Maxmud Zamaxshariy				
	Burxoniddin al-Margʻinoniy				

11-ilova

Uy vazifasi. Loyiha texnologiyasi boʻyicha oʻquv topshirigʻi.

Loyiha (projekt) – tushunchasi kengroq ifodalanib, maʼlum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etishda biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Oʻquv loyiha mavzusi: **“Buyuk allomalarimizning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qoʻshgan hissalari”**.

Loyiha doirasida oʻz echimini topuvchi, muammo: Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davri (IX-XIII asr boshlari), buyuk allomalarning ilmiy merosi haqidagi qisqa maʼlumotlar bilan taʼminlash.

Oʻquv loyiha mavzulari:

1. Al-Xorazmiy
2. Ahmad al-Fargʻoniy
3. Al Beruniy
4. Ibn Sino
5. Imom al -Buxoriy
6. Maxmud Zamaxshariy
7. Burxoniddin al-Margʻinoniy.

Loyiha maqsadi (u nima uchun yaratiladi): mavzu haqida intellektual yohud maʼnaviy (loyihaning mahsuli) “Buyuk allomalar” toʻgʻrisida maʼlumotnoma ishlab chiqish.

Yakuniy natija: Buyuk allomalar toʻgʻrisida qisqa va tuzilmaviy axborotni oʻz ichiga oluvchi, maʼlumotnoma.

Foydalanuvchilar: 7-sinf oʻquvchilari, tarixchilar.

Loyiha doirasi:

bajarish muddati: 5 kun

- *ishtirokchilar soni: beshtagacha*

Loyiha tuzilishi va mazmuni

- Kirish – ma'lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi.
- Loyiha mavzusini yoritib beruvchi, axborot.
- Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari

Axborot manbalarini aniqlash, uni yig'ish.

Axborotni tanlash va tuzilmaga keltirish.

Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.

Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida og'zaki axborot tayyorlash.

Hisobot tayyorlash.

Prezentatsiya qilish.

1 – mab3y	Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati
------------------	---

Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti – 45daqqa	O'quvchilar soni - 30 ta
Mashg'ulot shakli	Yangi mavzuni o'tish darsi
Ma'ruza rejasi	1. Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi haqida 2. Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi 3. Amerikaning kashf etilishi 4. Keyingi kashfiyotlar 5. Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quvchilarga Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati haqida bilim berish.	
Pedagogik vazifalar: • Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot berish; • Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi haqida bilim berish; • Amerikaning kashf etilishiga oid ma'lumot berish; • Keyingi kashfiyotlar haqida tushuncha berish; • Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati haqida ma'lumot berish.	O'quv faoliyati natijalari: • Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati haqidagi ma'lumotni o'zlashtiradilar • Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi haqida bilib oladilar; • Amerikaning kashf etilishini sharhlay oladilar; • Keyingi kashfiyotlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar; • Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati haqidagi ma'lumotni o'zlashtiradilar.
Ta'lim berish usullari	Suhbat, tushunchalar tahlili, toifali jadval grafik organayzeri, T-sxemasi (guruhning bilish faoliyatidan kelib chiqqib, usullardan foydalanish mumkin bo'lgan

	variantlar keltirildi)
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	YAkka, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, tarqatma material, jahon siysiy xaritasi, ma'ruza matni, slaydlar, proektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob YOzma nazorat: o'quv topshiriq

Texnologik xarita

Bosqich, vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchilar
I-bosqich. Tashkiliy qism O'quv mashg'ulotlariga kirish (5 daqiqa)	1.3. O'quvchilar davomati va darsga tayyorgarligi aniqlanadi. 1.2. Uy vazifasining nazorati bo'yicha topshiriqni bajarish shartlarini tushuntiradi.	YOzib oladilar.
II-Uy vazifasining nazorati (11 daqiqa)	2.1. Jahon tarixi darsligidagi kirish qismdagi "Yangi tarix", uning davrlari xususida suhbat o'tkaziladi. (1-ilova) 2.2. Yangi mavzuning nomi va rejalari ekranga chiqariladi. (2-ilova) 2.3. Mavzu bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Tarixiy xarita (atlas) va kontur xarita bilan ishlash, jamoaviy tarzda blits-so'rov o'tkaziladi (3-ilova)	Tinglaydi, javob beradi, topshiriqni bajaradilar
III-Asosiy bosqich (15 daqiqa)	Mavzu va rejalarga oid slaydlar asosida tushuntirib beriladi: 3.1. Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi haqida ma'lumot berish; (4-ilova) 3.2. Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi haqida bilim berish; (5-ilova) 3.3. Amerikaning kashf etilishiga oid ma'lumot berish; (6-ilova) 3.4. Keyingi kashfiyotlar haqida tushuncha berish; (7-ilova) 3.5. Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati haqida ma'lumot berish. (8-ilova)	Tinglaydi va yozib oladilar

IV- Mustahkamlash bosqichi (10 daqqa)	4.1. Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar. 1-topshiriq. Tushunchalar tahlili texnologiyasi asosida tayanch atama va tushunchalar mustahkamlanadi.(9-ilova) 4.2. 2-topshiriq. «T»-sxemasi asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish (10- ilova)	Topshiriqni bajaradilar va olingan bilimlarni mustahkamlaydila r.
V-Yakuniy bosqich (5 daqqa)	5.1. Xulosa. 5.2. Uyga vazifa. (11-ilova) 1-topshiriq. Toifali jadval – grafik organayzer asosida topshiriq beriladi. 2-topshiriq. Qisqa muddatli loyiha ishi.	Topshiriqni bajaradilar

1-ilova

SUHBAT MAVZUSI

Jahon tarixi darsligidagi kirish qismidagi “YAngi tarix”, uning davrlari xususida suhbat o‘tkaziladi.

2-ilova

Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati	
1.	Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi haqida
2.	Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi
3.	Amerikaning kashf etilishi
4.	Keyingi kashfiyotlar
5.	Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati

3-ilova

SUHBAT MAVZUSI: Nima deb o‘ylaysiz, negaXV asr oxiri XVII asr davomida amalga oshiriladigan geografik kashfiyotlar “Buyuk geografik kashfiyotlar” nomi bilan ataladi? Tarixiy xarita (atlas)va kontur xarita bilan ishlash, jamoaviy tarzda blits -so‘rov o‘tkaziladi

4- ilova

Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi haqida
Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi XV asr oxiri – XVI asr boshlariga kelganda evropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan yirik geografik kashfiyotlarga nisbatan ishlatiladi.
Geografik kashfiyotlar odamlar uchun shu vaqtgacha noma’lum bo‘lgan yangi erlarning qidirib topilishidir.
Quyidagi omillar geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi:
1. XV asr oxiri – XVI asr boshlariga kelganda Evropada tovar ishlab chiqarish yuqori sur‘atda o‘sa boshladi. Bu esa xom ashyoga bo‘lgan talabni oshirdi. Evropada xom ashyo kam bo‘lganligi uchun uni boshqa o‘lkalardan olib

kelish zaruratga aylandi.

2. Yangi davr hukmron tabaqalarining boylikka, pulga bo'lgan ehtiyojini yanada orttirib yubordi. Ularda boyliklarni egallab olish ishtiyoqi oshdi.

3. Buyuk ipak yo'li ustidan nazoratni Usmonli turklar saltanati nazorati ositida bo'lganligi uchun evropaliklarga tovar juda qimmatga tushdi. Dengiz savdo yo'lini ochish zaruratini oshirdi.

5- ilova

Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi

Buyuk geografik kashfiyotlarning tashabbuskorlari Portugaliya va Ispaniya dengiz sayyohlari bo'ldi. Dengiz sayyohlaridan biri admiral Xristofer Kolumb edi. U o'z oldiga Hindistonga Atlantika okeani orqali boradigan yo'l ochilishi maqsad qilib qo'ydi. Buning uchun ilm-fan yutuqlariga ham tayanildi. Italiyalik olim P.Toskanelli erning dumaloqligi haqidagi ta'limotdan kelib chiqib, dunyo xaritasini yaratganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Kishilarning tadbirkorlik ruhi, kapital jamg'arishga intilishi, insonning imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi eng dadil rejalarni ham amalga oshiradigan qilib qo'ydi.

1492-yilda X.Kolumb 3 ta kemada 90 kishilik dengizchi bilan 1-ekspeditsiyani boshladi.

6-ilova

Amerikaning kashf etilishi

X.Kolumb ekspeditsiyasi 12-oktyabr kuni Amerika qit'asidagi San-Salvador (Muqaddas haloskor, hozirgi Bargama orollari davlati hududidagi orollar) oroliga kelib tushdi. Hindistonni topish uchun chiqilgan yo'l Amerikani kashf etilishiga olib keldi. X.Kolumb Hindistonga keldim deb o'ylagan va aholisini hindular deb atagan. Ntijada bu erda Ispaniya bayrog'i hilpiragan. Bu dunyo xaritasini tuzgan P.Toskanellining xatosi edi.

Yangi qit'aning Kolumbiya deb emas, balki Italiya dengizchisi Amerigo Vespuchchi nomi bilan bog'liq. U Ispaniya va Portugaliya flotida xizmat qilgan edi. U Kolumb ochgan erlar Hindiston emas, balki yangi qit'a degan xulosaga keldi. Unga yangi dunyo deb nom berdi.

7- ilova

Keyingi kashfiyotlar

Amerika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'li 1498-yilda kashf etildi. Bu kashfiyotni portugaliyalik dengiz sayyohi Vasko da Gama amalga oshirdi. 1519 yilda yana bir portugaliyalik dengizchi A.Magellan

Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi. Bu ekspeditsiya 1522 yilda nihoyasiga etdi va urning dumaloqligini, uning katta qismi suv bilan qoplanganini isbotladi.

L.V.Torres boshchiligidagi ekspeditsiya 1605 –yilda Avstraliyani kashf etdi.

8- ilova

Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati

Buyuk geografik kashfiyotlar ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning natijasida geografiya, tarix, etnografiya va okeanshunoslilik fanlari yangi g'oyalar bilan boyidi. Yangi dengiz yo'llari ochildi, bu yo'llar o'z navbatida jahon savdosini vujudga keltirdi.

9- ilova

Mavzuni mustahkamlash uchun o'quv topshiriq.

11-topshiriq.

Tushunchalar tahlili asosida tayannch atamalar va tushunchalar mustahkamlanadi

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
Admiral	(arabcha dengiz hukmdori, hokimi) – harbiy-dengiz floti qo'mondonlariga beriladigan unvon
Astrolyabiya	(lotincha) – XVII asrgacha xizmat qilgan joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, yulduzlarning chiqish va botish paytini astronomik asbob
Kashfiyot	Izlab topish, tekshirish natijasida topiladigan, yaratiladigan ilmiy yangilik
“Buyuk geografik kashfiyotlar”	XV asr oxiri – XVI asr boshlariga kelganda evropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan yirik geografik kashfiyotlarga nisbatan ishlatiladi.

10 - ilova

2-topshiriq. «T» SXEMASI ASOSIDA MUSTAQIL FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR	
IJOBIY	SALBIY
XULOSA	

Uy vazifasi.**1. Quyidagi toifali jadvalni to'ldiring:**

Sayyohlar	Ular kashf etgan o'lkalar	Kashf qilingan yil

2. Qisqa muddatli loyiha ishi.**Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati**

1-guruh – Buyuk geografik kashfiyotlar

2-guruh – Amerikaning kashf etilishi

Qo'shimcha o'qish uchun ma'lumot**1-guruh****Geografik kashfiyotlarning boshlanishi.**

Ispaniya va portugaliyaliklar buyuk geografik kashfiyot olamining yorqin yulduzlari bo'ldilar. Portugaliya arablar hukmronligidan xalos bo'lganidan so'ng, XIV-XV asrlarda; SHimoliy Afrikada arablar bilan urushlarni davom ettirib yaxshigina dengiz flotini tuzishga erishdi, O'rta Er dengizidan SHimoliy va Boltiq dengizlariga boradigan muhim savdo yo'li Portugaliya qirg'oqlari yaqinidan o'tardi, SHu sababdan Portugaliya portlariga turli mamlakatlardan kemalar kelib turardi. Dengiz kemalarida xizmat qilish va baliq ovlash sohil bo'yida yashovchi ko'pchilik aholining asosiy mashg'uloti edi. Keyinchalik ulardan dovyurak va tajribali dengizchilar ham etishib chiqdi. Kashfiyotlarning birinchi davrasida, shahzoda Genrix Dengizchi (1418-1460-yillar)ning iste'odi, tashkilotchiligi natijasida nafaqat savdogarlar, balki dvoryanlar ham ishtirok etishdi. Natijada XV asrning 20-30-yillaridayoq portugaliyaliklar Madeyra, Kanar va Azor orollarini ocliishdi. Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab janubga siljiy borgan dengizchilar Boxador burnini chetlab o'tib, 1434-yil Gvineya qirg'oqlariga, YAshil Burun orollariga va 1462-yili S'erra-Leonega etib bordilar. Portugallar bu joylarda mahalliy aholidan rangdor lattalar, shisha marjonlar, kichkina oynachalar kabi maydaqchuyda buyumlarga oltin aralashgan qum va fil suyaklarini almashtirib olardilar. Keyinchalik boshlangan qul savdosining markazi ham xuddi shu erda bo'lgan. Kartalarda saqlanib qolgan qullar qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Fil Suyagi qirg'og'i kabi rasmiy nomlar bejiz paydo bo'lmagan. Portugallarning Bartolomeo Diash boshchiligidagi ekspeditsiyasi 1486-yili Afrikaning janubiy nuqtasini aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqdi. Lekin uzoq davom etgan og'ir yo'l mashaqqatlaridan toliqqan dengizchilar safarni davom ettirishdan bosh tortdilar. Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasini, portugallar Hindistonga boradigan yo'lni yaqin orada ochilishini umid qilib YAxshi Umid burni deb atadilar.

2-guruh

Kolumbning Amerikani kashf qilishi

Olimlarning Er shar shaklida bo'lishi haqidagi taxminlari XV asrda dengiz sayyohlarining qiziqishini yanada oshirdi. Italiyalik olim, astronom Paolo Toskanelli bu g'oyadan keib chiqib dunyo kartasini tuzdi. Kartada Osiyo qit'asi Atlantika okeanining g'arbiy qirg'oqlarida tasvirlangan bo'lib, olimning fikricha, Evropa qirg'oqlaridan doimo g'arbga suzib Hindistonga borish mumkin bo'ladi, Italiya likolim Er ekvatori uzunligini xato tasavvur qilib, 12 ming kilometr ga yanglishgan, Keyinchalik bu xato – buyuk kashfiyotlarga olib keldi.

XV asr oxirida Ispaniya ham yangi dengiz savdo yo'llarini axtara boshlagandi, Ispaniya qiroli Ferdinand va qirolicha Izabellaga o'zining Toskanelli tasdiqlagan Hindistonga G'arbiy dengiz yo'lini ochishi loyihasini topshirgan Xristofor Kolumb (1451-1506-yillarda yashagan) Italiyaning Genuya shahrida to'quvchi oilasida tug'ilgan. Xristofor 15 yoshiga qadar yaxshigina ma'lumot olgan edi. Keyin oilaviy sharoiti tufayli dengizchilikka yollanib, kemalarda matrosdan kapitanga qadar bo'lgan lavozimlarda xizmat qildi. Nihoyat, 1492-yili Ispaniya qiroli sayohatga ruxsat berdi. Palos portidan 1492-yil yozida Kolumb o'zining 90 kishilik komandasi bilari uchta kemada: "Ninyae", "Pinta" va "Santa-Mariya"larda dengizga chiqdi. Orqadan esayotgan shamol kemalarni g'arb tomonga tez haydab borardi, Kunlar ketidan kunlar, haftalar ketidan haftalar o'tdi, lekin er hamon ko'rinmasdi. Saragossa dengiziga etganda suv o'tlari erning yaqinligi hayolini tug'dirdi. Passat shamollari yo'nalishidagi kemalar ildam oldinga suzardi. Yana bir necha kun o'tgandan keyin dengizchilarda qo'rquv paydo bo'ldi. Oradan ikki oy o'tgandan so'ng dengizchilar talabi bilan kemalar janubi-g'arbga tomon yo'l oldi. Nihoyat, 1492-yil 12-oktyabr kuni kechasi kemalardan birining machtasi ustidan matrosning "Er!", "Er!" deya baqirgan ovozi eshitildi, ertasiga kemalar kichik bir orol yoniga kelib to'xtadi. Kolumb qirg'oqqa Ispaniya bayrog'ini tikib, orolni qiroli mulki deb e'lon qildi.

Ekspeditsiya a'zolari bu erdan oltin izlab janub tomonga yo'l oldilar va Kuba hamda Gaiti orollarini kashf qildilar. Gaiti qirg'oqlarida o'zining eng katta kemasidan ayrilgan Kolumb dengizchilarning bir qismini yangi qurilgan Navidad fortida qoldirib, o'zi Ispaniyaga qaytdi. Keying! yillarda Kolumb g'arbga yana 3 marta sayohat qildi. U Karib dengizidagi ko'plab orollarni kashf etdi. Lekin omad unga kulib boqmasdi, u o'zi izlagan Hindistonning oltin-boyliklarini topa olmadi, Yangi qit'a kashf qilinganini Kolumb umrining oxiriga qadar bilmagan. O'zi kashf qilgan joylarni Hindiston, u erlar aholisini "hindular" ("indeetslar") deb atadi. Shu sababdan Amerikaning ko'plab tillarda gaplashadigan, turli nomdagi xalqlari va qabilalarini adabiyotlarda "indeetslar" deb atash rasm bo'lib ketdi. Kolumbdan keyin 1498-yili g'arbda sayohatda bo'lgan Amerigo Vesputchi Kolumb kashf qilgan erlarning "yangi qit'a" ekanligi haqidagi fikrlarini o'z do'sti nemis kosmografi Valdzemyullerga yozib yuborgan. Xuddi shu nemis olimining taklifi bilan yangi qit'a Amerika deb atala boshlandi. Xristofor Kolumbning nomi Kolumbiya davlatiga, Amerika Qo'shma SHtatlari okruglaridan biriga, ko'plab shaharlarga, universitetga, tog', daryo va hatto fazoni tadqiq etish loyihalaridan biriga qo'yilgan.

3-guruh

Vasko de Gamaning Hindistonga sayohati

Ispaniyaliklar tomonidan Amerikaning kashf qilinishi va uni G'arbiy Hindiston deb atalishi ovoza bo'lib, portugaliyaliklarni ham harakatga solib qo'ydi. Portugaliya qiroli Hindistonga boriladigan dengiz yo'lini topish uchun Vasko de Gama boshchiligida (1497-1499-yillar) ekspeditsiya jo'natdi. Ekspeditsiyaga juda puxta tayyorgarlik ko'rildi. Vasko de Gama eng yaxshi kemalar, asboblari va kartalar bilan ta'minlanib, ekspeditsiya tarkibidagi dengizchilar ham tajribali bo'lgan. Safar boshlangandan to'rt yarim oy o'tgach, sayohatchilar Yaxshi Umid burnini aylanib o'tib, Afrikaning sharqiy sohiliga chiqdilar.

Shundan keyin Hind okeani bo'ylab shimolga suzgan de Gama ekspeditsiyasi Mozambikning - Malinda portiga keldi. Arab lotsmani Ahmad ibn Majid yordamida portugaliyaliklar 1498-yilning may oyida 10 oylik sayohatdan so'ng Kalikut shahriga etib keldi. Vasko de Gama hind rojasi qabul qildi. Portugallar kemalariga ziravorlarni yuklab orqaga qaytdilar. Ikki yilga cho'zilgan safar paytida dengizchilarning 3/2 qismi halok bo'ldi. Keltirilgan ziravorlardan ekspeditsiyani uyushtirishga sarflangan mablag'dan 60 marta ortiq foyda olindi.

4-guruh

Dunyo bo'ylab birinchi sayohat

Amerigo Vesputichining Kolumb kashf qilgan erlar yangi qit'a ekanligi haqidagi farazi Fernand Magellanning 1519-1522-yillardagi dunyo aylana birinchi sayohatida tola tasdiqlandi. Yangi ochilgan erlardan mo'ljallangan boyliklariga erisha olmagan ispan hukmdorlari Fernan (Lotsman - dengizda yo'l ko'rsatuvchi kishi.) Magellanning Hindistonga G'arbiy dengiz yo'lini ochish loyihasini qo'llab-quvvatladilar.

Jasur va tajribali dengizchi, bag'oyat irodali Magellan o'zining 5 ta kemadan iborat flotiliyasini 1519-yilning 20-sentyabrida San-Lukas portidan dengizga chiqardi. Ekspeditsiyada qatnashgan: "Trinidad", "San-Antonio", "Konsepsion", "Viktoriya" va "Sant-Yago" kabi 105-154 tonna yuk sig'imli kichik kemalarda ikki yilga etadigan oziq-ovqatlar g'amlab olingandi. Ustiga-ustak Magellanga berilgan kemalar ta'mirlashdan keyin ham talabga to'liq javob beradigan holda emasdi. Portugaliyaning Ispaniyadagi elchisi o'z qiroliga Magellan ekspeditsiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi muqarrar deb yozgan edi.

Magellan kemalarga portugaliyalik hamyurtlaridan ruxsat berilgan 5 o'rniga 37 kishi olishga muvaffaq bo'ldi. Sayohatning boshidayoq juda og'ir sinovlarni engib, 60 kunlik tinimsiz yomg'irlardan so'ng kemalar 1519-yil 13-dekabrda Rio de Janeyro ko'rfaziga kirdi. Yana bir oylik sayohatdan keyin hozirgi Urugvayning poytaxti Montevideo joylashgan erda to'xtashdi. Bu joyning ikki okeanni bog'lovchi qo'ltiq ekanligi haqidagi faraz tasdiqlanmadi. Qishlovga to'xtagan ekspeditsiyada birinchi marta isyon ko'tarildi. Unda uchta kemandagi kapitanlari qatnashdi. Kapitanlardan biri isyonchilar bilan to'qnashuvda halok bo'ldi, ikkinchisi - kapitan Mendosa isyon bostirilishi bilan qatl qilindi, uchinchi kapitan Kartaxena fitnada ishtirok qilgan ruhoniylar bilan ko'rfazning qirg'og'iga tashlab ketildi, isyon boshlanishiga sabab Magellanning oziq-ovqat miqdorini kamaytirishi bo'lgandi.

Ekspeditsiya a'zolarining orqaga qaytishni talab qilishlariga javoban Magellan "Qit'a janubidagi bo'g'ozni topib o'z va'damni bajaraman, bu yo'ldan meni faqat o'lim qaytaradi", - deb aytdi. Ko'rfazning ochilishi arafasida "Sant-Yago" kemasi halokatga uchradi. Magellan ekspeditsiyasi 1520-yil 21-oktyabrida janubiy kenglikning 52-gradusida keyinchalik uningnomiga qo'yilgan qo'ltiqqa kirdi. Ekspeditsiyaning Janubiy dengizga yo'l olgan kemasida 1-noyabr kuni Estevan Gomes boshchiligidagi bir guruh zobitlar isyon ko'tarib, Magellanning sodiq safdoshi "San-Antonio" kapitani Alvaro de Meskituni qo'lga olib asosiy ozuqa zahirasi bilan Ispaniyaga yo'l oldilar. Qaytib kelganlar Magellanga tuhmat-bo'htonlar yog'dirdilar. Qirol hukumati esa bunga ishonib Magellanning qaynotasi va xotinini sazoyi qildi.

Bu paytda jasur Magellan o'z maqsadi tomon ishonch bilan bormoqda edi. Ko'rfazdan bir oyga yaqin suzgan kemalarning chap tomonida doim hindular gulxanlari olovi va tutuni ko'rinib turgan. Natijada dengizchilar bu erlarni "Olovli er" deb atadilar, Okeanga chiqqan kemalar shimolga qarab suzishdi. To'rt oy davomida hech qanday dovullarsiz olg'a yurildi. Okeanning ularga qilgan muruvvati evaziga sayohatchilar uni "Tinch okean" deb atadilar. Hujjatlarda yozilishicha, sayohatchilar keying! 110 kun davomida qurtlagan non ushoqlarini, sassiq suvni ichishga majbur bo'ldilar. Kemalarda kalamushning narxi yarim dukat bo'lgan, dengizchilar kemanding charm qoplangan joylarini olib qaynatib ichishgan. Sayohatchilarning ko'pi tsinga kasaliga chalinib o'la boshladi, Nihoyat, 1521-yilning 6-martida ekspeditsiya a'zolari Marian arxipelagi orollaridan biriga tushdilar. O'n kundan so'ng kemalar yaqinlashgan arxipelag Ispaniya shahzodasi, bo'lajak qirol Filippsharafiga Filippin debataldi. Huddi shu orollarda ro'y bergan bir voqea sayyohlarning qilgan ishlari qanchalik buyuk ekanligini ko'rsatdi. Magellanning qachonlardir Malay orollaridan olib chiqib ketilgan xizmatkori Enrike mahalliyaholibilangaplashibbirlarinitushunganlar. Demak Enrike o'z yurtidan sharq tomonga chiqib unga g'arbdan qaytib keldi. Sebu orollariaholisinihazratioliylari, Ispaniya qiroli vassallariga aylantirish uchun qilingan urushda, 1521-yil 27-aprelda Magellan halokbo'ldi. Molukk orollaridan ziravorlarni ortgan d'Eskato boshchiligidagi ekspeditsiyaning qolgan a'zolari San-Lukarga qaytib kelganda "Viktoriya" kemasida 18 kishi qolgan edi.

Dunyo bo'ylab birinchi sayohat Erning shar shaklida ekanligini uzil-kesil isbot qitib berdi. Sayyohlar Er kurrasining anchagina qismini tadqiq etdilar. Endilikda okean yo'llarini o'zlashtirish boshlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Er yuzidagi aholi haqida ma'lumotlar ko'paya bordi.

5-guruh

Mustamlakalarni istilo qilshda kimlar qatnashdi?

Pireneya yarimorolidan arablarning haydab chiqarilishida faol ishtirok qilgan minglab ritsarlar urushdan so'ng bekor qoldilar. Ularning ko'pchiligi qashshoqlashgan dvoryanlar vakillari edilar. Osonlikcha boylik orttirish yo'lini axtargan ming-minglab kishilar Ispaniya va Portugaliya sayyohlarining kashfiyotlari haqida xabar etishi bilan hech o'ylanib o'tirmasdan yangi o'lkalarga jo'nay boshladilar.


Dengiz ekspeditsiyalarini safarlarga tayyorlashda va jihozlashda savdogarlar va kema egalari ham faol qatnashdilar. Ularning maqsadi savdo-sotiqdan,

bo'ysundirilgan o'lkalarni talashdan boylik orttirish edi. Amerika qit'asini istilo qilishda xristian dini vakillari, ruhoniylar va rohiblar ham ishtirok etdilar. Ular mahalliy aholini xristian diniga o'tkazish bilan shug'ullandilar. Mustamlakalarda o'ljalardan xristian cherkovi hamquruq qolmadi. SHunday qilib, Evropaliklar bosib olingan mamlakatlarni o'z mustamlakalariga aylantirdilar. Mustaqilligini yo'qotib, istilochilar zulmida ezilgan hududlar mustamlakalar deb atala boshlandi.


Proektor orqali namoyish etiladigan slaydlar

Buyuk geografik kashfiyotlar

- 1. Buyuk geografik kashfiyotlar sababi.**
- 2. Hindistonga dengiz yo'lini ochish uchun urinishlar.**
- 3. Kolumb tomonidan Amerikaning kashf etilishi.**
- 4. Dunyo bo'ylab birinchi sayohat.**



Hindistonga dengiz yo'lini ochish uchun urinishlar.



Afrika sohillari.
L.Luis xaritasi.
1563 y.

XV asrda Portugaliya dengizchilikda qudratli davlatlardan biri bo'lib, O'rta yer dengizidan Boltiq dengizigacha suv yo'lini o'z nazoratiga olgan edi.

Portugaliyaliklar Marokashni egallab, janubga tomon siljib borardilar. Ular mahalliy aholidan arzon narxda tovarlarni sotib olardilar, hatto mahalliy aholini qullikka sotishar ham edi.

Hindistonga dengiz yo'lini ochish uchun urinishlar



Vasko da Gama.
o'rta asr miniatyurasi

Bartolomeu Diash ekspeditsiyasi janubga tomon harakatlanib, Afrikaning eng janubiy nuqtasiga yetib keldi va uni "Yaxshi umid" burni deb nomladi.

Ko'p o'tmay Vasko da Gama rahbarligidagi portugaliyaliklar ekspeditsiyasi mazkur joyni aylanib o'tib, 1498 yili Hindistonning Kalkutta shahriga yetib keldi.

Kolumb tomonidan Amerikaning kashf etilishi

Hindistonga yo'l ochishga ispanlar ham kirishgan edi. Ular yerni sharsimon deb hisoblaganligi sababli Hindistonni G'arbdan qidirishgan edi.

1484-yili Genualik Kolumb Ispaniya qirolichasi Izobellaga mazkur taklif bilan murojaat qiladi.

1492-yili 3 ta kemada g'arbga yo'l oldi.

70 kundan so'ng dengizchilardan biri yerni ko'radi.



Xristofor Kolumb

Kolumb tomonidan Amerikaning kashf etilishi

Kolumb bu yerni Xitoy orollaridan biri deb taxmin qiladi va uni San-Sal'vador deb nomladi. So'ng u Kuba va Gaiti orollarni ochdi. Mahalliy aholi ispanlarga osonlik bilan qimmatbaho tovarlarni berishadi.

Kolumb faqat bitta kemada, lekin behisob boyliklar bilan qaytadi-ki, monarxlar (3 ta) yangi ekspeditsiyalarni tashkil etishga rozilik bildiradilar, biroq oltinlar topilmadi.



S. Myunster
uzoq o'lkalar
aholisi.
Gravyura. 14 asr



Teodor de Bri.
Mahalliy aholi saxovati


Kolumb tomonidan Amerikaning kashf etilishi



Teodor de Bri
Amerigo Vespuchchi
miniatyura 16 asr.

Kolumb Hindistonni kashf etganligiga ishongan edi. Faqat Amerigo Vespuchchi ekspeditsiyasi bu yangi qit'a ekanligini isbotladi va "Amerika" deb nomlandi. ispanlar va portugaliyaliklarda: «G'arbda nima bor»? degan savol tug'ildi.

Dunyo bo'ylab birinchi sayohat



Agnes planisferasi
Magellan yo'nalishi bo'yicha

1519-22 yillarda Fernando Magellan 5 kemada Atlantikani kesib o'tib, janubiy Amerikani aylanib, Tinch okeaniga chiqdi. Sayohat 4 oy davom etib, hali Filippin orollariga yetib kelmay, Magellan halok bo'ldi. faqat 1ta kema Ispaniyaga qaytib keldi.

Dunyo bo'ylab birinchi sayohat




Buyuk geografik kashfiyotlar davri



Buyuk geografik kashfiyotlar davri, sharq qarshilik ko'rsata olmagan, mustamlakachilik jarayonini boshlab berdi.

Xitoy va Yaponiya chegaralarini yopib, faqat XIX asr o'rtalarigacha kolonializmdan saqlana oldi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri



Yevropaliklarda e'tiqod kuchli va to'g'ri ekanligi haqida ishonch tug'ildi, ularning sanoat va harbiy sohalardagi yutuqlari boshqa xalqlardan ustunligi haqidagi his-tuyg'uni mustahkamladi.

Shimoliy Amerikaga qirg'oqlariga kemalar yetib keldi

3.2. Tarix fanini o‘qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish tajribalari

4-mavzu	Amir Temur saltanatining ma'muriy va g'arbiy tuzilishi
---------	--

Mashg'ulot vaqti – 1 soat	O'quvchilar soni - 30 ta
Mashg'ulot shakli	Aralash dars
Ma'ruza rejasi	1. Saltanat boshqaruvi 2. Suyurg'ol erlar 3. Qo'shin tuzulishi 4. Jang usullari 5. "Temur tuzuklari"
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quvchilarga Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi haqida bilim berish.	
Pedagogik vazifalar: • Saltanat boshqaruvi haqida ma'lumot berish; • Er tuzulishi, mulkchilik shakllari haqida ma'lumot berish; • Qo'shin tuzulishi, jang usullari haqida ma'lumot berish; • "Temur tuzuklari" haqida ma'lumot berish;	O'quv faoliyati natijalari: • Saltanat boshqaruvi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; • Er tuzulishi, mulkchilik shakllari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; • Qo'shin tuzulishi, jang usullari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; • "Temur tuzuklari" haqida ma'lumotga ega bo'ladilar;
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Aqliy hujum, Blits-so'rov, Tushunchalar tahlili, toifali jadval grafik organgayzeri (guruhning bilish faoliyatidan kelib chiqqan holda bir necha usullardan foydalanish mumkin bo'lgan variantlar keltirildi)
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Yakka, Jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, tarqatma material, jahon siyosiy xaritasi, Ma'ruza matni, slaydlar, proektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol –javob Yozma nazorat: o'quv topshiriq

Texnologik xarita

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchilar
I-bosqich. Tashkiliy qism. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 daqiqa)	1.1. O'quvchilarning davomati va darsga tayyorgarligi aniqlanadi. 1.2. Uy vazifasining nazorati bo'yicha topshiriqni bajarish shartlarini tushuntiradi.	Topshiriqni bajaradi va yozib oladilar.
II-Uy vazifasi nazorati (12 daqiqa)	2.1. Uy vazifasining nazorati. Kichik guruhlariga o'quv topshiriq. Blits-so'rov texnologiyasi yordamida xarita va xronologik sanalar bilan ishlash. To'g'ri javobni aniqlash (2- <i>ilova</i>).	Tinglaydi, javob beradi va topshiriqni bajaradilar
III-Asosiy bosqich (15 daqiqa)	Mavzu rejalari bo'yicha masalasini o'quvchilarga slaydlar asosida tushuntirib beradi: 2.1. YAngi mavzu va rejalari ekranga chiqariladi (3- <i>ilova</i>). 2.2. Saltanat boshqaruvi haqida ma'lumot beradi (4- <i>ilova</i>). 2.3. Suyurg'ol erlar haqida ma'lumot beradi (5- <i>ilova</i>). 2.4. Qo'shin tuzulishi haqida ma'lumot beradi (6- <i>ilova</i>). 2.5. Jang usullari haqida ma'lumot beradi (7- <i>ilova</i>). 2.6. "Temur tuzuklari" haqida ma'lumot beradi va birgalikda fikrlashadilar (8- <i>ilova</i>).	Tinglaydi va yozib oladilar
IV- Mustahkamlash bosqichi (10 daqiqa)	4.1. Mavzuni mustahkamlash uchun vazifa beriladi. Tushunchalar tahlili texnologiyasi (9- <i>ilova</i>). 4.2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar (10- <i>ilova</i>). 4.3. O'quvchilar egallagan bilimlarni blits texnologiyasi asosida qaytar aloqa ta'minlanadi (11- <i>ilova</i>).	Topshiriqni bajaradi va olingan bilimlarni mustahkamlaydilar.
V-Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	5.1. Xulosa qilish. 5.2. Uyga vazifa beriladi. FSMU texnologiyasi asosida topshiriq beriladi. (12- <i>ilova</i>)	Topshiriqni bajaradilar



1-ilova

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘quv topshiriq. Blitz-so‘rov texnologiyasi. Xronologik sanalar bilan ishlash.

To‘g‘ri javobni aniqlash

Guruh ahosi	Guruh atosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tarixiy voqea va jarayonlar	Yillar
					Hindistonga yurish qiladi va Dehlini egallaydi	1395-yilning 15-aprelida
					Eron, Old va Kichik Osiyolarga bir necha yurish qilindi.	1386-1388
					urush davomida G‘arbiy eron, Iroqi Ajam va Kavkaz egallanadi.	1392-1396
					Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo‘yida sodir bo‘ldi.	1398-1399 yillarda
					Eron (Fors), Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko‘li	1399-1404-yillarda

					atrofidagi) erlar egallanadi	
					Fransiya qiroli Karl VI hukmronlik yillari	1402-yil, 20-iyulda
					Anqara yaqinida, Chubug mavzeyida sodir bo‘ladi.	1380-1422
					Kastiliya va Leon qiroli Genrix III hukmronlik yillar	1404-yilning 27-noyabrda
					Angliya qiroli Genrix IV hukmronlik yillari	1399-1413

4-5to‘g‘ri javob - «qoniqarli»

6-8 to‘g‘ri javob - «yaxshi»

9-10to‘g‘ri javob — «a’lo»

Nazorat uchun (to‘g‘ri varianti)

1395-yilning 15-aprelida	Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo‘yida sodir bo‘ldi.
1386-1388	Eron (Fors), Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko‘li atrofida) erlar egallanadi
1392-1396	Urush davomida G‘arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkaz egallanadi.
1398-1399 yillarda	Hindistonga yurish qiladi va Dehlini egallaydi.
1399-1404-yillarda	Eron, Old va Kichik Osiyolarga bir necha yurish qilindi.
1402-yil, 20-iyulda	Anqara yaqinida, CHubug mavzeyida sodir bo‘ladi.
1380-1422	Fransiya qiroli Karl VI hukmronlik yillari
1404-yilning 27-noyabrda	Samarqandga qaytgan Amir Temur 200 ming qo‘shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi.
1399-1413	Angliya qiroli Genrix IV hukmronlik yillari
1390-1407	Kastiliya va Leon qiroli Genrix III hukmronlik yillari

3-ilova

AMIR TEMUR SALTANATINING MA’MURIY VA HARBIY TUZILISHI REJA

1. Saltanat boshqaruvi
2. Suyurg‘ol erlar
3. Qo‘shin tuzulishi
4. Jang usullari
5. “Temur tuzuklari”

Saltanat boshqaruvi

Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsada, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi.

Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo'lgan.


Dargohni Oliy hukmdorning o'zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat — devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan.

Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan.


Bulardan tashqari sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan.

Markaziy hokimiyat tizimida shayxulislom, qozikalon, sadri a'zam, dodxoh, yasovul, muhassil, tavochi, muhtasib va boshqa amaldorlar xizmat qilgan.

Aqliy hujum interfaol usuli orqali quyidagi ma'lumotlar aniqlanadi




Amir Temurning davlatini boshqarishdagi 4 omil




Uch halqa aks etgan tamg'a – Temurbek dunyoning uch qismi podshosi, degan ma'noni anglatadi. Podshox farmoyishi bilan ushbu tamg'a tangalar va boshqa

saltanat xujjatlariga bitilardi. Hujjatlardagi muhrga shu tamg'a qo'yildiki, muhrga "rosti-rusti" (Kuch adolatdadir) degan ma'noni anglatardi. (Rui Gonsales de Klavixo)



**«Temur tuzuklari»da aytilishicha davlat asosini
12 ta ijtimoiy toifa tashkil qiladi**



hunarmand, kosiblar

11. Soʻfiylar

12. Tojir (savdogar) va sayyohlar

5-ilova

Suyurgʻol erlar

Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi oʻlkalarni oʻgʻillari, nabiralari va xizmat koʻrsatgan amirlarga suyurgʻol tarzida inʻom qilib, ular orqali boshqardi.

Movarounnahrda tashqari oʻz tasarrufi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur oʻlimidan biroz avval oʻgʻil va nabiralari orasida bunday taqsimlaydi:

Ozarbayjon, gʻarbiy Eron, Iroq, Armaniston. Gurjistonni — Mirzo Umar ibn Mironshohga,

Forsni — Pirmuhammad ibn Umar SHayxga,

Xuroson, Mozandaron, Ray va Seistonni — SHohruh Mirzoga,

Sulton Mahmud Gʻaznaviy mulkini Kobul va Qandahordan SHimoliy Hindistonga Sind daryosi havzasi bilan birga — Pirmuhammad Jahongirga.

Toshkent, Sayram, Oʻror va Ashparadan to Xitoy chegarasigacha — Ulugʻbekka,

Fargʻona, Tarozdan to Xoʻtangacha, yaʼni SHarqiy Turkistonning janubi gʻarbini — Ibrohim Sultonga berdi.

6-ilova

Qoʻshin tuzulishi

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yolidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qoʻshinga suyanar edi.

SHuning uchun ham u qoʻshin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanish hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi.

Amir Temur qoʻshini oʻntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi.

Lashkar: *tuman* — oʻn minglik, *huzora* — minglik, *qoʻshun* — yuzlik va ayl — oʻnlik birikmalariga boʻlingan.

Amir Temur oʻn minglik askarni boshqarish uchun *tumanogʻasi*, minglik boʻlinmalar uchun *mirihazora*, yuzliklar uchun *qoʻshunboshi* va oʻnliklar uchun esa *ayl boshi* kabi harbiy mansablarni taʼsis etadi.

7-ilova

Jangga kirish usullari

Harbiy yurish paytida oldinda xabarchilar, ular orasidan yasovul bo‘linmasi, undan keyinroqda manglay — avangard qism borardi.

Manglay bilan qo‘shinning asosiy qismlari oralig‘ida esa qo‘mondonning qarorgohi va uning yon-atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan bo‘lib, u «izofa» deb yuritilgan.

Amir Temur qo‘shinining asosiy jangovar qismlari markaz, o‘ng — *burong‘or* va so‘l — *juvong‘or* qanotlandan iborat bo‘lgan.

Har bir qanotning oldida bittadan qo‘shimcha qo‘riqchi manglay — avangardi, yon tomonida esa bittadan qo‘riqchi askariy qo‘shilmalar — qanbullar bo‘lar edi. SHu tariqa qo‘shin etti qism — *qo‘llardan* iborat edi.

SHarafiddin Ali YAzdiy qo‘shinni etti qo‘lga — qismga bo‘lib joylashtirish tartibini birinchi bo‘lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi.

Bu qo‘llar janglarda mustaqil harakat qilib. faqat qo‘shin qo‘mondoniga bo‘ysungan.

8-ilova

Temur tuzuklari


Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san‘ati va davlat boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar yaratilib, u «*Temur tuzuklari*» nomi ostida shuhrat topadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari faoliyatining tartibi — tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarim tayinlash tartiblari belgilab berilgan. Amir Temuring «... davlat ishlariningto‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim», «Kuch — adolatdadur» degan so‘zlari uning mamlakatni aql-zakovat va adolat bilan boshqarganligidan guvohlik beradi.

“Temur tuzuklari” asaridan mavzuga oid ma’lumotlar

Amir Temurning o‘zi yozgan “Tuzuklar”da saltanatni boshqarishdagi asosiy shiorlarini yozgan:

1. Islom diniga rivoj berdim
2. 12 tabaqa va toifa kishilar bilan davlatni idora qildim
3. maslahat, kengash, tadbirkorlik, xushyorlik bilan mamlakatlarni o‘zimga bo‘ysundirdim. Ko‘p narsani bilib tursamda, bilmaslikka soldim, do‘stu dushman bilan murosaya-yu madora qildim
4. Amaldorlarning har biri o‘z lavozimi va matrabasidan mamnun holda xizmatimda bo‘lib, undan ortig‘iga da’vo qilmadi
5. Saltanat to‘nini kiygach, to‘shigimda rohatda uxlash huzuridan voz kechdim. Dushmanlarni do‘stga aylantirdim. Sabr bardosh bilan o‘zimni eshitmagan-ko‘rmaganga solib, ularni tinchitdim.
6. Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ko‘p ziyon etkazganlarni ham tavba qilgach, hurmtalab, yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim, martabalarini oshirdim


7. Do'stu-dushmanligiga qaramay, dushman jangchilarini ham hurmat qildim, chunki ular o'zlarining jonlarini halokatga qo'yib, qurbon qilishga o'tlanadilar
8. Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga sovg'a-in'omlar berib, muruvvatu ehson ko'rsatdimki, yaxshiliklarimni ko'rib, hijolat teriga g'arq bo'ldilar.
9. Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi etdim. Gunohkorga ham, bugunoqqa ham rahm-shafqat bilan, hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohiylarim va ra'iyatni umid va qo'rqinch orasida tutdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim.
10. Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishingga ko'p ziyon etkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru' qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarimda menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, kiyet edi.




Mavzuni mustahkamlash uchun «Tushunchalar tahlili» texnologiyasi

tushunchalar	mazmuni
Dodxoh	Shikoyatlarni ko'ruvchi
Muhassil	Soliq undiruvchi
Sadri a'zam	Vaqf mulklari boshqaruvchisi
Suyurg'ol	Oliy hukmdor tomonidan in'om tariqasida berilgan er-mulk
Tavochi	Qo'shin to'plovchi
Yasovul	Hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi
tuman	o'nminglik
hazora	Minglik
qo 'shun	Yuzlik
ayl	o'nlik
manglay	avangard
izofa	zaxira
o'ng	bumng'or
juvong'ar	so'l
qanbul	Askariy qo'shilma
Arzbeigi	oliy hukmdorning huzuriga arz-shikoyat bilan kelgan kishilarni qabul qilib, ularning shikoyatini podshoh (xon)ga etkazib turuvchi va ularga javob qiluvchi mansabdor.
Axtabegi	podsho (xon)larga tegishli otlarning tasarrufiga mas'ul bo'lgan mansabdor.
A'lam	fiqh (musulmon qanunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan bu mansabdor qozilarning faoliyatini nazorat qilgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat a'lamning tastig'idan o'tgandan keyin kuchga kirgan
Bakovulboshi	podshoh (xon) oshxonasida xizmat qilib turgan va ovqat pishiruvchilar tepasida turgan mansabdor
Bitikchi	Devonlarning yozish-chizish ishlarig amutasaddi bo'lgan mansabdor
Daftardor	Devoni mustavfiy (moliyavazirligi)da oliq-soliq to'lovchilar ro'yxati, soliq dardaftarini yurituvchi mansabdor
Jalolul-islom	Oliy hukmdorning buyrug'i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini taftish qilib turuvchi oliy mansabdor
Jarchi	Podshohning farmonlari va buyruqlarini (masalan qo'shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarini) aholiga etkazib turuvchi mansabdor
Zinbardor	podshoh (xon) otiga egar-jabduq urib, uni minishga

	tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqqida xonning zahiradagi otini o‘zi bilan birga etaklab yurgan
Kadxudo	Qishloq oqsoqoli
Kutvol	Qal’a hokimi. Zimmasiga uni doim mudofaaga tayyor holda tutish, u erdagi qo‘shinga mutasaddilik qilish vazifasi yuklatilgan
Majlisnavis	Oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig‘ilishlarida bo‘lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib
Miroxur	Podshoh (xon) otxonalariga qarab turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpo va otxonalarga mutasaddi bo‘lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig‘i bilan urush paytida qo‘shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan
Muftiy	musulmon qonunshunoslarining boshlig‘i. SHariat qoidalari asosida chiqarilgan hukm (fatvo) faqat uning tasdig‘idan keyin kuchga kirgan
Muxtasib	musulmonlar tarafidan islom va shariat ahkomlari qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi diniy mansabdor. Bu lavozim XVIII - XIX asrlarda Buxoroda rais deb atalgan.
Muxosil	bo‘ysundirilgan shahar xalqidan o‘lpon undiruvchi mansabdor.
Chuhra og‘asi	oliy hukmdorning shaxsiy qo‘riqchilari (chuhralari) boshlig‘i
Yurtchi	harbiy yurishlar paytida oldindan borib podshohning chodirini tikishga rahbarlik qiluvchi mansabdor





10-ilova

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

Amir Temur saltanati qanday boshqarilgan?
 Hokimiyatda qanday lavozimdagi amaldorlar xizmat qilgan?
 Amir Temur davlatidagi uluslar haqida nimalarni bilib oldingiz?
 Suyurg'ol erlari kimlarga, nima uchun berilgan?
 Amir Temur qo'shni qanday tartibda tuzilgan?
 Amir Temur qanday usulda jangga kirgan?

O'quv topshirig'i. Blitz texnologiyasi. Atamalar bilan ishlash

Atama	Mazmuni
Dodxoh	o'nlik
Muhassil	Yuzlik
Sadri a'zam	Minglik
Suyurg'ol	o'n minglik
Tavochi	Hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi
Yasovul	Qo'shin to'plovchi
Tuman	Oliy hukmdor tomonidan in'om tariqasida berilgan er-mulk
Hazora	Vaqf mulklari boshqaruvchisi
Qo'shun	Soliq undiruvchi
Ayl	Shikoyatlarni ko'ruvchi
Manglay	askariy qo'shilma
Izofa	so'l
O'ng	podshoh (xon) oshxonasida xizmat qilib turgan va ovqat pishiruvchilar tepasida turgan mansabdor.
Juvong'ar	zahira
Qanbul	avangard
Arzbegi	oliy hukmdorning huzuriga arz-shikoyat bilan kelgan kishilarni qabul qilib, ularning shikoyatini podshoh (xon)ga etkazib turuvchi va ularga javob qiluvchi mansabdor
Axtabegi	fiqh (musulmon qanunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan bu mansabdor qozilarning faoliyatini nazorat qilgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat a'lamning tastig'idan o'tgandan keyin kuchga kirgan.
A'lam	podsho (xon)larga tegishli otlarning tasarrufiga mas'ul bo'lgan mansabdor
Bakovulboshi	bumng'or
Bitikchi	Devoni mustavfiy (moliya vazirligi)da oliq-soliq to'lovchilar ro'yxati, soliqdar daftarini yurituvchi mansabdor.
Daftardor	devonlarning yozish-chizish ishlariga mutasaddi bo'lgan mansabdor.
Jalolul-islom	podshoh (xon) otiga egar-jabduq urib, uni minishga tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqqida xonning zahiradagi otini o'zi bilan birga etaklab yurgan.
Jarchi	qishloq oqsoqoli
Zinbardor	oliy hukmdorning buyrug'i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini taftish qilib turuvchi oliy mansabdor
Kadxudo	podshohning farmonlari va buyruqlari ni (masalan qo'shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarini) aholiga etkazib turuvchi mansabdor.

Kutvol	qal'a hokimi. Zimmasiga uni doim mudofaaga tayyor holda tutish, u erdagi qo'shinga mutasaddilik qilish vazifasi yuklatilgan
Majlisnavis	Podshoh (xon) otxonalariga qarab turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpo va otxonalarga mutasaddi bo'lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig'i bilan urush paytida qo'shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan.
Miroxur	oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig'ilishlarida bo'lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib.

Nazorat uchunto'g'ri javoblar

Atama	Mazmuni
Dodxoh	Shikoyatlarni ko'ruvchi
Muhassil	Soliq undiruvchi
Sadri a'zam	Vaqf mulklari boshqaruvchisi
Suyurg'ol	Oliy hukmdor tomonidan in'om tariqasida berilgan er-mulk
Tavochi	Qo'shin to'plovchi
Yasovul	Hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi
Tuman	o'n minglik
Hazora	Minglik
Qo'shun	Yuzlik
Ayl	o'nlik
Manglay	avangard
Izofa	zaxira
O'ng	bumng'or
Juvong'ar	so'l
Qanbul	askariy qo'shilma
Arzbegi	oliy hukmdorning huzuriga arz-shikoyat bilan kelgan kishilarni qabul qilib, ularning shi- koyatini podshoh (xon)ga etkazib turuvchi va ularga javob qiluvchi mansabdor
Axtabegi	podsho (xon)larga tegishli otlarning tasarrufiga mas'ul bo'lgan mansabdor
A'lam	fiqh (musulmon qanunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan bu mansabdor qozilarning faoliyatini nazorat qilgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat a'lamning tastig'idan o'tgandan keyin kuchga kirgan
Bakovulboshi	podshoh (xon) oshxonasida xizmat qilib turgan va ovqat pishiruvchilar tepasida turgan mansabdor.
Bitikchi	devonlarning yozish-chizish ishlariga mutasaddi bo'lgan mansabdor.
Daftardor	Devoni mustavfiy (moliya vazirligi)da oliq-soliq to'lovchilar ro'yxati, soliqdar daftarini yurituvchi mansabdor.

Jalolul-islom	oliy hukmdorning buyrug'i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini tashqir qilib turuvchi oliy mansabdor.
Jarchi	podshohning farmonlari va buyruqlari ni (masalan qo'shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarini) aholiga etkazib turuvchi mansabdor.
Zinbardor	podshoh (xon) otiga egar-jabduq urib, uni minishga tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqgida xonning zahiradagi otini o'zi bilan birga etaklab yurgan.
Kadxudo	qishloq oqsoqoli
Kutvol	qal'a hokimi. Zimmasiga uni doim mudofaaga tayyor holda tutish, u erdagi qo'shinga mutasaddilik qilish vazifasi yuklatilgan.
Majlisnavis	oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig'ilishlarida bo'lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib.
Miroxur	Podshoh (xon) otxonalariga qarab turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpo va otxonalarga mutasaddi bo'lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig'i bilan urush paytida qo'shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan.

12-ilova

Uyga vazifa. FSMU texnologiyasi

“Amir Temur davrida Markaziy Osiyodagi asriy davlatchilik an'analari tiklandi !”

F - fikringizni bayon eting S - fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating M - ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring U - fikringizni umumlashtiring
--

XULOSA

Hozirgi bosqichda tub ijtimoiy o'zgarishlar pedagogik konsepsiyalarni, pedagogika fanining faol rivojlanishini, inson-shaxs-individ yunalishda zamonaviy talab asosida ko'rib chiqishni talab etadi. O'qitishning yangi tamoyillari asosida ta'limning muhim muammosi o'qituvchining mutaxassisligi asosini tashkil etishi shart bo'lgan, pedagogik jarayonning nazariy mezonlarini ishlab chikishdir.

Konfutsiyning: «Men eshitaman va unutaman, men ko'raman va eslab qolaman, men bajaraman va tushunaman» - degan so'zlari yuqoridagi fikrlarimizga dalil bo'ladi. Demak, o'quvchi ko'z bilan ko'rib, o'zi mustaqil bajarganda, o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini to'laroq tushunish mumkin. Biz taklif etayotgan o'qitish usullari aynan o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslanadi.

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha puxta bilimga ega bo'lish bilan

birgalikda, o'quv jarayoniga qadam kuyyar ekan, pedagogikaning turli texnologik usullaridan foydalana bilishi davr talabiga aylandi. Tarix fanini o'qitishda xam xar bir o'qituvchi oldiga fan buyicha yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarga puxta bilim berishdek, mas'uliyatli vazifani kuymokda.

O'quvchi kelgusida qanday hunar egallashidan qat'iy nazar, jamiyatda obro'li bo'lishi uchun kishi o'z tarixini bilishi zarurligini, ularga etkazish yaxshi samara beradi. Natijada o'quvchi mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni tezda bajarib, o'qishga bo'lgan qiziqishi ortib boraveradi. Ta'lim olishning maqsadi mavhum, noaniq bo'lsa, o'quvchi bilim olishga qiziqmaydi. O'qishga shunchaki kelib ketib, vazifalarni bajarishga xafsalasizlik bilan qaraydi. "O'quvchilardagi tushunchalarning chuqur va mustahkam bo'lishi, asosan o'qituvchining o'quvchilar fikrlash faoliyatini qanchalik uyg'ota olish va unga kay darajada rahbarlik qila bilishiga bog'lik"¹.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.:O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida // Xalq so'zi, 2012 yil 29 may, № 10.
5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii v podgotovke uchitelya. – T., 2000.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2006.
7. Ahmedov B.A. Amir Temur darslari. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, litsey va kollejlarda o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: SHarq, 2000.

¹ Sa'diev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi, -T., Oqituvchi, 1988. - 116-bet.

8. Ahmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o'rta asrlar). – T.: O'qituvchi, 2001.
9. Buyuk siymolar, allomalar. – T.: Xalq merosi, 1996.
10. Golish L.V., Xashimova D.P. Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – T.: TDIU, Iqtisodiyot. 2013.
11. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
12. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2008.
13. Yo'ldoshev J.G., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari - T., 2004.
14. O'zbekiston tarixi atlas. – T., O'zgeokadastr, 1999.
15. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. – T.: O'qituvchi, 1996.
16. Rahimov J. O'zbekiston tarixi darslarida arxiv materiallaridan foydalanish. – T.: O'qituvchi, 1995.
17. Saidaxmadov N., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T., 1999.
18. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'unliy va H.Karomatov tarjimasi. So'z boshi myallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali. – T.: SHarq, 2005.
19. Tolipov O'.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari. – T., 2006.
20. Xodiev B.YU., Golish L.V., Rixsimboev O.K. Keys-stadi – iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma /Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. T.: TDIU, 2009.
21. G'anieva M. O'qitishning loyihaviy texnologiyasi to'plami. – T.: TDIU, Iqtisodiyot. 2013.
22. G'anieva M., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami . – T.: TDIU, Iqtisodiyot. 2013.